

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI.
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI.**

G.N.QURBONOVA

O' Z B E K T I L I

**5720100-DAVOLASH ISHI
5720400-STOMATOLOGIYA ISHI TA'LIM SOHASI
BAKALAVRIAT YO'NALISHI MUTAXASSISLIKLARI UCHUN
O'QUV - QO'LLANMA SIFATIDA TAVSIYA ETILADI.**

Buxoro 2010 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI.
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI.**

G.N.QURBONOVA

O' Z B E K T I L I

**5720100-DAVOLASH ISHI
5720400-STOMATOLOGIYA ISHI TA'LIM SOHASI
BAKALAVRIAT YO'NALISHI MUTAXASSISLIKLARI UCHUN
O'QUV - QO'LLANMA SIFATIDA TAVSIYA ETILADI.**

Buxoro 2010 yil

G.N.Qurbonova. O'zbek tili.O'quv qo'llanma. Buxoro, 2008.162-bet.

Ushbu o'quv qo'llanma 720000-Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi bakalavriati yo'nalishida tahsil olayotgan rus guruhi talabalari uchun tayyorlangan.

O'quv qo'llanma "O'zbek tili" fanining uzluksiz ta'lim tizimiga amal qilgan holda va amaldagi namunaviy o'quv rejasiga muvofiq tarzda tuzilgan bo'lib, rus guruhlari talabalarining davlat tilidagi kasbiy nutqini mutaxassislikka oid matnlar asosida o'stirishga qaratilgan. Qo'llanmaning birinchi qismiga rejadagi mavzularni amaliy o'rganish maqsadida ixcham grammatik izohlar, tibbiyotga oid matnlar, topshiriq dialog namunalari va lug'at berilgan. Kitobning ikkinchi qismi talabalarning o'zbek tilidan mustaqil ta'lim olishlariga imkoniyat yaratuvchi ixtisoslikka oid matnlar va ularga berilgan savol hamda topshiriqlar bilan boyitilgan.

MAS'UL MUHARIR:

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR H.G.NE'MATOV,

TAQRIZCHILAR:

A.Rafiyev, ToshDMU "O'zbek tilshunosligi" kafedrası dotsenti

B.E. Qilichev, BUX DU "o'zbek tilshunosligi " kafedrası mudiri, dotsent

YO. H. Hamroyev BUXTI "xorijiy tillar " kafedrası mudiri, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 27.10 dagi 373-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr qilishga ruxsat berilgan

Ro'yxatga olish raqami- 4

SO'Z BOSHI

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonuniga ko’ra Respublikamizdagi barcha oliy o’quv yurtlari oldiga rivojlangan demokratik davlatlar talablari darajasidagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasi qo’yildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi ya’ni, sifat bosqichi amalga oshayotgan hozirgi paytda Respublikamiz mustaqilligini uning barcha yo’nalishlari bo’yicha yanada rivojlantirishda yuqori sifatli, bilimli, malakali mutaxassislariga tayanamiz. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov “Vatanimizni har tomonlama yetuk, yuqori malakali, o’z yurtiga va xalqiga fidoyi bo’lgan kadrlar bilan ta’minlash xalq xo’jaligining ustivor yo’nalishlaridan”- deb asosli aytganlar.

Tibbiyot institutlari, tibbiyot kollejlari rus guruhlar talabalari uchun mo’ljallangan mazkur o’quv qo’llanma “O’zbek tili” fanidan berilgan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo’lib, o’quv rejasida belgilangan 76 soat amaliy mashg’ulotlar asosida yozildi. Hozirgi kun talabidan kelib chiqib “Ta’lim to’grisida” gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tadbiq etish, bakalavriyat bo’yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish maqsadida o’quv qo’llanma yangi pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlandi.

O’quv qo’llanmada ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlar talabidan kelib chiqib, hamda tibbiyot institutlari va kollejlarda olib borilishini inobatga olib, ixtisosiy tibbiy matnlar, unga muvofiq topshiriqlar, grammatik mavzular, savol- javoblardan iborat yozma nutq namunalari, mustaqil ishlash uchun alohida matnlar majmuasi, og’zaki nutqni o’stirish uchun she’rlar to’plami, ruscha- o’zbekcha tibbiy atamalar lug’ati kiritilgandir.

O’quv qo’llanmada o’zbek tilini keng miqyosida o’rgatish maqsadida tibbiyot xodimlari nutqiga daxldor bo’lgan dialog namunalari ham keltirilgan.

Oldingi yozilgan o’quv qo’llanmalardan farqli ravishda tibbiyot institutlarning barcha fakultetlarida, tibbiyot kollejlarda tahsil olayotgan rus guruhlar talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, mustaqil ta’lim soatlarini, ifodali o’qish mashqlarini ham o’z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili qonuni haqida



Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Milliy tillarni har tomonlama rivojlantirish millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga, xalqlarning milliy va baynalminal o'zligini anglashning o'sishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili" to'g'risidagi qonuni o'n birinchi chaqiriq Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda qabul qilingan.

Qonun 30 moddadan iborat bo'lib, o'zbek tili Respublikasining butun hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Mazkur qonun moddalaridan namunalar:

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilinishini ta'minlaydi.

2-modda. O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir.

4-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi davlat hokomiyati va boshqaruv organlari faoliyatida s'yezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar davlat tilida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida muassasa, korxona, tashkilot va birlashmalarda ish -respublika davlat tilida yuritiladi.

18-modda. Ilm-fanning hamma sohalarini respublika davlat tilida rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitni yaratib beradi. Respublikada ilmiy ishni o'zbek tilida taqdim etish, himoya qilish va nashr qilish huquqi ta'minlanadi.

20-modda. O'zbekistonda chiqaradigan kitoblar, jurnallar, davriy xabarnomalar asosan davlat tilida nashr qilinadi.

22-modda. Muassasa, korxona, davlat va jamoat tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamg'alari va ish qog'ozlarining matnlari respublika davlat tilida bo'ladi.

Muomala-munosobat odobi bir-birlariga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, do'stlik-birodarlik, mehr-oqibat iplarini mustahkamlovchi, kishini katta-katta xayrli ishlarga undovchi fazilatdir.

Muomala-munosobat orqali insonning aql-zakovati, fahm-farosati, ota-onasi qanday kishilar ekanligi hamda u o'zi qanaqa tarbiya olganligi namoyon bo'ladi.

Xushmuomalalik, xushtabiatlik kishilarga hamisha xushnudlik, obro'-e'tibor, baxt-saodat, huzur-halovat bag'ishlaydi. "Dono topib gapirar"- deganday, o'z fikrini ma'noli, kishiga og'ir botmaydigan so'zlar bilan ifodalash ham donolik, ham odoblik namunasidir.

Odamlar butun ichki duyosini, maqsadini muomala va munosabatlarini, bir-birlariga so'z yordamida yetkazadi, amalga oshiriladigan ish tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi.

So'zga boy, shirinsuhan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. Aksincha tili achchiq, qo'pol so'zlaydigan odamlarni odamlar yoqtirmaydi. Muomala-munosabatida, biror ishni bitkazishda bunday odamlar qiynaladilar, odamlar orasida hurmat bo'lmaydi. Tilni yaxshi bilmoq so'zlashuv san'atini egallamoq inson uchun hayotiy zaruratdir. Boshqacha qilib aytganda so'zlashuv ham bir san'atdir. Bu san'atni mukammal o'rganish har bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq har bir insonning muqaddas burchidir. Tilni bilgach, uni ishlata bilish san'atini egallamoq inson uchun zarurdir.

HIKOYAT

Ibn Sino har qanday hakimning huzurida hoziru nozir bo'lib, nuqul shunday ta'lim bergan ekan.: "Bergan dorim shifo bo'lmadi desang xato qilgan bo'lasan. Davo, avvalo, shirin til, xushmuomala, kulgi tabassumdir. Bemor qo'pol bo'lsa hakim muloyim bo'lishi, bemor zahar bo'lsa hakim shirin zabon bo'lishi, bemor xo'mraysa hakim kulishi kerak. Hakimda shular bo'lmasa u hakim emas, balki o'limni yaqinlashtiruvchi bir kimsadir,"- degan ekan.

MASAL

-Nega tishlaysan? dedi Til, duduqlana-duduqlana Tishga.

Uchignadan ozginasini uzib tashlamoqchi edimda.- javob qildi Tish.

-Nima uchun, gunohim nima?

- Shuning uchunki, ko'ringanga zaharingni sochasan, barcha sendan bezor.
Sal qisqartirib qo'ysam, zora zaharingni kamroq sochib, shirinroq bo'lsang.
Qissadan hissa:
Tilning zahari jonning azobi.

“Mustaqil O'zbekiston”



Biz uchun mustaqillik-eng avvalo o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu Vatanda har bir xonodonda tinchlik osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir.

I.A.Karimov.

1991-yil 1-sentabr O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kun. Bu bayram Vatanimiz tarixida zarhal harflar bilan yozilgan sana desak also adashmaymiz. Mustaqillik azal-azaldan ilm-fan beshigi, islom dinining ziynati hisoblanish yurtimiz-Turon zamini uchun yangi imkonoyatlar eshigi ochilganligidan dalolat beradi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng butun yurtimizda obodonlashtirish ishlari olib borildi,qator osmon o'par binolar qad ko'tardi,boshqa davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilyapti.Shu bilan bir qatorda sport sohasi ham Prezident e'tiboridan chetga qolmayapti.

Shunday ekan biz yurtimizning bundanda yuksalishda o'z hissamizni qo'shishimiz, buyuk olim bo'lib yetishmasakda, vijdon, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlarni iymonni burch deb biladigan inson bo'lib etishmiz zarur.

Lug'at
Kelajak –будущее
O'tmish –прошлое
Gullagan davlat – процветающее государство
Boy tarix –богатая история
Meros – наследие
Faylasuf –философ
Rivojlanish –развитие

I topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Suveren davlat qanday davlat?
2. Davlatimiz tuzilmasi qachon shakllangan?
3. Imom-al Buxoriy, Abu Nasir Farobiy madaniy merosi haqida nimalar bilasiz?
4. Yoshlar ma'naviy me'rosimidan qanday foydalanishi kerak?
5. Bu haqda "Yoshlar yili" dasturida nimalar deyilgan?

II topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. O'zbekiston Respublikasi _____ va _____ oralig'ida joylashgan.
2. _____ Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilindi.
3. O'zbekistonning _____ shaharlari xalqaro turizm markazlaridir.
4. O'zbekiston _____ mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatgan.

Фонетика

Узбекский является старописьменным языком. До VIII века в узбекском языке пользовались урхоно-енисейским письмом. С VIII века народы Средней Азии, в том числе узбеки, начали пользоваться арабским алфавитом, который был реформирован в 1929 году и заменен латинизированным алфавитом.

С 1940 года узбекский алфавит перешёл на новый алфавит, выработанный на основе русской графики.

С сентября 2005 года перешёл на новый алфавит на основе латинской графики.

Алфавит узбекского языка.

Aa-(a), Bb-(b), Dd-(d), Ee-(e), Ff-(f), Gg-(g), Hh-(h), Ii-(i), Jj-(j), Kk-(k), Ll-(l), Mm-(m), Nn-(n), Oo-(o), Pp-(p), Qq-(q), Rr-(r), Ss-(s), Tt-(t), Uu-(u), Vv-(v), Xx-(x), Yy-(y), Zz-(z), O'o'-(ö), G'g', Sh, Ng, '.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari

Harflar imlosi. Unlilar imlosi

1. **A a** harfi:

- 1) *aqa, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida *vaqt, vahim* kabi so'zlarda aytiladi va yoziladi.

2. **O o** harfi:

- 1) *ona, omon, quyosh, fido, bahio, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *boksh, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; director, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi;

3. **I i** harfi:

- 1) **ish, iz, qil;** *xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida **o'** unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **U u** harfi:

- 1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuiq, usul, yulduz; mafkura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuy* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **O'o'** harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'taqo'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

6. **E e** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zefin; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, sh'er* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi :

- 1) unlilar orasida ba'zan **y** undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:
 - a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;
 - b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;
 - d) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;
 - e) **oi:** *alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;
 - f) **ea:** *teatr, okean, laureate* kabi;

2) **ae,oe** unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvoffiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

O'zbekistonning o'tmishi ham, kelajagi ham buyuk davlat.



Mustaqillik, mustaqil suveren davlatning tuzilishi-bu har bir xalqning asriy orzusi- umidlarning, muqaddas maqsadlarining ro'yobga chiqishidir. O'zbekiston xalqi 1991 yil 31 avgustda o'zining davlat mustaqilligini e'lon qildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Hozirgi O'zbekiston Respublikasida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida paydo bo'lgan edi. Ushbu qudratli tobora gullab- yashnagan davlatlar butun dunyoda katta obro'ga, hurmat va mavqega ega bo'lgan. Qadimgi yilnomalarda va boshqa tarixiy yodgorliklarda, shuningdek yer yuzidagi boshqa mamlakatlar va xalqlarning yodnomalarida o'sha zamonlarda O'rta osiyo hududida Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Marg'ilon va qudratli va rivojlangan davlatlar mavjud bo'lganligi to'g'risida ko'p marta qayta- qayta eslatib o'tilgan. Amir Temur, Bobur kabi dono hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonlarda o'zbek davlatchiligi sivilizatsiyaning eng gullab yashnagan va eng yuqori darajada ko'tarilgan davrlari bo'lgan. Bunday buyuk kishilar hukmronlik qilgan yillarda hunarmandchilik, ilm-fan gullab yashnagan. Bizning ajdodlarimiz butun bashariyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga asrlar bo'yi so'nmaydigan g'oyat katta hissa qo'shganlar.

Siz maktabda o'qib yurgan yillardayoq Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Naqshbandiy, Yassaviy, Ulug'bek, Navoiy, Yugnakiy va boshqa buyuk kishilar nomini ko'p marta eshitganmiz. Endi o'qish

jarayonida biz bu ulug' zotlarning buyuk, chinakam o'lmas ma'naviy merosi bilan mufassal tanishib chiqamiz. Biz o'z xalqimiz, o'z Vatanimiz boy tarixi bilan tanishib chiqqach, uning butun ulug'vorligini, mahobatini ko'ramiz va tushunib olamiz. Biz necha yuz yilliklar Ibn Sino (980-1037 yillar) va Gippokrat nomlarini butun insoniyat tarixidagi eng buyuk hakimlar sifatida tilga olib kelinayotganini bilib olamiz. Avitsenna (yevropaliklar Ibn Sinoni shu nom bilan atashgan)ning asosiy fundamental ko'p jildli "Tib qonunlari" nomidagi asari bugungi kunda ham butun yer yuzidagi eng yirik tibbiyot olimlarning qo'lidan tushmaydigan kitob hisoblanadi. Bu kitobdan ular ajoyib ixtirolar yo'lini ochib beradigan juda ko'p yangidan-yangi g'oyalar o'qib, bugungi tibbiyot oldida turgan ko'pgina savollarga javob topadilar.

Biz al- Farobiy- abu nasr ibn Muhammad (870- 950yillar) nomi Aristotel (Arastu) bilan baravar tilga olingan o'z davrining yirik faylasuflaridan biri butun bir ilmiy maktabga asos solgan buyuk zot ekanligini bilib olamiz.

Al-Xorazmiy – Muhammad ibn Muso (787- taxminan 850 yillar) buyuk matematik olim bo'lganligini, u ixtiro qilgan algebra qonunlarining ahamiyati bilim bobidagi insoniyat tarixida Arximedning geometriyaga oid qonunlarning ahamiyatidan kam bo'lgan emas. Al-Beruniy (973-taxminan 1051- yillar) Abu Rayxon ibn Axmad al-Beruniy Galileydan ancha ilgari yerning quyosh atrofida aylanishi to'g'risida fikrni aytgan. U astronomiyadan tashqari tarix, matematika va boshqa shu singari fanlarning rivojlanishiga ham juda katta hissa qo'shgan.

Alisher Navoiy (1441-1501 yillar)ning asarlari butun insoniyat badiiy ijodining taraqqiyotiga xuddi Dante, Shekspir, Pushkin ijodi singari ta'sir ko'rsatgan. Yana u xuddi Gyote singari mashhur davlat arbobi ham bo'lgan. Uning davlat va jamiyat tuzilishi to'g'risidagi ko'pgina fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Ko'hna Samarqand, Buxoro, Xiva shahridagi ajoyib me'morchilik yodgorliklarini yer sharining turli tomonlaridan kelib ko'rayotgan kishilar xalq ustalarining iste'dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil qolib, ularga ta'zim qilmoqdalar. Bundan ming yillar burun bunyod etilgan ajoyib suv inshootlari o'z davrida jahondagi eng yuksak dehqonchilik madaniyati va sug'orish ishlari uchun asos bo'lgan.

Muqaddas yerimiz orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li esa Osiyo va Yevropa xalqlari va mamlakatlarini bir-biriga bog'lab, hozirgi xalqaro hamkorlikning o'sha zamonlardagi timsoli bo'lib xizmat qiladi.

O'lkamiz boyligi, uning ajoyib tabiati iqlim sharoiti uning Osiyo markazida egallab turgan qulay jo'g'rofiy joylanishi qadim vaqtlardan o'zga yurtlardan bosqinchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin bizning qahramon, tinchliksevar xalqimiz ayrim tarixiy sharoitlar tufayli har doim ham u bosqinchilarga qarshi muvaffaqiyatli kurasha olmagan, har qanday tajovuzni daf qila olmagan. Mamlakat ichkarisidagi urug'-aymoqchilik va hokimiyat uchun olib borilgan kurash, mahalliy hukmdorlarning fisq-fujuri va ig'vo- janjallari ham juda katta zarar keltirib, mamlakat va xalqning ahvolini tang qilib qo'ygan davrlar bo'lgan. Buning natijasida muayyan tarixiy bir bosqichda boshqa ko'p

mamlakatlar qatori bizning yurtimiz ham o'z mustaqilligi va o'zligini yo'qotib, g'oyat katta bir imperiyaning chekka o'lkasiga aylanib, avtoritar markazning xom ashyo yetkazib beradigan mustamlakasiga aylanib qolgan edi.

Lekin xalqimiz bunga hech qachon rozi bo'lmagan edi. U bor kuchi bilan ter to'kib mehnat qilgan va mardona jang qilgan, kuch to'plagan, o'z yoshlarini vatanparvarlik, ko'p asrlik madaniyatimizga va ajoyib milliy an'alarimizga hurmat ruhida tarbiyalab kelgan. Va nihoyat, ob'ektiv shart- sharoitlar yetib, ozodlikka yetish onlari kelgach, xalqimiz qaddini tik tutib hokimiyatni o'zining mohir qadoq qo'llariga oldi, ona- Vatanning suvereniteti va mustaqilligini tikladi.

Grammatik mavzu

Ayrim undoshlar imlosi

1. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasida ' tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hoq* kabi.

2. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keeling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

3. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

4. **G'g'** harfi *g'oz, bag'ir, tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

5. **X x** harfi *xabar, xo'roz. xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

6. **H h** harfi *hozil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshni ifodalash uchun yoziladi.

7. ' - *tutuq belgisi:*

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, ma'sul* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

1-mashq. Matnni o'qing. "O'z uyingni o'zing asra" mavzuida savol-javob asosida o'zaro fikr almashtiring.

Maqsad degani – xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni – millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin.

(I.A.Karimov)

2-mashq. She`rni yod oling hamda unli va undosh harflar talaffuziga e`tabor bering

Til

Har tilni biluv emdi bani Odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilni bilgali sa`y aylangiz, yoshlar,
Kim ilmu hunarlar kaliti andin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting, foydaga kondur.

Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda uqig'onlar bari yaktoyi zamondur.

Zor bo'lmasin onlar haqi til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin aning bag'ri to'la qondur.

O'zbekiston katta imkoniyatlar mamlakati.



O'zbekistonda hamma narsa: tabiat boyliklari, hosildor yerlar mehnat resurslari, qudratli, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy potensial mavjuddir.

O'zbekiston mehnatsevar, istedodli, va mehmondo'st xalqi – bu Respublikaning chinakam boyligidir. Juda katta boyliklar mavjudligi, qudratli sanoat bazasi, ilmiy va intellektual potensial davlat suvereniteti bilan birgalikda jamiyatni yangilash uchun, tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarni shakllantirish, O'zbekistonni rivojlangan, gullab yashnayotgan davlatga aylantirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy huquqiy omillar va imkoniyatlarni yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi bayrog'i to'g'risida.



O'zbekiston respublikasi davlat bayrog'ining ramzlari vatanimiz tuprog'ida avval mavjud bo'lgan qudratli davlatlarning bayroqlariga xos eng yaxshi an'analarni davom ettiradi, ayni vaqtda respublikamizni tabiiy, milliy va madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

Bayroqning moviy ko'k rangi moviy osmon, tiniq suv, ya'ni yeru ko'kdagi hayot manbalari ramzidir. Moviy ko'k rangi Amir Temur davri bayrog'ining ham asosiy ramzi bo'lgan.

Oq rang-tinchlik, poklik ramzi. Yangi mustaqil davlatimiz baland dovonlardan oshishi kerak. Bayrog'imiz bizga oq yo'l tilaydi.

Yashil rang-tabiat, yashnab turgan hayot va hosildorlik ramzi. Ayni vaqtda butun jahonda atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. “yashillar” harakatiga xayrixohligimiz ham yashil rang blain ifodalanadi.

Qizil rang-har bir tirik vujudda mavjlanib turgan hayotiy kuchlar va bizning yaxshi niyatlarimizni yeru osmonni bog’lab turadigan jonli rishtalar ramzidir.

Yangi oy - ko’p asrlik tarixiy ana’nalarimizga mos. Ayni vaqtda yangi oy yangi tug’ilgan mustaqilligimiz ramzidir.

Yulduzlar - hamma xalqlarda bulutsiz osmon ramzi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasining yangi bayrog’ida tasvirlangan 12 ta yulduz esa bizning Navro’zdan boshlanadigan quyosh taqvimi oylar va yillar hisobini ilmiy jihatdan chuqur asoslab bergan eng mukammal taqvimlardandir. Chunki hamal, savr, javzo, saraton, asad va boshqa oylarning har qaysisi osmondagi 12 ta burjning bittasini ko’rsatib turgan yulduzlarning nomlaridir.

12 raqamni hikmatli qilgan yana bir sabab – hozir butun dunyoda tobora keng tarqalayotgan va tan olinayotgan 12 yillik muchal hisobidir.

O’zbekiston Respublikasining Davlat gerbi.



O’zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to’g’risida qonun 1992yil 2 iyulda O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasida qabul qilindi.

Gerbning markazida tasvirlangan qanotlarini keng yozib turgan XUMO qushi baxt saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz A.Navoiy XUMO qushini barcha tirik mavjudodlar orasida eng saxovatlisi deb ta’riflaydi.

Gerbning yuqori qismida Respublikamizning sobiq va barqarorligining ramzi sifatida qirrali yulduz tasvirlangan. Uning ichida yarimoy va besh qirrali yulduz ifodalangan.

LUG'AT


Hudud	территория
Chegara	граница
Tashkil etmoq	организовать
Viloyat	область
Nohiya (tuman)	район
Xomashyo manba	сырьевая база
Asosiy qism	основная часть
Yetishtirmoq	выращивать, производить
Mustaqil	независимый
Boylik	богатство
Ko'mir	уголь
Qazib olmoq	выкапывать
Chiqarilmoq	отправлять,выставлять вывозить
Iqtisodiy	экономический
Shartnoma	договор
Madaniy	культурный
Tan olmoq	признавать
Anjuman	собрание, съезд, форум
Manzil	место, назначение

I-topshiriq. Matnni o'qing va quyidagi savollarga og'zaki javob qaytaring.

1. Respublikamizning nomi?
2. U qayerda joylashgan?
3. U qaysi xorijiy va mustaqil davlatlar bilan chegaradosh?
4. O'zbekistonning maydoni necha kv.km ni tashkil etadi?
5. Respublikamiz poytaxti qaysi shahar?
6. Toshkent haqida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekistonning tarkibida qaysi mustaqil Respublika bor?
8. O'zbekistonda nechta viloyat bor?
9. Respublika qachon mustaqil Davlat deb e'lon qilindi?
10. Respublikamiz boyliklari nimalar?
11. Respublikamiz qaysi mustaqil mamlakatlar bilan iqtisodiy madaniy aloqalar o'rnatdi, va shartnomalar tuzdi?
12. Respublikamiz qaysi xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy shartnomalar tuzdi?
13. Respublikamizni nechta xorijiy va mustaqil Respublikalar tan oldi?
14. Respublikamiz qachon BMTga a'zo bo'ldi?

II-topshiriq. O'qilgan matnlar asosida klaster usulidan foydalanib, sxemani davom ettiring.

O'zbek xalqi mavzuida



Leksik ma`no taraqqiyoti, xususan, ma`no ko`chishi o`zbek tilida ham, rus tilida ham ko`o ma`noli so`zlarning poliseman-tizimlarning tuzaga kelishiga sabab bo`lgan: shu yo`l bilan o`zbek tilida *burun* (odamning burni, choynakning burni), *oyoq* (odamning oyog`i, so`rining oyog`i) kabi, rus tilida esa *нос* (нос человека, нос корабля), *ножки* (ножки ребёнка, ножки стола) kabi ko`p ma`noli so`zlar paydo bo`lgan.

Ko`p ma`noli so`zlarning aksariyat qismi rus tilida ham, o`zbek tilida ham eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubdir, chunki bunday qatlamlardagi so`zlar (masalan, o`zbek tilidagi *bosh*, *quloq*, *tish*, *ko`z* kabi umumturkiy so`zlar; rus tilidagi *дом*, *братъ*, *глухой*, *земля* kabi qadimgi rus so`zlari) tilda uzoq davr yashaganligidan leksik ma`no taraqqiyotiga ko`proq duch kelgan.

O`zbek va rus tillaridagi ko`p ma`noli so`zlar (poliseman-tizimlar) qiyosiy aspektda tekshirilganda quyidagi holatlarni ko`rish mumkin:

1. O`zbek tilidagi ko`p ma`noli so`zning to`g`ri va ko`chma ma`nolari shu tushunchaning rus tilidagi nomi ifoda etgan yo`g`ri va ko`chma ma`nolarga mos keladi:

O`zbek tilida	Rus tilida
Qanot: <i>Qushning qanoti</i> (to`g`ri ma`noda)	Крыло: <i>Крыло птицы</i> (to`g`ri ma`noda)
<i>Samolyotning qanoti</i> (ko`chma ma`noda)	<i>Крыло самолёта</i> (ko`chma ma`noda)
Oltin: <i>Oltin soat (tog`ri</i> <i>часы</i> <i>ma`noda)</i>	Золото: <i>Золотые</i> <i>(tog`ri ma`noda)</i>
<i>Oltin kuz (ko`chma</i> <i>ma`noda)</i>	<i>Золотая осень</i> <i>(ko`chma ma`noda)</i>

Omonimlar shakli bir xil, ma`nolari har xil bo`lgan so`zlardir. Masalan, o`zbek tilida: ot (“ism”) – ot (“hayvon”), o`t (“maysa”) – o`t (“olov”); yaqs tilida; rak (“hayvon”) – rak (“kasallik”), brak (“nikoh”) – brak (“sifatsiz mahsulot”) kabi.

Esda tuting!

O'zbek tilida

O't (otning bosh kelishikdagi formasi: "maysazor") – ot (fe'ning ikkinchi shaxsi, birlikdagi buyruq mayli formasi). Yoz (fe'ning ikkinchi shaxs, birlikdagi buyruq mayli formasi) – yoz (otning bosh kelishikdagi formasi).

Rus tilida

Стих (существительное в именительном падеже-otning bosh kelishikdagi formasi: "she`r") – стих (глагол прошедшего времени – fe'ning o'tgan zamon formasi: "tindi", "tinchlandi", "to'xtadi" ma`nolarida).

Печь (существительное в именительном падеже – otning bosh kelishikdagi formasi: "pechka") – печь (неопределённая форма глагола – fe'ning noaniqlik formasi: "pishirmoq")

III-topshiriq. Savollarga javob bering.

- 1) Yoshlar huquqlarini bilasizmi?
- 2) "Yoshlar tili" davlat dasturida yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratildi?
- 3) "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" mavzusini davom ettiring.

IV-topshiriq. Quyidagi omonimik so'z bog'lamalari ishtirokida gaplar tuzing.

O'zida yo'q, katta ketdi, ko'z yumdi, katta gapiradi, boshlab keldi.

V- topshiriq. Matndan allergik kasalliklar turkumiga kiruvchi tibbiy atamalarni toping.

Asrimiz boshida tibbiyotda allergiya deb ataluvchi yangi yo'nalish vujudga keldi. Allergiya organizmning tashqi muhit ta'siriga nisbatan sezuvchanligi ortishidir. Bu hodisa allergik reaksiya deb yuritiladi.

Allergik reaksiyalarning bir turi tezkor allergik reaksiyalar deb ataladi. Unga bronxiol astma, nollinozlar (mevali daraxt, yovvoyi o't, o'simlik gullari changiga odam organizmi sezgirligining oshib ketishi).

VI-topshiriq. Omonim so'zlar (shakldosh so'zlar deb ham yuritiladi) qatorini davom ettiring.

ot –

o't –

ot –

o't –

ot –

o't –

VII-topshiriq. Sinonimlar (ma`nodosh so'zlar deb ham yuritiladi) qatorini davom ettiring.

Ovqat, taom –

Rasmchi, suratchi –
Odam, kishi, inson –
Sanoqsiz, cheksiz, hisobsiz –

VIII-topshiriq. Antonim (zid-, qarama-qarshi) so'zlar qatorini davom ettiring.

Baland – past –
Uzun – qisqa –
Old – orqa –
Yaxshi – yomon –

IX-topshiriq. Iboralarning nima uchun qo'llanishini va ma'nosini syting.

Ko'rdi – ko'zi tushdi
Rahmdil – ko'ngli bo'sh
Top-toza – yog' tushsa yalaguday
Ahillik bilan – bir yoqadan bosh chiqarib.

1-mashq. Ushbu sinonim so'zlarining har biri ishtirok etgan gaplar tuzing. Ulardagi so'zlarni rus tiliga o'giring.

Chidam, bardosh, sabr, toqat, tob, to'zim; tayyor, mihayyo, shay, taxt, hozir; qalbaki, soxta, yasama, sun'iy, yolg'on; ovqat, toam, oziq, ne'mat, xo'rak; qiziq, g'alati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab, ajib; ozgina, picha, sal, xiyol, jindak, qitday.

Namuna: antiqa suhbat bo'ldi – besh.

Topshiriq; Ushbu suhbatdagi ma'nodosh so'zlarni toping.

SUHBAT

- Qayumars, siz dala, cho'l va biyobonlarda bo'lganmisiz?
- Biyobonlarda bo'lganman. U yerlarning jazirama, issiq quyoshida kuyganman.
- Siz-chi?
- Men qari, keksa otam bilan juda uzoq, oliso'lkalarda bo'lganman. U yerlar xalqlarining hayoti, turmushi bilan tanishib, rosa aysh-ishrat qilib, ularning ulug', katta, buyuk va zo'r qurilishlarini ko'rganman.
- Juda yaxshi. Bundan chiqdi siz, rosa tomosha qilibsiz-da!
- Xuddi shunday.


2-mashq. Gaplardagi omonim so'zlarni toping. Ularni rus tiliga o'giring.

1. Ot kishnayda. Chaqaloqqa ot qiyildi. El orasida yaxshi ot chiqar!. O'qni nishonga ot. 2. Suv – obodonlik garovi. Anor suvi kishi sog'ligiga foydali. 3. Kech kirdi. Majlis kech tugadi. Behuda xayollardan kech. 4. Mehmonlar oldiga dastirxon yozildi. Yangi hikoya va ocherklar yozildi. 5. Paxtani toza ter. Uning peshonasida toza ter tomchilari paydo bo'ldi. 6. Bola tug'ildi. Menda yangi fikr tug'ildi.

3-mashq. Quyidagi to'rtlikni o'qing, omonim so'zli birikmalarni ko'chirib, ma'nosini tushuntiring.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Mavzu: “Odam anatomiyasi” mavzuida suhbat.



Odam anatomiyasi (anatomiya yunoncha-kesma so'zidan olingan). Odam organizmini shaklini, tuzilishini, rivojlanish jarayonini o'rganadigan fanidir. Bu fan har bir a'zoni jinsiy tafovutlar jihatidan, shuningdek atrof muhit a'zolar tuzilishi hamda vazifasiga bo'lgan ta'sirini va yoshga bogliq xususiyatlarini o'rganadi.

Odam organizmi a'zolarining tuzilishi ularning vazifalariga bog'liq holda shakllanib boradi. Bu bog'liqliklarni o'rganish funksional anatomiya fanining vazifasidir. Odam anatomiyasi fanini o'zlashtirilishini osonlashtirish uchun bu fan shartli ravishda bir necha sistemaga ajratib o'rganiladi. Sistematik anatomiyaning suyaklar qismi-osteologiya, suyaklarning o'zaro birlashishi (bo'g'imlarni o'rganadigan qismi-sindeemologiya, muskullar miologiya, ichki a'zolar sistemasi-splanxnologiya, qon tomirlar sistemasi-angiologiya ichki sekretiya bezlar qismi endokrinologiya, sezgi a'zolari-esteziologiya va nihoyat nerv sistemasi-nevrologiya bo'limlaridan iborat). Ular a'zolarining tuzilishi, shakllanishi, ularning o'zaro munosabtlarini organishda qo'llaniladi.

A'zolar organizmning evolyusion rivojlanish jarayonida mavjud muhitga moslashgan holda saqlanishga, ko'payishga va hayot kechirishga moslashib rivojlanadi. A'zolar organizmdan tashqarida hayot kechira olmaydi.

A'zolar tuzilishi va funksiyasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham a'zolar tuzilishi, shaklining qo'zg'alishi ularning funksiyasiga va aksincha, funktsiyaning o'zgarishi a'zolar hajmi va tuzilishiga ta'sir etadi. Bundan tashqari a'zolar tuzilishi, shakli vazni, jinsga va yoshga qarab o'zgarib boradi. Organizmda bir xil vazifani bajaruvchi a'zolar o'zaro birlashib, a'zolar

sistemasini vujudga keltiradi. Anomiyaning haqiqiy rivojlanish davri qadimiy yunonlar mamlakatidan boshlangan. Yunonistonda ruhoniylar hukmron bo'lganligi tufayli ko'pgina fanlar qatori tibbiyot fani ham yaxshi rivojlangan. Jumladan, Kos va Knidos maktablari tashkil etilgan. Bu maktabda Gippokrat, Pifagor kabi allomalar tarbiya topganlar.

Gippokrat (eramizdan oldingi 460-377 yillarda yashagan) tibbiyot sohasida o'zigacha bo'lgan ma'lumotlarni to'plagan kuzatish va tekshirishlar asosida 72 ta asar yozgan. Aristotel (er. old. 384-322 yy yashagan). Yunonistonning atoqli olimi, faylasufi va anatomi. U nervning paylardan farqi borligini isbotlagan. Qon tomirlari yurakdan boshlanishini va aortani birinchi bo'lib aniqlagan.

Gerofil taxminan (er. old. 300 yilda yashagan) Aleksandriya shaxrida o'qigan va saroy tabibi bo'lib ishlagan. Gerofil a'zolarining ichki tuzilishiga qiziqib ularning 1 marta kesib o'rgangan (anatomiya – kesaman, yuraman) so'zi ham ana shundan kelib chiqqan. Olim ko'proq muskullarni, qon tomirlar va perefirik nerv sistemalarini o'rganib, birinchi bo'lib harakatchan va sezuvchan nervlarni aniqlagan.

Klavdiy Galen (130-120) – anatomiya, fiziologiya falsafa va biologiya fanlarini mukammal o'rgangan. Olim Aflotun va Arastuning fikrlarini quvvatlab, organizm o'z vazifalarini uch xil rux orqali bajaradi: 1-jigarda paydo bo'lib, venalar orqali, 2-yurakda paydo bo'lib, nervlar orqali organizmning barcha qismlarini idora qiladi. U suyaklar, muskullar, bosh va orqa miya anatomiyasini o'rgangan. Abu Ali ibn Sino Xorazm va Eronda saroy tabibi bo'lib xizmat qilgan. Tibbiyotdagi misli ko'rilmagan buyuk va ajoyib xizmatlari, kashfiyotlari uni butun duyoga mashhur qilgan. Ibn Sino 100 dan ortiq asar yaratgan, bulardan eng kattasi “Tib qonunlari” 1000-yillarda yozilgan. “Tib qonunlari” asarida ichki kasalliklar, xirurgiya, farmakologiya, gigiyena va tibbiyotning boshqa qismlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan. “Tib qonunlari” o'zbek tilida birinchi marta 1952-1956 yillarda Toshkentda bosilib chiqqan.

LUG'AT

A'zo	член
Asosiy to'qima	основная ткань
Gavda	телo
Muskul tolalari	мышечные волокна
Harakat a'zolari	члены движения
Suyak	кость
Bo'g'im	сустав
Qon tomirlari	кровенные вены

Matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Odam a'zolari deganda nimani tushunasiz?
2. A'zolar sistemasi qanday hosil bo'ladi?
3. Suyaklar haqida ilmni qaysi bo'lim o'rganadi?
4. Anomiyaning rivojlanish davri haqida gapiring.

I-topshiriq. Matnni o'qing hamda asosiy fikrlar doirasida tezis yozing.

II-topshiriq. Berilgan quyidagi savollarga javob yozing.

1. Odam kalla suyaklari rivojlanishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
2. Qo'l va oyoqlarga nisbatan qaysi atamalarni qo'llash mumkin?
3. Harakat a'zolari sistemasiga nimalar kiradi?
4. Odam skeleti necha suyakdan iborat bo'ladi?

Grammatik mavzuat

Ot - mustaqil so'z turkumi

Ot – имя существительное. Имя существительное в узбекском языке, как и в русском, обозначает предмет, отвечает на вопросы kim – кто? nima – что?

Вопрос kim? В узбекском языке относится только к людям, а nima? – ко всем остальным одушевленным и неодушевленным предметам. Например: Kim keldi? -кто приехал? Bemor keldi. - Приехал больной.. Bular nima - Это что? Bular bosh skeleti, umurtqa pog'onasi, o'mrov, kurak va boshqalar - Этодругие.

Atoqli va turdosh otlar – собственные и нарицательные имена существительные. Собственные имена существительные являются названиями отдельных лиц, животных, явлений, событий и единичных в своём роде предметов. Например: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yasoviy, Axmad Tabibiy, Markaziy shifoxona.

III-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling


Suyaklar tarkibida organik va anorganik moddalardan tashqari A,D,S vitaminlari ham bo'ladi. Yosh bolalar suyaklari tarkibida kalsiy tuzlari va D vitamini yetishmasligi raxit kasalligini vujudga keltiradi, suyaklar mustahkamligi kamayadi va har tomonla qiyshayadi.



IV- topshiriq. Quyidagi gap;arni davom ettiring.

Qo'l va oyoqlarga nisbattan quyidagi atamalarni qo'llash mumkin. Jumladan qo'l hamda oyoqlarning yuqori qismi yoki tanaga yaqin joylashgan bo'lagi _____ deb ataladi.

Odam organizmidagi ba'zi bo'shliqlarni yoki alohida a'zolarining joylashish o'rnini aniqroq ko'rsatish maqsadida _____, _____, _____, _____ atamallari ishlatiladi.

V-topshiriq. Klaster usulidan foydalanib, suyaklar muskullar turlarini toping.





Shifoxonada o'rin – joy, kishilar, va narsa-hodisalarning turli holatlarini ifodalovchi iboralar ishtirokida suhbat.

Hakim bo'ladigan kishilar yaxshi xulqli, odobli, madaniyatli, o'ta ziyrak va farosatli, yuksak axloqiy xususiyatga ega bo'lan shaxslar bo'lmog'i kerak. Gap xushmuomalik haqida ketar ekan, bu shifokorlik kasbi egalari uchun qanchalik zarur ekanligini, shifokorlar bemorlar bilan, ya'ni og'riqdan, o'y xayollardan, qiynalishlardan asabi taranglashgan, odamlar bilan yoki yaqin kishisining azoblanishidan, ularga hamdardligidan yaqin kishisining to'shagi yonida tunlar uyqusiz o'tkazishdan asabiylashgan, qiynalgan kishilar bemorlarning og'ayni, qarindoshlari bilan muloqotda bo'lajagini ular bilan muomalada bo'lganda kasbiy xushmuomalalik, ziyraklik zarurligi haqida doimo o'ylashi lozim.

Rolli o'yinlar bajariladi, 1) Terapevt – bemor 2) nervpatolog – bemor, 3) xirurg – bemor, 4) psixiatr – bemor, 5) travmatolog – bemor, 6) allergolog – bemor.

Har bir guruh dialog (ma'lum mutaxassislikka oid) tuzib, ijro etib beradi.

1-dialog. Terapevt – bemor

B) Assalomu alaykum doktor

SH: Assalomu alaykum. Xo'sh sizni nima bezovta qilyapti, qayeringiz og'riyapti?

B: Meni yo'tal bezovta qiladi.

SH: Isitmangiz ko'tariladimi? Bosh og'riqlari bormi?

B: Ha tomog'im ham og'riydi.

SH: Mana sizga termometr qo'ltig'ingiz tagiga qo'ying, og'zingizni ochib ko'rsating, “aaa-aa” ha ozgina yallig'lanish bor. O'pkangizni eshitay. Siz qattiq shomolabsiz tashxisingiz bronxit.

B: Doktor endi men nima qilishim kerak?

SH: Avvalom bor rentgenga tushib kelishingiz kerak. Rentgen natijasini ko'rib, kerakli dori – darmonlarni yozib beraman. (ancha vaqt o'tgach) Endi meni eshiting. 5 kun 2 mahal bissiptol yoki bromgeksin tabletkasidan 1 donadan ichasiz. Isitma bo'lgan paytda aspirin iching, og'zingizni nomokopda chaying, 1 kecha gorchichnik, 1 kecha banka qo'ying, albatta oyoqni issiq tutishni unutmang. Tomog'ingiz uchun ingolyasiyani romashkadan tayyorlang. 3 kundan so'ng meni qabulimga kelasiz. Natijani ko'ramiz.

B: Raxmat doktor sog' bo'ling.

2- dialog Xirurg-bemor.

Xona

Bu xona barcha tibbiy jihozlar, apparatura bilan jihozlangan. Xona juda yorug' bo'lib, xonaning o'rtasida operatsiya qiladigan stol joylashgan. Eshik oldida shkaf joylashgan. Unda barcha jihozlar va eritmalar sterillangan holda saqlanadi.

Bemor- Djumayeva Manija.

B: Assalomu alaykum, Shaxnoza Shuhratovna

Sh: Vaalaykum assalom, marhamat o'tiring.

B: Men siz bilan bir nozik ish borasida maslahat qilmoqchi edim.

Sh: Siz o'zingizda nimani o'zgartirmoqchisiz? Menimcha tashqi ko'rinishingiz, yuzingiz yaxshi holatda. Sizni nima bezovta qilyapti?

B: Mening bo'ynimda bolaligimda bo'lgan noxush voqeadan so'ng asoratli iz qolgan. O'shani bildirmay yo'qotish mumkinmi?

Sh: Ha, bu kabi xizmatlar bizning klinikada o'tkaziladi, lekin men sizni oldindan ogohlantirmoqchimanki, operatsiya natijasi siz xohlaganday bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun 100% kafolat bera olmayman.

B: Mayli men roziman, Qo'lingizdan kelganicha yordam berishingizni so'rayman, bu iz bilan men o'zimni noqulay his qilaman.

Sh: Xo'p bunday bo'lsa men sizni tekshiruvdan o'tkazishim kerak. Birinchidan biror xil yurak yoki boshqa organ xastaligi bilan kasal emasizmi?

B: Yo'q menimcha men bunday xastaliklarga chalinmaganman.

Sh: Buni nima uchun so'rayapman, chunki operatsiyalarimiz uzoq vaqt narkoz ostida o'tkaziladi. Shuning uchun ko'pgina analizlarni topshirishingiz kerak. Barcha taxlillarni topshirgandan so'ng, tekshiruv natijalari bilan yonimga kelasiz.

B: Xo'p, Shaxnoza Shuhratovna sizning yordamingiz va vaqtingizni ayamaganligingiz uchun raxmat. Ko'rishguncha xayr!

Sh: Yaxshi natijalar bilan sizni yaqin orada kutib qolaman.

3- dialog. Ko'z kasalliklari shifokori-bemor.

Ko'z kasalliklari xonasida stol, stul, divan turibdi. Xona juda chiroyli, shinam va yorug'. Chap tarafda ko'zgu tibbiy asboblari turibdi. Alfavit devorga osilgan. Ko'zgu ziragining bosimini o'lchash uchun asboblari bor.

Suhbat boshlandi.

B: Assalomu alaykum, mumkinmi?

Sh: Valaykum assalom, marhamat kiring qani, o'tiring, ism sharifingizni ayting.

Sh: Xo'sh sizni nima bezovta qilyapti?

B: Mening ko'zlarim tez-tez charchaydi va changda qizarib qoladi. Nima qilay?

Sh: Xo'p sizni tekshirib ko'rish kerak. (Ko'zgu asboblari bilan tekshirishni boshlaydi). Siz oldindan dorilar tomizganmisiz, qachon qizarib qoladi?

B: Doim joyimdan turishim bilan qichishini boshlaydi. Dori tomizganim yo'q.

Sh: Sizga kerakli dorilarni yozaman, aytganimdek bajarsangiz tez orada sog'ayib qolasiz.

B: Raxmat, aytganizdek bajarishga harakat qilaman.

Sh: Tezroq tuzalib qoling, undan keyin ko'zlaringizdan xabardor bo'lib yuring.

Lug'at

Shifoxona – больница

Bemor ahvoli – состояние больного

Ko'z kasalligi – глазные болезни

Ko'zgu – зеркало

Bezovta – беспокойство

I-topshiriq. "Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish" mavzuida ijodiy insho yozing.

II-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob yozing.

1. Shifoxonada bemor qanday parvarish qilinadi?
2. Shifo izlab kelgan bemorga hakim qanday munosabatda bo'lishi kerak?
3. Markaziy shifoxonada qaysi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda?
4. Shifoxonada qaysi parhez taomlar beriladi?
5. Shifoxonada ish tartibi qanday o'rnatiladi?

III-topshiriq. Shifokorlarning tibbiy yo'nalishi bo'yicha tibbiy atamalarni davom ettiring.

Xirurg Hamshiraga skal'per, qaychi, _____, _____, _____, _____, ketkutni tayyorlab qo'yishni aytdi.

Ginekolog Hamshiraga _____, _____, _____, _____, boylamalarni operasiyagacha tayyorlashni aytdi.

Stomatolog _____, _____, _____, _____, _____, ambirni joylashtirdi.

Gramatik mavzu
Otlarda kelishik kategoriyasi.

T/r	Kelishiklar nomi	Misollar	Qo'shimchalar
1.	Bosh kelishik	bemor, Nigora, doktor, choy	-
2.	Qaratqich kelishigi	bemorning, Nigoraning, doktorning, choyning	- ning
3.	Jo'nalish kelishigi	bemorga, qishloqqa, eshikka	- ga (-ka, -qa)
4.	Tushum kelishigi	bemorni, Nigorani, doktorni, choyni	- ni
5.	O'rin-payt kelishigi	bemorda, Nigorada, doktorda, choyda	- da
6.	Chiqish kelishigi	bemordan, Nigoradan, doktordan, choydan	- dan

Mavzu: Yil fasllarihaqida suhbat. O'zbekistonda kuz.



Kuz-O'zbekistonda eng yaxshi fasl. Kuzda o'lkamizda havo iliq. Kunduzlari issiq, kechasi salqin bo'ladi. Kuzda yaxshi dam olish mumkin. Kuz o'lkamiz uchun hosil fasli. Barcha mevalar – olma, shaftoli, nok, uzum, behi, xurmo, poliz ekinlari – qovun, tarvuz, bodring, qovoq, piyoz, kartoshka, sabzi, karam, g'arq pishadi.

Kuzning boshlarida paxta terimi ham boshlanadi. Dalalar oppoq libos kiyadi. Dalalarda terimchilar paxta teradilar. Shaharliklar, talabalar terimchilarga yordam beradilar. Bugun yakshanba. Havo ochiq. Olya va Sasha paxta dalasida, ular terimchilarga yordamga kelganlar. Olya va Sasha paxta termoqdalar. Sasha tez paxta teradi Olya juda sekin. Olya paxta terimiga birinchi marta , Sasha esa bu yil ikkinchi yil paxta terimiga chiqishi.

Sasha so'raydi:- Olya necha kg paxta terding? – deb so'radi Sasha.

- Bilmayman hali o'lchatganim yo'q.(Olya juda kam paxta terganidan xijolat tortdi).

- Men o'zbekchani tez o'rgandim, paxta terishni ham tez o'rganaman – dedi Olya.

- Sasha Olyaga bir piyola choy berdi. Ular choyni ichib yetakni olib, paxta dalasiga kirib ketishdi. Tushlikdan so'ng Olya zavq- shavq bilan paxta terishga kirishdi. Kechga yaqin Olya 60 kg paxta terganini o'zi ham bilmay qoldi. Quvonchli ko'zlari chaqnab, mamnun manzilga qaytdi.

LUG"AT

Toza	свежий
Pishirmoq	варить
Tushlik	обед, обеденный перерыв
Ozoda	чистый
Paxta terish	собирать хлопок.

BAHOR



Bahor. Naqadar ajoyib fasl. Bahorni yana kelinchak fasl deb ham atashadi. Chunki bahorda qir adirlar yashil libos kiyadi. Daraxtlar kurtak yozib, gullay boshlaydi. Kunlar issiy boshlaydi, issiqsevar qushlar uchib keladi. Tog'lar lolalarga burkanadilar. Ko'plab oilalar tog' yonbag'rlarida aylanib hordiq chiqaradilar. Bahorning mayin shabadasi hammaning kayfiyatini ko'taradi. Bu faslda biz quvonch bilan kutadigan 8- mart xotin – qizlar bayrami, Navro'zi olam bayram tadbirlari Respublikamizda qizg'in nishonlanadi. Navro'zda gul bayrami, milliy taomlarga boy to'kin dasturxonlar tuziladi, hamma shodu xurram. Ko'plab xonadonlarda muchal to'ylari boshlanib bir oy davom etadi.

Darazamning oldida bir tup ,
O'rik oppoq bo'lib gulladi.
Navdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytib hayot totini
Va shabboda qug'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Bayramlarimizga xalqimizga ko'z tegmasin.

Lug'at

Yil fasillari –времена года

Momoqalldiroq –молния

Quyosh yog'dusi – лучи солнца

Tuyg'u –чувство

Qir-adirlar –горы

I-topshiriq. Quyidagi she'rlardan tabiat manzarasini tasvirlovchi so'zlarni toping.

1) Yerga bahor chaman to'shagan,
Olma hali gulin to'kmagan.
Ko'k baxmalga gullar byrkangan
Lab ochmagan bulbul o'pmagan.
(Zulfiya)

2) Olcha guli bargiday
O'ynab uchib yog'ar qor
Ajab qorga qaramayman,
Ko'zimda yashnar bahor
(Zulfiya)

II-topshiriq. Issiq, sovuq, muloyim so'zlari mos keladigan harakat bildiruvchi so'zni toping.

- | | |
|----------|----------|
| a) Buloq | v) kishi |
| b) havo | g) gap |

III-topshiriq. Kechagi ob-havo haqida ma'lumot yozing.

IV-topshiriq. Sifatlarni faol ishtirok ettirib, tabiat manzarasini chizing

V-topshiriq. O'ng ustundagi so'zlarga chap ustundagi so'zlardan mosini topib so'z birikmalari tuzing.

Suv	Oppoq
Muz	Toza
Shabada	Mayin
Yomg'ir	Qattiq
Shamol	Kumush
Qor	Sel

Yoz fasli.



Yoz! Bu fasl bilan ko'pgina yaxshi xotiralar, iliq his tuyg'ular bog'liq. Avvalambor yoz deganda, albatta barcha o'quvchi va talabalarning ko'z oldida yozgi ta'til keladi. Bu esa o'z navbatida istirohat bog'lari, sanatoriyalar, dam olish maskanlarida tabiat qo'ynida xordiq chiqarishdir. Masalan do'stu yaqinlar bilan cho'milishga borish, to'garaklarga qatnashish, hunar o'rganish, kitoblar o'qish bilan o'zingizga ma'naviy jismoniy kuch yig'asiz.

Yoz ta'tillar fasli bo'lib qolmay hosildorlik fasli hamdir. Bu faslda albatta ko'pgina dexqonlarimiz mehnatining natijasi bo'lmish, mazali meva va sabzavotlarni baham ko'rish kabi imkoniyatlarga egamiz. Bu faslda quyosh o'zining zarrin nurlarini sochib, yurtimizni yana go'zal qiladi, hamda bizni xursand qiladi.

«Tabiat va biz»



Tabiatda barcha narsalar shu jumladan tabiiy boyliklar, resurslar hisobsiz emas. Shunday ekan ulardan ehtiyojga qarab, oqilona foydalanish ayniqsa bizning kunlarda katta ahamiyat kasb etadi. Biz bu vazifani imkoniyat darajasida

bajarishga harakat qilsak, atrof muhitda ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ya'ni resurslarning qayta tiklanishiga tabiiy mahsuldorlikning oshishi, suv va havoning tozalanishi, yer sifatining ortishiga erishamiz. Bu o'z navbatida tabiiy komplekslarning potentsial mahsuldorligi yuqori bo'lishiga imkon beradi.

O'zbekiston tabiiy muhit tuproq, daryolar suvining ifloslanishi, atmosfera havosining sanoat korxonalari va avtotransport chiqindilari ta'sirida bug'lanishi, vohalarda tuproqning sho'rlanishiga, zaharli kimyoviy ashyolar va mineral o'g'itlar bilan boyishi, eroziyaga berilishi, yaylovlarning shamol va eroziya ta'sirida degradasiyaga uchrashi natijasida aziyat chekadi.

Sanoat korxonalari, fermerlar, maishiy xo'jalik korxonalarining oqavalari kollektor zovurlarning zahkash suvlari oqar suvlarni ifloslab kelmoqda, sho'rligini oshirmoqda. 50-60 yillarga qadar O'zbekistonda barcha daryo suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanilar ekan.

Tabiat resurslaridan foydalanish me'yorlari. Har bir hududda tabiat boyliklari ma'lum miqdorda mavjud bo'lib, ba'zilar (o'simlik, hayvonot, rudali ma'danlar va boshqa) qayta tiklanmaslik xususiyatlariga ega. Yana shunday boyliklar (suv, havo) mavjudki, ular tabiatda ko'p.

I-topshiriq. Matnni o'qib, reja tuzing.

Xo'sh, odam o'zi yashayotgan muhitga moslashishi yomonlashayaptimi? Hozirgi odam o'z yashash muhitining deyarli to'liq xo'jayini hisoblanadi. Kiyim, uy, sayohat, transport, oziq-ovqat, ishlab chiqarish, jamg'arish va saqlash kabilar odamni tashqi muhitning har qanday omillariga qarashmasligi dalolat beradi. Tabiatda biror bir hayvon yo'qki, bu sohada odamga teng kela olsin. Fizik omil insonga hozirgi odamning tabiiy tanlanishi uchun yovoyi hayvonlarga va hatto gumenoidlarning ilk shakllariga nisbatan olganda deyarli ta'sir qilmaydigan omillarga aylangan.

Kasallik bilan kurashish, qarishning oldini olish, insonning umrini uzaytirish kabilar yaxshi natija berayotir. Bu sohadagi yuksalish insonning genetik fondida ma'lum o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan to'xtovsiz ravishda davom etadi.

Inson naslining yer yuzida tabiiy muhitga bog'liq bo'lmagan holda son jihatdan orta borayotganini nazarda tutadigan bo'lsak, hali ham tabiiy tanlanish odamga ta'sir qilyaptimikin, degan savol tug'iladi.

Eslaylik, odamning hayratda qoldiradigan darajadagi ekologik evolyutsiyasi yarim och holda oziq axtarib, qoyalarda hayot kechirgan davrida hozirgi zamon mexanizimi bilan qurollangan atom davrigacha odam evolyutsiyasida ko'zga tashlanmaydigan biologik evolyutsiya sodir bo'ldi.

Tabiiy sharoitda insonning yashash imkon nihoyatda tor doirada bo'lgan. Ammo, anglash, tafakkur qilish doirasining kengaya borishi jarayonida asta-sekinlik bilan ahvol yaxshilana boradi. Inson o'zi uchun qulaylikni yarata boradi. Insonning tabiat bilan o'zaro munosabati uning tabiatga o'z ta'siri va faoliyati ta'sirida namoyon bo'ladi.

II-topshiriq. Muammoli savollarga siz qanday javob qaytargan bo'lardingiz?

1. Orol fojiasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiat nima?
3. "Ekologiya" inson salomatiga ta'siri.
4. O'simliklar olamida fotosintez nima?
5. Qaysi o'simlik tabiatdan ya'ni havoda azot tutuvchi?
6. O'zbekistonda qo'riqxonalar soni?
7. Havoning asosiy tarkibiy elementlarning %-hisobda ko'rsating?
8. Quyosh nurining foydali va zararli ta'siri?
9. Qishloq xo'jaligida suvni tejash deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekiston Respublikasida "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
11. Noyob o'simliklarga misollar keltiring, ularni asrashimiz uchun nima qilishimiz zarur?

III-topshiriq. Tabiat manzarasi mavzusidagi berilgan ijodiy inshoga taqriz yozing.

Tabiat borliq suv kelajak hayot manbaidir. Go'zal tabiat bahor va yoz faslida juda go'zal va yangi kelindek yasharib ketadi. Tabiat jamiyat hodisalari bilan limmo-limdir.

Biz har tong tabiat quynida o'tirar ekanmiz uning husnu halovatiga lol qolamiz, huzr halovatimiz uyg'onib dillar quvonib ijod uyg'onadi.

Majnuntollarning silkanishini kelinchak soch o'ramlariga shildirrab oqayotgan suvlarni esa qizlar qah-qahiga sokinlikni esa go'zal qizlar ibosiga o'xshatgim keladi.

Biz hur va obod, ozod Vatan qoynida go'zal tabiat quchog'ida yashar ekanmiz uni asrab-avaylash, tabiatni jonlashtirish ko'kalamzorlashtirish chiroyiga chiroy qo'shish bizning burchimizdir.

Tabiat – yashamoq sevmoq degandir.

Tabiat – kuylamoq yayramoq demakdir.

Tabiat – yoshlarning yuragi jo'shib uning – go'zalligini bitmoq demakdir.

IV-topshiriq. Dialoq. Tabiat.

Karim – Assalomu aleykum

Sabina – Valaykum

Karim – Sabina bilasanmi bugun men tabiatni asrash haqida bir maqolaga ko'zim tushdi va men ham tabiatni asrash haqida o'ylab qoldim.

Sabina – Nima deganing tushunmadim, aniqroq qilib gapirsangchi.

Karim – Bilasanmi Sabina tabiat deganda men o'z salomatligimni tushundim.

Nafaqat o'zimni balki atrofdagilarni ham sog'ligini saqlamoqchiman.

Sabina – Bu uchun nima qilmoqchisan?

Karim – Men avvalo o'z uyim atrofidagi daraxtlarga o'z e'tiborimni qaratmoqchiman.

Sabina – Ha to'g'ri, lekin bilasanmi nima hozirgi kunda shahrimizdagi juda ko'p daraxtlar kesib tashlanyapti. Bularni himoya qilish kimning vazifasi?

Karim – Bu vazifani tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bor, ular bunga juda mas'uliyat bilan qaraydilar.

Sabina – Karim kuz oylarida xazonlarni kuydirmaslik lozim. Lekin ko'p joylarda xazonlarni kuydirishadi. Bunda tib tomonidan qaralganda, bu kuydirilgan xazonlar inson salomatligi uchun juda xavfli. Xazon tutunlari juda ko'p kasalliklarni olib keladi. Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino aytganidek “Chang bo'lmaganida inson 1000 yil ham yashaydi”. Lekin hozirgi kunda juda ko'p mashinalar, zavodlar, fabrikalarning chiqayotgan zaharli hidlari, tutunlari inson salomatligiga putur yetkaziyapti.

Zavod va fabrikalarning chiqqan hid va tutunlar nafas olish a'zolarini funksiyasini izdan chiqaradi. Ba'zi kimyoviy moddalar rak hujayralarini rivojlanishini tezlashtiradi va yana har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Karim – Ha, hammasi to'g'ri shuning uchun zavodlar va fabrikalar shahar tashqarisida joylashishi, ular atrofida juda ko'p daraxtlar bo'lmog'i zarur. Daraxtlar o'zidan kislorod chiqarib karbonat angidridni yutadi.

Sabina – Aytishadiku bitta daraxtni kesishdan oldin 10 ta daraxt ekin deb.

Karim – Sabina yur ketdik, biz ham tabiatni asrash uchun o'z hissamizni qo'shamiz.

Sabina – Mayli, lekin bilasanmi biz nafaqat tabiatni asrash, balki o'z salomatligimizni ham o'ylagan bo'lamiz

Grammatik mavzu

SIFAT

ИМЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНОЕ

Именами прилагательными называются слова, которые обозначают признак (белги) предмета и отвечают на вопросы: Qanday? Qanaqa? /какой? какая? какое / qaysi? / который? которая? которое?/: ertalabki – утреннее, ko'ngilli – душевный . В узбекском языке прилагательные с определенным словом не согласуются ни в числе, ни в падеже, например: uzun ko'cha – длинная улица, uzun ko'chaning / ko'chatlari/- /растения / длинной улицы, uzun ko'chada – на длинной улице. По значению и грамматическому признаку в узбекском языке различают два типа прилагательных: качественные / asliy / и относительные / nisbiy /.

Качественные прилагательные / asliy sifatlar / выражают признак непосредственно; т.е. лексический, например: qizil / красный /, uzun / длинный, / keng / широкий/.

Относительные прилагательные / nisbiy sifatlar / выражают признак предметов и понятий через их соотношение с другими предметами и

являются производными от существительных. Например: kuz (осень), kuzgi (осенний).

Predmetning belgisini bildirgan so'zlar sifat deyiladi. Sifat qanaqa? qanday? Qayerdagi? Kabi savollarga javob bo'ladi. Oq / qog'oz / , keng / yo'l /. Sifat otda predmeyning rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, ruhiy holati, o'rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarni anglatadi. Masalan: qizil, ko'k, sariq, katta va boshqalar.

Sifatlar asliy va nisbiy bo'ladi. Predmet belgisini bevosita foydalanadigan, belgini darajalab ko'rsata oladigan sifat asliy sifat deyiladi. Masalan: yaxshi, katta, uzun, qisqa, och, qora, semiz.

Predmet belgisini o'rin yoki payt tushunchasiga nisbatlash, mo'ljallash, boshqa predmetga o'xshash kabi ma'nolar orqali ifodalaydigan sifat nisbiy sifat deyiladi. Nisbiy sifat odatda belgini darajalab ko'rsatmaydi.

1-mashq. Ko'chiring. Sifatlarni tagiga chizing

Toza havo, toza suv,
Ozod Vatan seniki.
Yob – yorug' maktablarda
Ilim ila fan seniki.

(G'.G'ulom)

2-mashq. Jadvalni daftaringizga chizing va unga quyidagi sifatlarni ma'nosiga qarab joylashtiring.

Rang-tuz	Hajm-shakl	Xil-hususiyat	Mazza-t'am
----------	------------	---------------	------------

Yashil, katta, shirin, ishchan, sho'r, keng, ulkan, kichik, tirishqoq, xumo, ola, achchiq, epchil, ko'k, g'ayratli, targ'il, yassi, mayin, chopqir, tarix, nozik, nordon, tor, qora.



Sharqona davo- o'simlik olamida

Qadim zamondan xalq tabobatchiligida mahsulli bo'lgan shifobaxsh o'simliklardan turli- tuman xastaliklarni davolashda muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda.

Insonning bu yo'nalishidagi izlanishlari, sermahsul tajribasi ajdodlardan avlodlarga turli xil manbalar zamirida meros bo'lib qolmoqda.

Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino dorivor o'simliklarga alohida e'tibor bergan U o'zining "Kitob al- qonun fit- tibb" ("Tib qonunlari") asarida 400 dan ortiq o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari haqida yozib qoldirgan.

Bugungi kunda ulug' alloma foydalangan dorivor o'simliklarning 100 dan ortig'i zamonaviy medisina amaliyotida samarali qo'llanilmoqda. Hozirgi vaqtda medisinamizda ishlatilayotgan barcha dorilarning 40 foizi, yurak qon-tomir kasalliklarini davolashda esa 80 foizini shifobaxsh giyohlar va ulardan olinadigan malhamlar tashkil etadi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning 4 ming turdan ortig'i ma'lum. Shulardan 500 dan ko'pi shifobaxsh o'simliklar hisoblanadi. Bulardan tashqari dala va bog'larimizda turli- tuman sabzavot - poliz mahsulotlari mevalar yetishtiriladi.

O'simliklar tarkibida odam organizmi uchun foydali bo'lgan A,B,C,PP vitaminlari, oqsil, yoqimli hid beradigan efir moylari, ko'p miqdorda oson hazm bo'ladigan fosfor tuzlari, temir, kalsiy va boshqa moddalar bor.

Vitamin A organizmni turli yuqumli kasalliklardan, vitamin C singadan, B asab kasalligidan, vitaminD raxitdan saqlaydi. Vitamin A yetishmasligi natijasida organizm o'sishdan to'xtaydi, ko'z og'riydi, odam shab ko'r bo'lib qoladi. Bu vitaminga bo'lgan sutkalik ehtiyojni qondirish uchun 50 gramm sabzi yoki ismaloq, ukrop, petrushka yoki 80 gramm barra piyoz iste'mol qilish kerak.

Vitaminlar yangi uzilgan sabzavotlardan ko'p, quritilgan va tuzlangan sabzavotlarda esa kamroq bo'ladi. Shuning uchun yangi uzilgan sabzavotlardan yil bo'yi yeb turish tavsiya etiladi.

Sholi, bog'doy, loviya, no'xat, mosh kabi donli ekinlar faqat oziq-ovqatlik qimmatiga ega bo'lmay, ya'ni ayni vaqtda dorivorlik xususiyatiga ham ega. Masalan bug'doy uni tarkibida "B" guruhiga kiradigan B₁,B₂,B₃,PP vitaminlar, asab tizimining to'g'ri ishlashini ta'minlaydigan va insonni naslsizlik kasalidan saqlaydigan E vitamini bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, qaysi bir o'simlikni olmang u yoki bu jihatdan ular inson salomatligini saqlashga xizmat qiladi, turli dardlarga shifo bo'ladi. Ayni vaqtda tabiat ne'matlaridan olinadigan dori - darmonlar kimyoviy (sun'iy) yo'l bilan olinadigan preparatlardan afzalligi, shifobaxshligi va nisbatan bezararligi bilan ajralib turadi. O'simliklardan tayyorlangan dorilar deyarli asorat qoldirmaydi.

Anjir

1. Anjir mevasi va qoqisidan tayyorlangan damlama yo'talni to'xtatishga, balg'am ko'chishiga yordam bersa, anjir sharbati bilan asal omoxtasi ko'z shamollashida foydalidir.

2. Anjir damlamasi bilan tomoq shamollaganda g'arg'ara qilinsa, ijobiy natija beradi.

3. 100 gr quruq anjir mevasiga 2 stakan qaynoq suv quyiladi, past olovda 15 daq. davomida qaynatiladi, 1-3 soatcha qo'yiladi va suziladi. Kuniga yarim stakandan 2-3 mahal ovqatdan oldin yo'talga qarshi davo sifatida ichiladi.

4. Anjir haqida Ibn Sino shunday deydi: "Anjirning xomini, shuningdek bargini xol, so'gal va bularning har xil turlariga, dog'larga surtiladi. Uni yeyilsa kasalliklar sababli buzilgan rangni tuzatadi hamda chipqonlarni pishiradi."

...ho'l va quruq anjir tutqanoq kasaliga foydalidir.

Anjurning ho'li va qurug'i tomoq qirilishiga hamda ko'krak va o'pka yo'llariga foyda qiladi."Anjirning sharbati sutni ko'paytiradi".

Anor

1. Anor mevasi po'stlog'ining kuli sariyog' yoki mol yog'i bilan yaxshilab aralashtirib surtilsa, teridagi yiringli yaralarni tuzatishga yordam beradi.

2. Anor po'stlog'idan tayyorlanadigan qaynatma og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishida davo bo'ladi.

3. Anor, olma, behi, limon, otquloq, oshqovoq, nilufar va kashnichni teng miqdorda aralashtirib qaynatib, uning quyuq sharbatiga asal qo'shib iste'mol qilinsa safro qusish, ko'ngil behuzur bo'lishi va tinka qurishidan qutulish mumkin.

Anor haqida Ibn Sino shunday deydi:

"Anorning urug'i asal bilan birga til va quloq og'rig'iga foyda qiladi hamda burun ichiga surtiladigan doridir. Anorning urug'ini yanchib asal bilan qo'shib, og'iz og'riganda surtilsa foyda qiladi.

Shirin va achichiq anorning siqib olingan suvini asal bilan qo'shib bir necha kun oftobga qo'yilsa, ko'zdagi haroratga kunduzi ko'rmay qolishdan foyda qiladi.

Anor urug'ini yomg'ir suvi bilan qo'shib ichilsa, qon tupirishda foyda qiladi.

Anorning hamma turlari xafaqonga foyda qiladi va shirini ko'ngil ochadi.

Anorning nordoni shiriniga qaraganda siydikni ko'proq yurishtiradi, umuman ikkalasi ham siydik haydovchidir".

Asal

1. Asal me'da ichak kasalliklarida, meda va o'n ikki barmoq ichak yarasi, ich ketishi, qabziyat hamda jigar o't qopi xastaliklarida yallig'lanishni qaytaruvchi, hujayralarni tiklovchi davodir.

2. Asal yurak mushagini, jigar hujayrasini bamisoli sug'oradi, oziqlantiradi. Natijada yurak va jigar faoliyati oshadi.

3. Asal nafas yo'llari, o'pka kasalliklarida ham keng qo'llaniladi. Ko'krak yumshaydi, balg'am oson ko'chadi. Yo'tal kamayadi nafas ravon bo'ladi.

4. Asalni saratonda choy bilan ichish, chanqoqni bosibgina qolmay, kishini ruhan jismonan tetik qiladi, yurak miya faoliyatini tiklaydi.

5. Asalni o'z vaqtida o'z me'yorida iste'mol etib yuradigan bemorning qonida gemogloblin, yuzida rang bilagida kuch, ko'zida nur paydo bo'ladi.

6. Asalni katta kishilarga kuniga 100-200 gr miqdorda ravo ko'riladi. Erta nahorda 30-60 gramm, peshinda 40-80 gramm, kech paytda 30-60 gramm yeyish mumkin. Asalni ovqatdan bir-bir yarim soat oldin, ovqatdan uch soat keyin ichiladi

Behi

1. Behi mevasi sharbati bilan astma, yurak sanchig'i, sariq, hiqichoq, qorin og'rig'i, dizenteriya kasalliklari davolanadi.

2. Behidan bedarmonlik, kamqonlik yo'tal, me'da, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi.

3. Behi urug'i bilan uzum sharbatining qaynatmasi kamqonlikda, ichbuzulisnida, bavoil kasalliklarini davolashda yaxshi ta'sir qiladi.

Behi haqida Ibn Sino shunday deydi:

Behi sharbati me'dani kuchaytiradi va balg'am qusishini to'xtatadi.

... Siqib olingan suvi astmada foydalidir, u qon tuflashni ham to'xtatadi. Behi terni to'xtatadi. Uning yog'i sovuqda yorilganga foyda qiladi Qo'rga ko'mib pishirilgani issiq shishlarga qo'yiladi.

Agar behi ovqatdan keyin yeyilsa, ichni suradi, ko'proq yeyilsa, ovqatni hazm bo'lishidan oldinroq chiqarib yuboradi.

4. Behi sharbatini tayyorlash uchun shirin va nordon behidan 400 gramm olib, maydalab bir litr suvda qaynatiladi, ustiga 100 gramm binafsha guli qo'shib qaynatish yarim soatcha davom ettiriladi. Sovutilgandan keyin dokada suziladi, va 100 grammiga 50 grammdan asal qo'shib yana qaynatiladi, dokada o'rab bir necha daq.ga solinadi, so'ngra dolchin, zanjabil olinib qaynatma sovutiladi.

5. Behi barglari va yosh novdalaridan qand kasali, qon bosimini davolashda keng foydalaniladi. Buning uchun barglari va yosh novdalarini gullash davrida olib, salqin yerda quritiladi. 1-2 osh qoshiq barg va novdaning yanchilgan kukunidan olib, 1 stakan (300ml) suv qo'shiladi va past olovda 15 daq. qaynatiladi, sovutiladi, dokadan o'tkaziladi. Bir choy qoshiqdan kuniga uch mahal ichiladi.

Bodom

1. Bodom mag'zinining qand bilan aralashtirilgani darmonsizligi, nafas qisishi, bosh aylanishi va yo'talga qarshi davo sifatida ishlatiladi.

2. Achchiq bodomning musallas bilan qo'shilgani eshakemini davolashda, asal bilan aralashtirilgani esa toshma yaralarni quritishda davodir.

3. Bodom moyiga qariqiz o'simligi ildizini qo'shib damlab, so'ngra boshga surtilsa, sochning to'kilishi anchagina kamayadi.

4. Shirin bodom mag'zi suvga obdon ezib aralashtirilsa, "bodom suti" hosil bo'ladi. Tayyorlangan bodom "suti" dan ichilsa, beozor siydik haydovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

5. Shirin bodom urug'i po'chog'ining qaynatmasi qizamiq chiqqan bolalarga ichiriladi.

Baqlajon

1. Baqlajon mevalarida kaliy tuzlari ko'p bo'lganligi tufayli u kishi organizmidan ortiqcha suyuqlikni chiqarish xususiyatiga ega, a'zoda tuz- suv almashinuvini me'yorga keltirib turadi.

2. Baqlajon qon tarkibida mavjud bo'ladigan xalesterin miqdorini kamaytirish xususiyatiga ega.

3. Baqlajonni ateroskleroz, podagra, me'da-ichak yo'li kasalliklari bilan xastalangan kishilarga iste'mol qilish tavsiya etiladi.

4. Baqlajon inson organizmidan siydik kislotanining chiqib ketishiga yordam beradi. Qabziyat bilan og'rikanlar uchun baqlajon juda foydali hisoblanadi.

LUG'AT

1. Nerv kasalliklari – нервные болезни
2. O'simlik tarkibi – состав растений
3. Yovvoyi holda o'sadigan o'simliklar – дикие растения
4. Temir – железо
5. Sabzavot – овощи
6. Shifobahsh – лечебный

TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda o'sadigan dorivor o'simliklar guruhini tuzing. Klaster usulidan foydalanib, kasallik turiga qarab uyadoshlarini toping.
2. Matnni mazmuniga qarab qanday davom ettirar edingiz?
3. Bosh og'rig'i bilan kasallangan bemor kelganda siz qaysi dorivor o'simliklarni iste'mol qilishni tavsiya qilgan bo'lardingiz?

Muhammad alayhisalomning tabobatga oid hadislari.

Hadis- islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'oni karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba' bo'lib, payg'ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy, axloqiy, va tibbiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan.

Hadislar sihat- salomatlikni saqlash va biror kasallikka uchrab qolganda undan qutilish chora- tadbirlar aniq ko'rsatadi. Muhammad S.A.V patg'ambar

tabobatini o'rganishga bag'ishlangan "Tibbi nabi" (Payg'ambar tabobati) nomli risolalar yaratildi. Muhammad S.A.V payg'ambarning ba'zida kasallarni davolash bilan shug'ullanadigan odatlari bor bo'lganligi aytilgan. Masalan, ul janob isitmani sovuq suv bilan tuzatgan. "Aytishlaricha, ul janobning o'zlarini isitma tutganida mushk suvini keltirishni buyurgan. Mushk suvi keltirilgach, uni o'z boshidan quygan va unda cho'milgan. Shuningdek bu ishni boshqalarga ham buyurgan: "sizlardan birortangiz isitmalasangiz yuzingizga va boshingizdan suv quyishingiz kerak." degan Payg'ambar bosh og'rig'iga qarshi xinani qo'llagan va boshqalarga shuni taklif qilgan. Ko'z kasalliklarida tinchlikni saqlashni, osoyishtalikni, va dam olishlikni buyurgan. Tomoq og'rig'iga qarshi hind qustini, qorin og'rig'iga qarshi asalni ishlatgan va hokazo. Risolada istisqo o'pka pardasining yallig'lanishi badan qichimasi, husunbuzar, quymich asabining yallig'lanishi kasalligi va boshqalarni dorilar yordamida davolash aytilgan. Ba'zi bir davolash usullarini aytib o'tilgandan keyin, bu xil davolash usullaridan Muhammad S.A.V payg'ambardan oldingi o'tgan kishilar ham undan foydalanganliklari aytib o'tilgan. Masalan, Hijoz shahrining aholisi isitmaga Muhammad S.A.V payg'ambardan oldin ham sovuq suv qo'llaganlar". Sihat salomatlikka oid hadislarda ozodalikka, mast qiladigan ichimliklarni ichmaslikka, vabo kasalligiga qarshi kurashga, xushxulq bo'lishlikka, asabiylashmaslikka, kasallarni borib ko'rishga, tashnalarga suv tutishga ochlarga ovqat berishga, qari va dardmanlarga mehru-shafqat qilishga, peslik, jinnilik, moxov kabi kasalliklardan saqlanishga katta ahamiyat berilgan.

Raxmli va mehribon Allox nomi bilan

Rasulloh alayhisalom aytadilar:

- 1- hadis. Aroqdan saqlananglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir.
- 2- Ikki jag'ing va ikki oyog'ing o'rtasidagi a'zolaringni saqlagin.
- 3- Ummatlarim uchun eng qattiq qo'rqqan jihatlarim: Qorin qo'yib semirish, seruyqulik, dangasalik va sust e'tiqodda bo'lishdir.
- 4- Bir joyda vabo kasalligi bor deb eshitalaring, o'sha joyga kirmanglar. Agar sizlar yashayotgan joyga vabo kelsa, o'sha yerdan qochib chiqib ketmanglar.
- 5- Qaysi biringiz bo'lmasin esnasa (chap) qo'lini og'ziga qo'ysin va uvillamasin, aks holda shayton undan kuladi.
- 6- Qaysi biringiz bo'lmasin kekirganda va va aksa urganda ovozi baland ko'tarmas (in, chunki shayton shunday hollarda ovozni baland ko'tarilishini yaxshi ko'radi.)
- 7- Zaytun bilan bo'yaning va uning yog'ini o'zingizga surting, chunki u muborak daraxtdan chiqadi.
- 8- Moxov bo'lgani kishidan yirtqich hayvondan saqlanganday saqlaning. Agar u biror vodiya tushsa, siz boshqa vodiya tushing.
- 9- Hammom deyiladigan uydan ehtiyot bo'ling. Kimki unga kirsam (lungi bilan) o'ransin.
- 10- Har qanday mast qiladigan narsani iste'mol qilishdan qoching.
- 11- Sizning orangizda menga eng seviklilingiz oz ovqatlanib, vazni yengil yuradiganlaringizdir.

12- Qoningiz aynab va qaynab ketib, sizni o'ldirmasligi uchun oyning o'n beshi, o'n oltisi, o'n to'qqizi yoki yugirma birinchi kunida qon oldirishingiz mumkin.

13- Biz uchun ikki o'limtik va ikki qon halol qilindi. O'limtiklar: baliq va chigirtka. Qonlar: jigar va qorajigar.

14- Xina bilan bo'yaning, chunki u yoshligingizni, husningizni va jinsiy quvvatni ziyoda qiladi.

15- O'ldirilganlarni o'sha yerning o'zida dafn qilinglar.

16- Agar kun juda isib ketsa, peshin namozini kechikibroq o'qinglar, haroratning balandligi jahannam alangasidir.

17- Ob- havo o'ta isib ketsa, qon oldiringlar chunki birortangizda qon qaynashi yuz bermasin. Aks holda u o'limga olib boradi.

18- Agar bemorning ishtahasi biror narsani tusab qolsa, o'sha narsani topib yedirib qo'ying.

19- Qaysi birlaringga rayxon taqdim etilsa, uni qaytarmasin, chunki u jannatdan chiqqandir.

20- Har bir kishi ovqatlansa, go'sht-yog' dog'ini ketkazish uchun qo'lini yuvsin.

Roziyning tabobat fani tarixidagi mavqei bilan Gaken(129-200) va Ibn Sino (980-1037) larning bilimi barobardir. U islom olami va umuman O'rta asrning eng buyuk tabiblaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy merosining ko'pchiligini tibbiy asarlari tashkil etadi- jahonning turli kutubxonalarida Roziy qalamiga mansub 76 ta tabobatga oid asar saqlanayotgani ma'lum. Bu haqda yetarli ma'lumotlar nashr etilganligi uchun, biz bu yerda u asarlaridan ayrimlarini zikr etish bilan kifoyalanamiz. Roziyning tabobatga oid eng yirik va muhim asari "Kitob al-hoviy fi-t-tibb" ("Tibga oid barcha ma'lumotlari qamrovchi kitob") bo'lib, uning, yozishicha Roziy o'zining 15 yil umrini sarflagan bo'lsa ham tutolmay vafot etgan. Unda muallif o'zidan oldingi tabiblarga kasalliklar va ularni davolash haqida nima ma'lum bo'lsa, barchasini keltiradi va ularga o'z tajribasida qo'lga kiritgan natijalarini qo'shib boyon etadi.

Bulardan tashqari Roziyning hukmdorlar uchun maxsus mo'ljallangan "Tibb al -Mulukiy" (Podshohlar tabobati) nomli asari mavjud bo'lib, unda kasalliklarni dori ishlatmasdan asosan parhezli ovqatlar yordamida davolash usullari bayon etiladi.

Boshqa bir asarini Roziy tabibga murojaat qilish imkoniyati cheklangan, kambag'allar uchun yozgan va uni "Kitob man lo yaxzuruhu at- tabib" tabibga yetisha olmaydiganlar tarixi" deb atagan. Olimning qator risolalari turli ozuqli moddalarning foydasi va zarariga, ayrim dorilarni tayyorlash va qo'llashga shuningdek bir qancha juz'iy kasalliklarga bag'ishlanadi.

Sanash va hisoblash mashqlari. " Dorixona " mavzuida suhbat.

Dorixonada



Dorixona – barcha dori –darmonlar makoni .

Dorixonada ikki turdagi jovon mavjud .Biri – A , ikkinchisi – B .

A jovonda – zaxarli dorilar saqlanadi .Zaxarli dorilarning idishida oq harflar bilan yozilgan qora yopishtirilgan bo'ladi va ular qat'iy shifokor ko'rsatmasi orqali beriladi .

Ikkinchi B jovonda esa – tez tasir etuvchi dori – darmonlar saqlanadi va ular oq qog'ozda qizil harflar bilan yozilgan bo'ladi.

Dorixonada barcha dorilar tartib bilan joylashtirilgan bo'ladi:
Masalan – shamollashga qarshi , yurak kasalliklari , bolalar uchun , osma(kapelnisa) , ukol- shprislar va xokazo medikamentlar bo'ladi.

Dorixonani yuqori malakali farmaseft boshqaradi. Xaridor dorixonaga kelgach , avvalo shifokor yozib bergan retseptni farmaseftga beradi va u retsept bilan tanishib , yozilgan dorilarni xaridorga beradi..

- Assalomu alaykum :
- Salom, xush kelibsiz, xizmat ?
- Mana bu dori qog'ozini ko'rib berasizmi ?
- Bizda retseptingizga yozilgan festaldan tashqari hammasi bvor .
lekin sizga festal o'rniga senade preparatini taklif qilishim mumkin
- Mayli , unda shu dorini bera qoling
- Mana ,marhamat , chek qog'ozingiz .
- Rahmat , sog' bo'ling
- Sog' bo'ling .

NAMUNA.

Dialog

Assalomu aleykum ! --- Здравствуйте!

Sizni ko'rishdan xursandman! --- Рада вас видеть!
 Ruxsad eting ,o'zimni tanitay ! --- Разрешите представиться .
 Tanishganimdan xursandman! --- Рада с вами познакомиться.
 Tuzukmisiz? Soqligingiz qalay?--- Как вы себя чувствуете?
 Sizga nima bo'ldi ! --- Что с вами ?
 Ko'rinishingizdan qattiq shamolaganga o'xsahaysiz. --- Вероятно,вы сильно простудились.
 Darmonim qurigandek tuyuladi! --- Чувствую себя слабым/ой/.
 Boshim og'riydi!--- Голова болит
 Isitmam bor ! --- У меня температура.
 Unday bo'lsa ! --- В том случае
 Shifokor tafsiyalari bilan tanishib chiqing ! --- Ознакомьтесь с рекомендациями врача

Tozalik va orastalik- sog'liq garovidir.

DIALOG:

A: Salom do'stim!

B: Salom yaxshimisan? Ha yo'l bo'lsin?

A: Bugun fakul'tetimizda shanbalik, kecha uydagilarga aytmagan edim, hozir borib oyimga kech qaytishimni aytib, ishga shoshilayapman.

O'zing -chi?

B: Men kutobxonaga boryapman. Qo'y o'sha shanbalikni, ketdik kutobxonaga boramiz.

A: Yo'q bormasam bo'lmaydi.

B: Ha, Domlangdan qo'rqiyapsanmi?

A: Yo'q, gap qo'rqishda emas. Birinchidan shanbalikni o'zimiz tashkil qildik domlalar bo'lmaydi. Ikkinchidan, kecha ma'naviyat soatida o'zim "Tozalik va orastalik- sog'liq garovidir" mavzuda suhbat uyushtirib hammani shanbalikka undagan edim. O'zing o'ylab ko'r agar shahrimizdagi har bir talaba, har oyda hech bo'lmaganda ikki soat ishlab, shahar ko'chalari, bog'lari, tevarak atrofni tozalashga o'z hissasini qo'shsa, shahrimiz chiroyiga yana chiroy qo'shilib, gullar shahriga aylanadi.

B: To'g'ri aytasan, men ham sen bilan borsammikan.

A: Juda yaxshi bo'lardi-da, Yaxshi ishni hamma har doim qilishi kerak.

B. Ketdik bo'lmasa.

Ozodalik kishi mehnati va vaqtini tejaydi. Pokiza tutilgan barcha buyumlar – kiyim-kechak, poyabzal, shuningdek, turar joylar ko'pga chidaydi. Ozodalik bilan turli ortiqcha xarajatlar tejaladi. Ozodalikka rioya qiladigan va chiniqqan odam sog'lom bo'ladi.

Ozodalik – terini toza tutishning birinchi qoidasidir. Nihoyat, har bir dam dastavval o'z badanini ozoda tutishga e'tibor berishi zarur. Bularning barchasi odamning **shaxsiy gigiyenasi** deyiladi.

Odam terlaganda teri orqali organizm uchun keraksiz va zararli moddalar bilan birga organizm uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan osh tuzi va vitamin S ni ham ajratadi. Terlash faqat organizm holatiga bog'liq bo'lmay, balki uni o'rab turgan tashqi muhitga ham bevosita aloqador.

O'rta Osiyo mintaqalarida oyoq muntazam parvarish qilinmasa ko'p terlaydi, natijada yoqimsiz hid paydo bo'ladi.

Barmoqlar orasi shilimasligi va ozodalik uchun ham oyoqni har kuni yotishdan oldin sovunlab yoki iliq suvda yuvishga odatlanish kerak.

Tashqi muhit – iqlim sharoitlari, ovqatlanish ham terining funksiyasiga katta ta'sir qilishini unutmaslik lozim. Teri, ayniqsa, uning ochiq qismlari kun bo'yi ozmi-ko'pmi chang bilan qoplanadi. Bordiyu, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinmasa, changlar ter va yog' bilan aralashib, ter va yog' bezlarining chiqaruv yo'llarini berkitib qo'yadi, natijada teri o'zining barcha muhim vazufalarini o'tay olmaydi. Odam doim pokiza bo'lib, chiniqib yursa, terisi sog'lom bo'ladi.

Tozalik – teri gigiyenasining eng muhim shartidir.

Terini ifloslanishdan saqlash uchun muntazam ravishda haftada bir marta (yaxshisi ikki marta) hammomda (yoki uyda) issiq suvda cho'milish kerak.

Sochni erinmasdan har kuni tarash, haftada bir marta sovunlab yuvish kerak, soch yuvilganda chang va mikroorganizmlardan tozalanadi. Soch moylarini ko'p qo'llash yaramaydi, chunki bunda sochlarning tabiiyligi yo'qoladi.

Tishlarni parvarish qilish uchun har kuni ertalab yoki kechqurun uxlashdan oldin uni cho'tkada tish poroshogi yoki pastasi bilan tozalash, shundan so'ng ko'rsatkich barmoq yordamida milkni yuqoridan pastga tomon yuvish lozim. Bunda milklar o'ziga xos massaj qilinadi, mustahkamlanadi va qon aylanishi yaxshilanadi.



I-topshiriq. Matn yuzasidan savollar

1. Sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
2. Gigiyena qoidalarga nimalar kiradi?
3. Atrofda muhit tozaligi inson sog'lig'iga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Inson tozaligi, jismoniy mashqlarning shaxs faoliyatiga qanday ta'sir ko'satadi?
5. Suv, havo tozaligini saqlash uchun qaysi chora-tadbirlarni muntazam olib borish kerak?

II-topshiriq. Matnni o'qib, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni rus tiliga tarjima qilib, gaplar tuzing.

Charchasangiz atirgul hidlang.

Tokioning “Kasima” qurilish kompaniyasi endilikda odamlar ishlaydigan har bir xonaga kompyuter orqali iqlimni moslashtirib turadigan **ajoyib qurilma** oʻrnatdi. U vaqt-vaqti bilan xona harorati va hidini oʻzgartirib turadi. Jumladan, ertalab xonalarga **mayin shamol** limon daraxtining **muattar hidini** taratadi. Bu hid odamlarga tiyraklik bagʻishlaydi. Demak, odamlar zoʻr ishtiyoq bilan ishlashadi. Tushlik paytida esa ular **yoqimli xushboʻy atirgul** hididan baxramand boʻlishadi. Mutaxassislarning fikricha, atirgulning **ajoyib hidi** charchoqni qoldiradi.

II-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Atrof-muhit tozaligiga _____ taʼsir koʻrsatadi.
2. Toshkentdagi tabiat muzeyida _____ kabi ekspozitsiyalar bor.
3. Oziq-ovqat doʻkonida _____ kabi gigienik qoidalariga rioya qilish lozim.

Grammatik mavzu

Son – Имя числительное.

Слова, обозначающие количество или порядок предмета при счёте, называются именами числительными. Они отвечают на вопросы qancha? nechta? – сколько? nechanchi? – который? Например: oʻnta daftar, besh soʻm, yigirma talaba, uchunchi para, ikkinchi kurs.

Имена числительные делятся на: 1) miqdor sonlar – количественные числительные и 2) tartib sonlar – порядковые числительные.

Miqdor sonlar - Количественные числительные бывают:

1) **dona sonlar** – штучные числительные. Они обозначают общее количество предметов при их штучном исчислении. Показателем штучных числительных является аффикс **-ta**: Например: mingta talaba – тысяча студентов, oltita ruchka – шесть ручек;

2) **taqsim sonlar** – разделительные числительные. Они обозначают распределение предметов по количеству.

Одним из способов образования разделительных числительных является прибавление аффикса **-tadan** к основе числительного. Например: Kitoblar talabalarga ikkitadan taqsimlab berildi. – Книжки раздали студентам по две штуки;

3) **chama sonlar** – приблизительные числительные. Образуются они прибавлением к основе числительного аффиксов **-tacha**, **-larcha**, **lab**, которые обозначают приблизительное количество предметов. Например: Mitingda oʻn minglarcha odam qatnashdi. – В митинге участвовали десятки

тысяч людей. O'nlab chet ellik mehmonlar konferensiyada so'zga chiqdilar. – На конференции выступили десятки иностранных гостей;

4) **jamllovchi sonlar** – собирательные числительные. Образуются при помощи аффиксов **-ov**, **-ala**, **-ovlon**, которые прибавляются только к числительным 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.

П р и м е ч а н и е. Когда к числительному **bir** (один) прибавляется аффикс **-ov**, оно может приобрести значение неопределенного местоимения кто-то, некто. Например: **Birov** kelganga o'xshaydi. – Кажется, кто-то пришел.

5) **kasr sonlar** – дробные числительные. Дробные числительные обозначают части целых чисел. Образуются они присоединением к числительному-знаменателю аффикса **-dan**, при этом числительное-числитель будет в форме именительного падежа: **sakkizdan bir** - (буквально из восьми один).

Tartib sonlar – порядковые образуются прибавлением аффикса **-nchi (inchi)** к основе количественных числительных. Например: **birinchi**, **ikkinchi**, **o'ninchi**, **yigirmanchi** и др.

1-mashq. Sanoq sonlardan tartib sonlar yasang, so'ngra ular ishtirokida gap tuzing.

O'n to'rt, oltmish yetti, to'qson to'qqiz.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring, chama sonlar tagiga bir chiziq, taqsim sonlar tagiga ikki chiziq va ularni rus tiliga tarjima qiling.

Har birimiz yigirmatadan dori-darmon sotib oldik. Operatsiya xonasiga yuzlab shogirdlar yig'ilgan. Har bir talaba o'ntadan mustaqil ish yozdi.

Qon aylanish sistemasi.

Qonning qon tomirlar sistemasi bo'ylab harakatlanishi germodinamika qonuniyatiga asoslangan. Shunga ko'ra, tomirlardagi qonning oqish tezligi 2 ta kuchga bog'liq. Ularning birinchisi qon tomirlar sistemasining boshlanish qismidagi va oxiridagi bosimning har xil bo'lishi bu kuch qonning harakatlanishi tezligini ta'minlaydi. Ikkinchisi tomirlardagi qarshilik kuchi, ya'ni yurakka yaqin tomonida bosim baland va qonning oqish tezligi yuqori bo'ladi. Quyi qismida esa bosim past va qonning oqish tezligi ham past bo'ladi. Bunda sabab, birinchidan, yurakning chap qorinchasi qisqargan vaqtda qon katta bosim bilan aortaga chiqariladi; ikkinchida, tomirlar sistemasining quyi qismida aorta va arteriya tomirlari mayda tarmoqlarga yani kichik arterialar va kapillyarlarga bo'linishi natijasida qon tomirlar devorining umumiy kengligi ortadi. Bu esa

ularda bosimning pasayishiga,qon tomirlari devorining qarshilik kuchi ortishiga sabab bo`ladi,qonning oqish tezligini sekinlashtiradi.

Qonning oqishining o`rtacha chiziqli tezligi 40sm/sek,arteriyalarda 40-10 sm/sek arteriyalarda 10-01 sm/sek,kapilyarlarda 0,1 sm/sek, venalarda 0,3-0,5 sm/sek ga teng.Tinch holatda katta odam tanasi bo`ylab qon bir marta aylanib chiqishi uchun 25-30 sek vaqt ketadi.

Vena qon tomiridan o`ziga kelayotgan qonni arteriyalarga ritm bilan haydab chiqarish yurakning hayot uchun muhim funksiyasidir.Bu funksiya yurak bo`lmalari va qorinchalarining devorini hosil qiluvchi mushak tolalarining ritm bilan qisqarishi va bo`shashi natijasida yuzaga chiqadi.Yurakning bu qismlaridagi miokardning qisqarishi ularning sistolasi deb,bo`shashuvi esa diastolasi deb ataladi.Miokardning qisqarishi yurak kameralaridagi qon bosimi oshirib,qonning kameralaridan siqib chiqarilishiga,haydalishiga olib keladi.Bo`lmalar qisqarishi kovak venalar teshiklari sohasidan boshlanadi,shuning uchun bu teshiklar qisiladi va qon faqat bir yo`nalishda-bo`lma bilan qorincha orasidagi teshikdan qorinchaga oqadi.Yurakda klapanlarning mavjudligi qorinchalar miokardi qisqarganda qonning qorinchalaridan faqat o`pka arteriyasi va aortaga chiqshi ta`minlaydi.Shu bilan qon aylanishi boshlanadi.

Katta qon aylanish doirasi.

Bu qon aylanish doirasi yurakning chap qorinchasidan chiquvchi eng katta arteriya qon tomiri-aortadan boshlanadi.Aorta oldin yuqoriga yo`nalib,ravoq hosil qiladi,so`ngra umurtqa pog`onasi bo`ylab pastga-ko`krak va qorin bo`shlig`i tomon yo`naladi.Uning ravog`ining o`ng tomonidan nomsiz arteriya chiqib,ikkiga; o`ng umumiy uyqu arteriyasi va o`ng o`mrov osti arteriyasiga bo`linadi.Aorta ravog`ining o`rta qismidan chap umumiy uyqu arteriya chiqadi.Aorta ravog`ining chap tomonidan chap o`mrov osti arteriyasi chiqadi.

O`ng va chap uyqu arteriyalarining har bir tananing bo`yin qismida ikkiga ya`ni tashqi va ichki uyqu arteriyalariga bo`linadi.Tashqi uyqu arteriyalari bosh va yuzaning terisini quloq muskullarini,tilni,halqum,hiqildoq,so`lak bezlari va tanani bosh qismidagi barcha to`qima va organlarni ichki uyqu arteriyalari esa bosh miyani ko`z soqqasini arterial qon bilan ta`minlaydi.

O`ng va chap o`mrov osti arteriyalarining har biri yelka va qo`ltiq osti arteriyalariga bo`linib,bo`yin,yelka,bilak va qo`l panjasining terisini,muskullarini,suyaklarini,shu sohadagi bo`g`imlarni arterial qon bilan ta`minlaydi.

Aortaning ko`krak qismidan qizil o`ngach,qovurg`alar aro va bel arteriyalari chiqib,ular qizil o`ngachni ko`krak qafasi va qorin devor to`qimalari arterial qon bilan ta`minlaydi.Uning qorin qismidan chiqadigan orteriya tomirlari oshqozon ichaklari,jigar taloqni,buyrak va buyrak osti bezlarni arterial qon bilan

ta'minlaydi. Aortaning qorin qismidan chiqadigan arteriyalar to'g'ri ichak ayollarda bachadon hamda son boldir oyoq, tovon va panja terisi muskullari suyaklari va shu sohadagi bo'g'imlarni arterial qon bilan ta'minlaydi.

Aortadan chiqadigan yirik orteriya qon tomirlari o'z navbatida o'rtacha mayda tomirlarga, ular esa eng mayda kapilyarlarga bo'linadi. Bular organlar, to'qimalar orasiga kiradi. To'qimalar hujayralar va kapilyarlar orasida uzluksiz ravishda moddalar almashinuvi bilan turadi ya'ni kapilyarlarda arteriya qonning tarkibidagi oziq moddalar, garmonlar, kislorod hujaylariga o'tadi. Hujaylarda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan qoldiq moddalar va korbanat angidrid vena kapillyar qon tomirlariga o'tadi. Bular o'z navbatida bir-biriga qo'shilib avval kichik so'ngra o'rta va yirik vena qon tomirlari hosil qiladi. Bosh, bo'yin, ko'krak, qo'l kabi organlarning vena tomirlari qo'shilib yuqoriga kovak venani hosil qiladi. Yuqorigi va pastki kovak venalar yurakning o'ng bo'lmachasiga quyiladi. Shu bilan katta qon aylanish doirasi tugaydi. Qonning yurak chap qorinchasidan chiqib tananing barcha a'zolaridagi arteriyalar, kapillyarlar va venalar bo'ylab oqib yurakning o'ng bo'lmachasiga kelib quyiladi yo'li katta qon aylanish doirasi deb ataladi.

Katta qon aylanish doirasi tananing barcha organlari, to'qimalar va hujayralarni oziq moddalar, garmonlar kislorod bilan ta'minlab moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan keraksiz va zararli moddalarni o'ziga qabul qilib ularni organizmdan chiqarib yuborish vazifasini bajaradi.

Kichik qon aylanish doirasi.

Bu doira yurakning o'ng qorinchasidan chiqadigan o'pka arteriyasi qon tomiridan boshlanadi, o'pka arteriyasi ko'krak qafasida ikkiga bo'linib o'ng va chap o'pkalarga boradi. Ular o'pkalarda kapillyar qon tomirlariga aylanib, o'pka alveollari atrofini o'rab oladi. Tashqi muhit havosi bilan o'pka hamda qon o'rtasidagi gaz almashinuvi jarayoni shu joyda o'tadi. Natijada vena kapillyarlardagi qon kislorodga to'yinib arterial qonga aylana lekin u o'pka venasi deb ataluvchi to'rtta tomir orqali yurakning chap bo'lmachasiga quyiladi.

Qonning yurakning o'ng qorinchasidan chiqib, arteriyalar kapillyarlar va venalar bo'ylab oqib, yurakning chap bo'lmachasiga kelib quyiladigan yo'li kichik qon aylanish doirasi deb ataladi.

Kichik qon aylanish doirasining vazifasi vena qonni arterial qonga aylantirishdan iborat.

Lug'at.

Katta qon aylanish doirasi - Большой круг кровообращения.

Kichik qon aylanish doirasi - Малый круг кровообращения.

Arteriyalar - Артерии

Venalar - Вены

Kapillyarlar - Капилляры

Chap umumiy uyqu arteriyasi - Общая левая сонная артерия

O'ng umumiy uyqu arteriyasi - Общая правая сонная артерия

O`ng o`mrov osti arteriyasi - Правая подключичная артерия
Chap o`mrov osti arteriyasi - Левая подключичная артерия
Qon - Кровь

Savollar.

1. Kichik qon aylanish doirasining vazifasi.
2. Tinch holatda katta yoshdagi odam tanasi bo`ylab qon bir marta aylanib chiqishi uchun qancha vaqt ketadi.
3. Aortaning ko`krak qismidan chiqqan arteriyalar qaysi to`qimalarni arterial qon bilan ta`minlaydi.
4. Qonning oqish tezligi qaysi kuchlarga bog`liq.
5. Qonning o`rtacha oqish tezligi arteriyalarda, venalarda, kapillyarlarda qanchaga teng.
6. Tashqi uyqu arteriyalari qaysi organlarni arterial qon bilan ta`minlaydi.
7. Nomsiz arteriya qaysi arteriyalarga bo`linadi.
8. Aortaning qorin qismidan chiqqan arteriyalar qaysi to`qimalarni arterial qon bilan ta`minlaydi.
9. Katta qon aylanish doirasining vazifasi.
10. Arteriya ravog`ining o`ng tomonidan qaysi arteriyalar chiqadi.
 - Sog' bo'ling .

Arab raqamlari

Biz kundalik hayotimizda ko'proq arab raqamlarni ishlatamiz. Arab raqamlaridan keyin defis qo'yiladi. (6-maktab).

Oy va yillar arab raqamida yoziladi. Ulardan keyin defis qo'yilmaydi. Ba'zan yillardan keyin davomiylik, taxminiylik ma'nosa bo'lsa, qo'yiladi. (90-yillarda proza)

Sonning otlashuvi kim? so'rog'iga javob beradi, otga xos bo'lgan egalik, kelishik, son qo'shimchalarini oladi. Son otlashganda ot bajargan vazifani bajarib, gapda bosh bo'lak, II darajali bo'lak, undalma, kirish so'z bo'ladi, otga xos bo'lgan yasovchi qo'shimchalarini qabul qiladi. M: Men birinchilardan bo'lib paxtaga bordim.

Gapda son sifatlovchi aniqlovchi, kesim, hol vazifasida kelishi mumkin.

Masalan: 1. Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib qo'ymoqda edi.

2. Ularning biri elliklarda, ikkinchisi oltmishlarda edi.

3. Uchovlashib uyga tomon yurishdi.

Agar son fe'lga bog'lansa hol bo'ladi.

Normativ soʻzlar.

Normativ soʻzlar- “hisob” degan maʼnoni anglatadi. Ular sanoq sonlar bilan qoʻllaniladi va ulardan keyin keladi.

1 gektar, 6 sotix, 1 siqim, 1 bosh, 1 tub, 1 kilometr, 1 piyola, 1 qadoq, 1 litr, 1 qultum suv, 6 oy, 10 kun, 7 hafta. M: Derazamning oldida 1 tup oʻrik oppoq gulladi.

1-mashq. Sanoq sonlarni oʻzbekcha ayting, soʻngra ular ishtirokida gap tuzing.

7, 14, 35, 23, 58, 100, 505, 703, 1879.

2-mashq. Sanoq sonlardan tartib sonlar yasang, soʻngra ular ishtirokida gap tuzing.

Oʻn toʻrt, oʻttiz besh, yigirma uch, ellik sakkiz, yuz, besh yuz, besh yuz besh

Namuna: oʻn toʻrt – oʻn toʻrtinchi: Abu Ali ibn Sino 980 yilda tugʻilgan.

ABU ALI IBN SINO



Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, ulugʻ hakim, matematik, faylasuf, mutafakkir shoir edi. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida tugʻilgan. Uning

bolalik va o'smirlik yillari Buxoroda o'tib, ilmiy faoliyati ham shu shaharda boshlandi.

Ko'p yillar darddan azob tortgan va hech kim tuzata olmagan Buxoro shohini yosh tabib Ibn Sino davolaydi va shu tariqa shoh kutubxonasidan foydalanish baxtiga muyassar bo'ladi. U yerdagi xilma-xil kitoblarni o'qib, o'z bilimini boyitadi.

Buxoroda ta'qibga uchragan olim 1002 yilda Xorazm poytaxti Urgenchga ketadi. U Urgenchda shoh saroyida yashaydi. Ibn Sino bu yerda mashhur olim Beruniy bilan uchrashadi. U 1012 yilda Xorazmda Eronga ketishga majbur bo'ladi va tabibligini, ilmiy ishini davom ettiradi.

Ibn Sino turli sohaga doir ko'plab asarlar yozdi. Shulardan eng mashhuri "Tib qonunlari" kitobidir.

U XIII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan edi. Bu asar XYIII asrgacha butun dunyo vrachlari uchun qo'llanma bo'lib kelgan.

Ibn Sino tibbiyot fanining mohiyati va vazifalarini boshqalardan ko'ra chuqurroq va kengroq tasavvur qilgan. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ilm-fan G'arbiy Ovro'poga nisbatan katta natijalarga erishgan edi.

Ibn Sino tib ilmiga shunday ta'rif bergan: "Tib shunday bir ilmki, u bilan odam gavdasining ahvoli sog'lik va kasallik jihatidan o'rganilib, uning mavjud sog'ligi saqlanadi va yo'qotilgani tiklanadi". Ibn Sinoning bu ta'rifida bir juda muhim fikr bor. U salomatlikni saqlash masalasini birinchi o'ringa qo'ygan. Demak Ibn Sinoning tushunishicha, tibbiyotning asosiy vazifasi kishilar sog'ligini saqlashdan iborat. Bu fikr yuksak darajada rivojlangan hozirgi zamon tibbiyotining asosiy qoidasiga tamomila mos keladi. Ibn Sino o'zining bu fikri bilan o'sha zamondagi ko'pchilik tibbiyot namoyondalarining fikrlaridan ancha ilgarilab ketgan edi.

"Ibn Sinoning o'zi bu kitob haqida so'zlab, mazkur asar barcha nazariy va amaliy tibbiyotni o'z ichiga olgan. Unda men tib ilmi bo'yicha hamma bilimimni she'rda ifoda etganman, deb yozgan. Ibn Sino tibbiyotning mohiyati haqida o'z fikrini davom ettirib yozadi: "Tib – odam gavdasining sog'ligi va kasalligini o'rganadi. Har bir narsani bilish u narsaning sababini o'rganish orqali hosil bo'ladi va kamolotga yetadi. Shuning uchun tibda sog'lik va kasallikning sabablarini bilish kerak. So'glik, kasallik va ularning sabablari goho ochiq, goho maxfiy bo'lib, unga his bilan emas, balki belgilarga asoslanib fikr yuritish bilan erishiladi". Ibn Sinoning bu fikri hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan ham to'g'ri tushunchadir.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha, har bir tirik mavjudotning o'z turiga xos mijozi bo'ladi. Ulardan eng mo'tadil mijozga ega bo'lgan mavjudot odamdir. Ammo har bir odamning ham o'ziga xos (individual) mijozi mavjud.

Ibn Sinoning fikricha, butun gavdaga xos umumiy mijozdan tashqari har bir a'zoning ham o'z mijozi bo'ladi, hatto bitta a'zoning ayrim qismlari ham turli mijozga ega bo'lishlari mumkin.

Ibn Sino sog'liqni saqlash ishini san'at, deb ataydi. Uning vazifasi har xil foydali tadbirlarni qo'llab, odamlarni tabiiy o'lim yoshigacha yetkazishdir, deb ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha, salomatlikni saqlash uchun birinchi galda quyidagi yetti tadbirni amalga oshirish kerak: 1) kishi mijozini mo'tadil holga keltirish; 2) yeyiladigan va ichiladigan narsalarni to'g'ri tanlash; 3) odam gavdasining to'g'ri tuzilishini saqlash; 4) tanani chiqindilardan tozalab turish; 5) nafas olinadigan havoni yetarli va yaxshi qilish; 6) tanaga va mavsumga muvofiq kiyim tanlash; 7) jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil qilish. Bular qatoriga Ibn Sino yana mo'tadil uyqu va uyg'oqlikni qo'shgan. Ibn Sino bu tadbirlarni yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab, to qarilikkacha bo'lgan hamma davrda qaysi usul va yo'llar bilan amalga oshirilishini batafsil bayon etgan.

Lug'at

Salomatlik –здоровье

Ruhiy kasal –психическии больной

Tib ilmi –наука о медицине

Kasallik –болезнь

Bemor –больной

I-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

- 1) Ibn Sino tibbiy merosining ahamiyatini qanday tushuntirasiz?
- 2) Abu Ali ibn Sino inson salomatligi haqida qanday fikr bildirgan?
- 3) Qanday qilib Ibn Sino qomusiy olim darajasiga ko'tarildi?
- 4) Mijoz tushunchasini tushuntiring.
- 5) Ibn Sino qaysi davolash usullarini tibbiyotga kiritdi?

II-topshiriq. Yuqorida hamda quyida berilgan matnlarni solishtirib, mazmundagi o'xshash va farqli tomonlarni toping.

Абу Али ибн Сино

(980 - 1037)

В числе передовых деятелей мировой культуры почетное место занимает Абу Али ибн Сино. В Европе он известен под именем Авиценна

Ибн Сина – выдающийся философ, врач, естествоиспытатель математик и поэт.

Он родился в 980 году в селении Афшана близ города Бухары, столицы Саманидского государства. В 980 году семья переехала в Бухару, один из культурных центров Востока, крупный и богатый город. В Бухаре прошла юность ибн Сино здесь он учился в школе, а затем самостоятельно изучал астрономию, математику, логику, медицину, географию, физику, законоведение. В Бухаре началась его научная и врачебная деятельность.

В 16 лет он был уже известным врачом. Едва достигнув восемнадцати лет, вступал в научные споры с крупнейшими учеными Востока:

багдадским врачом Абул Фараджем и хорезмийским учёным Бируни. Это показывает, какие огромные знания он приобрел, занимаясь с бухарскими учеными и работая самостоятельно в саманидской библиотеке в Бухаре. К этому времени у него появляются ученики, которые не покидают его до самой смерти.

В 990 году Бухара была завоевана тюркскими племенами. Саманидское государство пало. Через три года ибн Сино, спасаясь от преследований жестокого султана Махмуда, вынужден был бежать в столицу Хорезма Ургенч, также бывший культурным центром того времени.

В 1012 году ибн Сина переехал в Иран, жил в Хорасане и Хамадане, где был придворным врачом и везиром (министром).

Умер ибн Сино в 1037 году.

III-topshiriq. Quyidagi donolar pur hikmat so'zlarini ma'nosini izohlang.

DONOLAR DEMISHKI...

Aqlning daraxti qarilik, chunon,
Daraxti ayonu mevasi pinhon.

N. XISRAV

Keksalarni etsang azizu hurmat,
Seni ham keksaygach etishar hurmat.

BEDIL

Sen otangga har na qilding yaxshilik,
Kut bolangdan yaxshilikka yaxshilik.

F. DONISH

Tug'ub tashlov bilan bo'lmas bola, bo'lg'ay bino sizga
Vujudi tarbiyat topsa bo'lur ul rahnamo sizga.
Temurchilar bolasi tarbiyat topsa bo'lur odam,
Buzilsa hulqi Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'uchi zolim.

A. AVLONIY

Bola – shirinlikning gadosi,
Qariya – shirin so'zning gadosi.

* * *

Yosh kelsa – ishga,
Qari kelsa – oshga.

* * *

Yoshga – xizmat
Qariga – hurmat

* * *

Yoshlikda eksang, qariganda o'rsan.

* * *

Yoshlikdagi g'ayrat - keksalikda rohat.

* * *

Yoshning hurmati – qarz,

Qarining hurmati – farz.

* * *

Qarisi bor uyning parisi bor.

* * *

Har keksadan bir naql.

Grammatik mavzu

Olmosh – Местоимение

Местоимение называется часть речи, которая употребляется вместо имени существительного, прилагательного и числительного. По своему значению местоимения в узбекском языке делятся на следующие разряды: kishilik olmoshlari (личные), o'zlik (возвратные), ko'rsatish (указательные), so'roq (вопросительные), belgilash (определятельные), bo'lishsizlik (отрицательные), gumon (неопределенные).

Грамматическая форма местоимения: склоняются по падежам, принимают аффиксы лица и числа.

Ot, sifat va son o'rnida qo'llangan so'z turkumi olmosh deb aytiladi. Men dorixona bordim. Ukam ham bordi. Men 10 dona qaychi oldim. Botir ham shuncha qaychi oldi.

Olmosh gapda ot, sifat va son bajargan vazifada kelishi mumkin.

1. Men / ega / undan / to'ldiruvchi / so'radim: mehringni qo'yib, shunchalar saralab gul terding kimga? (to'ldiruvchi).
2. Bizning / aniqlovchi / ko'chada / ham bayram bo'lajak/
3. Bu kim? (kesim). Bu men (kesim), oyi, eshikni oching.

Olmoshlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: kishilik olmoshlari, o'zlik olmoshlari, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari.

1-mashq. Quyidagi berilgan kishilik olmoshlarining mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. _____ shifokor bo'lmoqchiman.
2. _____ qo'ygan tashxisi to'g'ri chiqdi.

3. _____ yuragingni _____ oq libosga dog' tushirmaymiz.

Nafas olish kasalliklari.

Odam hamda quruqlikda yashovchi hayvonlar havo tarkibidan nafas organlari yordamida kislorod qabul qilib nafas orqali karbonat angidrid chiqaradilar. Odam nafas organlari – burun bo'shlig'i, traxeya, bronx va o'pkadan tuzilgan. Bular odatda kislorodni o'pka alveolalariga yetkazib beruvchi havo hisoblanadi. Klinika sharoitida burun bo'shlig'i, burun va hiqildoq yuqori nafas yo'li deb ataladi. Kekirdak va bronxlar pastki nafas yo'li deyiladi.

Nafas organlari embrion taraqqiyotining 3- haftalarida birlamchi ichak yo'lidan toq kurtak shaklida ajraladi.

Rivojlanayotgan o'pka kurtagining chap tomoni 2 bo'lakka, o'ng tomoni 3 bo'lakka bo'linadi. Bo'linish bir xilda davom etib, bronx daraxti va sinusni vujudga keltiradi.

Nafas olish a'zolarining kasalliklari 2 turga bo'linadi.

1) nafas olish a'zolarining yallig'lanish kasalliklari.

2) nafas olish a'zolarining yuqumli kasalliklari.

1) Nafas olish a'zolarining har bir qismi ichki yuzasini qoplab turuvchi shilliq parda tashqi ob-havo haroratining o'zgarishi, chang zarrachalarining ta'sirida yallig'lanishi mumkin. Bunga burun ichki shilliq pardasining yallig'lanishi, burundan suv oqishi, tomoq shilliq pardasining yallig'lanishi, hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi.

2) Nafas olish a'zolarining yuqumli kasalliklaridan aholi o'rtasida ko'p uchraydigan gripp va o'pka sili hisoblanadi.

Gripp. Bu kasallikni maxsus viruslari qo'zg'atadi. Ular 3 xil (A,B,S).

O'pka sili- kasallik qo'zg'atuvchi mikrobn Robert Kox aniqlagan. Kasallik belgilari: darmonsizlik, ishtaha yo'qolishi, uxlagan vaqtda terlash, ozish, rangning oqarishi va h.z.

Bronxial astma

Bronxial astma – mayda bronxlarning torayishi, shilliq pardasining ko'pchishi va ichiga shilimshiq tiqilishi natijasida vaqt-bevaqt nafas qisishi, bo'g'ilish xuruylari bilan o'tadigan allergik kasallik. Xuruj to'satdan, turli xil vaqtda paydo bo'ladi, nafas olish qiyinlashadi, xususan nafas chiqarish, hushtaqsimon xirillash paydo bo'ladi va masofada eshitiladi. Nafas olish tezlashgach, yopishqoq shishasimon, qiyin ko'chuvchi balg'am ajraladi. Bo'g'ilish xuruji bir nechi daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Juda og'ir hollarda astmatik holat rivojlanadi, bunda xuruj bir necha kun davom etadi, yoki xuruj ketma-ket, qisqa oraliqlar bilan kechadi.

1) Bemorni tinchlantiring – hissiyotli, hayajon va jismoniy zo'riqish bronxospazma kuchaytirishi mumkin.

2) Bemorning holati majburiy ravishda deraza raxi, krovat, stul orqasiga tayangan holda o'tirish yoki turishni taqazo etadi, bemorga qulay holatni olishida yordam bering.

3) Toza havo kirishini ta'minlang, qisib turgan kiyimlarini yeching.

4) Qator hollarda xantalma, banka va boshqa chalg'ituvchi muolajalar yaxshi samara beradi.

5) Bronxlarni kengaytirish maqsadida ingalftor yordamida ingalyatsiya o'tkazing.

6) Agar xuruj birinchi marta paydo bo'lgan bo'lsa, shifokorning shoshilinch yordami zarur bo'ladi.

I-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Qanday usullarda sun'iy nafas oldiriladi?
2. Yuqori nafas yo'llari kasalliklarining sabablari va belgilari haqida nimalarni bilasiz?
3. Yallig'lanish kasalligi qanday o'tadi?
4. Grippdan qanday saqlanish mumkin?
5. Sil kasalligi haqida nimalarni bilasiz?

I-topshiriq. Berilgan reja asosida so'zlab bering.

Reja:

1. Nafas organlari sistemasi.
2. Nafas organlarining rivojlanishi.
3. Nafas qisish kasalliklarining kelib chiqishi.
4. Davo chora – tadbirlari.

III-topshiriq. Nafas olish organlari kasalliklarida qo'llaniladigan tibbiy atamalar ro'yxatini davom ettiring.

Yuqori harorat, nafas olish, pnevmotoraks, plevra, asfiksiya

IV-topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ingalyasiya, qon, nafas, qisimi balg'am, yo'tal, teri rangi, parchlanish.

Fe'l

Слова, обозначающие действие или состояние предметов, называются глаголами.

Глаголы отвечают на вопросы nima qildi? / что сделал? / , nima qiliyapti? / что делает? / , nima qiladi? / что сделает? /. Например: Mahkam Abdullayev

bemorni taxsis qildi / nima qiladi? / Vera o'zbek tilidan imtihonga tayyorgarlik ko'ryapti / nima qiliyapti? /.

В предложении глаголы выступают главным образом в роли сказуемого.

Predmetning ish – harakatini yoki holatini bildirgan so'zlar fe'l deb ataladi.

Fe'l ish – harakat va holatning zamonini, shaxs-sonini bildirib, nima qildi?, nima qiliyapti?, nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Ular karidor bo'ylab ketdi. / nima qildi? /. Manzura opa, operatsiya qiliyapti / nima qiliyapti?/. o'quvchilar ertaga sayohatga boradi. / nima qiladi?/.

Fe'llar gapda ko'pincha kesim bo'lib keladi. Masalan: Men chizgan rasmlarimni o'qituvchiga ko'rsatdim.

1-mashq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gap tuzing hamda gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

Davolaydi, tekshirdi, intiladi, haydash uchun, charchamaslik uchun.

2-mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qilib, fe'llarni toping hamda matn yuzasidan asosiy fikrlar tezisini tuzing.

Гонорея

Гонорея (триппер). Инфекционное заболевание, вызываемое гонококком. Главная опасность ее проистекает из легкомысленного отношения, что вылечиться можно легко, даже без врача - с помощью советов "опытных" друзей и знакомых. Конечно, гонорея не столь разрушительна, как сифилис, но вероятность бесплодия (как у мужчин, так и у женщин), сексуальных расстройств у мужчин, заражения детей при родах - чрезвычайно велика. Следует добавить, что гонорея гораздо более распространена, чем сифилис. Ею, как, впрочем, и сифилисом, можно болеть и несколько раз. Многие, не подозревая, что они больны, продолжают жить половой жизнью, заражая своих партнеров, не лечатся, и болезнь прогрессирует, приводя к тяжелым осложнениям.

Заражение происходит при различных формах половых контактов: при "обычном" половом сношении, при "неполном" (когда происходит лишь взаимное соприкосновение половых органов, без введения полового члена во влагалище), при орогенитальном (соприкосновение половых органов и слизистой рта), при анальном. Мужчины не всегда заражаются от женщин, больной гонореей. При небольшом количестве гонококков они могут не попасть в узкое отверстие уретры. Если все же попали, то могут быть выброшены или смыты мочой. Чаще всего женщина заражает мужчину во время менструации или сразу после нее, при удлиненном половом акте, при бурном его окончании, когда гонококки выносятся из глубоких отделов желез.

В отличие от мужчины женщины "подхватывают" гонорею почти во всех

случаях полового сношения с больным. Ребенок может заразиться от матери при прохождении через родовые пути. При этом у него поражается слизистая глаза, а у девочек также и половые органы. Слепота новорожденных в 56% случаев вызвана гонореей.

Kasb-hunar, ixtisoslik haqida suhbat.

O'qituvchi shifokorlik kasbi ham sharaflı, ham mas'uliyatli kasb ekanligi , qunt bilan o'qishni, o'rganishni talab qilish, e'tiborli, g'amxo'r bo'lishi xususida fikr yuritib, Ibn Sinoning davolash usullariga: so'z, giyoh, hamda tig' bilan davolashni kiritganining ahamiyatini tushuntiradi. Shifokorning shirin so'zi bemor dardiga davo bo'lishi, unga umid baxsh etishi haqida gapiradi.

Ijodiy bayon namunasi.

Men shifokor bo'lmoqchiman



Men yoshligimdan shifokorlarga havas bilan qarardim. Onam shifokor bo'lganliklari sababli har doim oldilarida yurib shu muhitda katta bo'lganman. Onam aslida stomatolog shifokorlar. Onam oldiga kelgan bemorlar dardiga shifo topib, ko'zlarida nur, xursand bo'lib, minnatdorchilik bilan ketishayotganligini ko'rib havas qilardim. Onamning oq xalatda yurishlari, insonlarning dardiga davo bo'lishlari yoshligimdan shu kasbga mehr uyg'otgan. Men o'ylaymanki, shifokor bo'lish juda katta mahoratni va tugamas bilimlar koniga ega bo'lishni talab qiladi. Shuningdek, mening fikrim bo'yicha bu kasb dunyodagi eng katta ma'sulyat va javobgarlikni talab qiladigan kasblardan biridir. Chunki bu yerda inson hayoti uchun kurashib ishlashga to'g'ri keladi. Hammaga ma'lumki arziyas hisoblangan xatolar ham insonning hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. Mening fikrim bo'yicha shifokor bo'lishni niyat qilib tahsil olayotgan talabalar mukammal bilim olishlari shart.

Men ham shifokor bo'lishni maqsad qilib 2007 – yil Buxoro Davlat Tibbiyot institutiga hujjatlarimni topshirdim va boshqa talabalar qatori o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldim. Kelajakda men onamlar kabi shifokor nomini oqlab

jamiyatga foydam tegishini, komil inson bo`lib yetishishni oldimga maqsad qilib qo`ydim.

Lug`at

Shifokor – врач

Masuliyat – ответственность

Maqsad – цель

Dard – болезнь

Kasb – профессия

Tibbiyot – медицина

Berilgan matn bo`yicha savollar

1. Nima sababdan unda shifokor kasbiga qiziqish uyg`ongan?
2. Shifokor bolish nimalarni talab qiladi?
3. Shifokor qanday hususiyatlarga ega bo`lishi kerak?

Grammatik mavzu.

Fe`lning bo`lishli va bo`lishsiz formalari. O`zbek tilida barcha fe`llar bo`lishli va bo`lishsiz formalarda qo`llana oladi.

Harakatning bajarilishi, amalga oshishini anglatuvchi fe`llar bo`lishli fe`llar deyiladi. Masalan davoladi, o`qiydi. Bo`lishsiz fe`llar aksincha bajarilmagan harakat yoki holatni ifodalaydi. Masalan, bormadi, kelma, davolama.

Emas, yo`q so`zlari ham fe`llardagi bo`lishsizlik ma`nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: borgan emas, davolagani yo`q,

Mashq. Gaplarni o`qing. Bo`lishli va bo`lishsiz fe`llarni toping.
So`ziga boqma, ishiga boq. Dushmaningga siringni aytma. Bugungi ishni ertaga qo`yma. Do`stlarning sonini sanama, sifatini sana.

Yurak kasalliklari

Yurak paroklari.

Yurak va ishemik klapanlarning organik kasalliklarda ularda normal faoliyati izdan chiqib buning natijasida yurak ichidagi qonning harakatlanishi (gemopdinamik) har xil tarzda o`zgaradi, yurak faoliyati, sikli boshqacha bo`lib qolib, natijada yurak paroklari kelib chiqadi.

Yurak paroklari tug`ma va turmushda orttirilgan paroklarga bo`linadi. Tug`ma yurak paroklar embrion shakllanib boradigan davrda paydo bo`ladi. Biroq ko`pincha turmushda orttirilgan paroklar uchraydi. Yurak klapanlari nuqsonlari, revmatizm, zaxli, sklerotik jarayon va boshqalar tufayli endokardda yuzaga keladigan o`zgarishlari shular jumlasidandir.

Mitral klapan yetishmovchiligi

Mitral yetishmovchilikdagi o'zgarishlar birinchi marta Senak (1749) tomonidan o'rganilgan. Mitral klapan yetishmovchiligi yurak parogi bor bemorlarning 70 foizidan ko'prog'ida ham alohida ko'rinishda, ham mitral stenoz (mitral porog) yoki boshqa klapan va teshik paroklari bilan birga uchraydi. Paydo bo'lish mexanizmiga ko'ra mitral klapan yetishmovchiligi uch turga: funksional (mushak), nisbiy va organik turlarga bo'linadi. Mitral klapaning funksional yetishmovchiligi distrofik o'zgarishlar natijasi sifatida, mushak apparati funksiyasining buzilishlari (mushak yetishmovchiligi) oqibatida rivojlanadi.

Mitral klapaning nisbiy yetishmovchiligi chap qorincha bo'shlig'i kengayishi chap atrioventrikulyar teshik fibroz halqasi va doira mushaklarining cho'zilishi natijasida kuzatiladi, buning oqibatida avtonomik jihatdan o'zgarmagan klapan (chap qorincha sistolasi vaqtida) mitral teshikni yopa olmaydi (gipertoniya kasalligi, simptomatik gipertenziyalar, aortal paroklar diffuz miokardit, atertioskleroz va boshqa).

Mitral klapaning organik yetishmovchiligida klapaning zararlanishida endokardit sabab bo'ladi va klapan apparatining deformatsiyasi, bujmayishi va boshqa organik o'zgarishlar kelib chiqadi.

Etiologiyasi - Mitral klapan asosan revmatik endokardit bilan og'rib o'tgan odamlarda, ateroskleroz, kardioskleroz kasalliklaridan so'ng hamda ko'krak qafasi shikastlanishi va klapaning zaxmli zararlanishi oqibatida kelib chiqadi.

Klinik manzarasi - klinik manzaraning nechog'li seziladigan bo'lishida mitral klapan nuqsonning darajasi katta ahamiyatga ega. Yurak dekompensatsiyasi yo'q paytlarda bemorlar hech narsadan nolimaydilar. Ularni jismoniy ish vaqtida kuchayadigan nafas qisishi, yurak o'ynashi, ba'zan yurak sohasida yoqimsiz sezgilar yoki og'riqlar bezovta qiladi. Bundan tashqari bemorlar kechga yaqin oyoqlarda shish paydo bo'lishidan shikoyat qiladilar. Bemorlar ko'zdan kechirilganlarning kerikib turgani seziladi. Yurak sohasi tekshirilganda, yurak uchining zarbi ko'rinib turishi mumkin, yurak sohasi palpasiya qilinganda bolalarda va katta yoshdagi og'riq odamlarda konpesatsiya davrida birmuncha kuchaygan va oz-moz chapga siljigan yurak uchi turtkisi osonlikcha topiladi. Dekompesatsiya davrida mitral klapan yetishmovchiligi yuzaga chiqqanlik darajasiga ko'ra, beshinchi-yettinchi qovurg'alar orasida kuchaygan, yuqoriga ko'tariladigan yurak uchi to'rtkisi, to'sh suyagidan chapda (chap qorincha gipertrofiyasi va o'pka arteriyasi ravog'i kengayish) va o'ng tomonda kamroq (chap bo'lmasining keskin gipertrofiyasi) pulsatsiyasi aniqlanadi. Auskultatsiyaga yurak uchi sohasiga susaygan birinchi ton chap qo'ltiq sohasiga o'tadigan sistolik shovqin eshitiladi. Yurak asosi ustida, o'pka

arteriyasi tepasida ikkinchi ton aksenti topiladi. Parokning bu xilida puls normal xossalarini anchagacha saqlab qoladi. U to'la, ritmik, odatdagi tezlikda, odatdagi taranglikda bo'ladi va puls to'liqligining normal shakli saqlanib turadi. Arterial va puls bosimi ham o'zgarmay qolaveradi. Rentgenologik tekshirishda- chap bo'lma va chap qorincha (keyin o'ng qorinchaning ham) kattalashuvi, yurak belining tekislashganligi- "mitral" ko'rinishi, retrokardial bo'shliqning torayishi aniqlanadi. Elektrokardiogrammada elektr o'qining chapga og'ishi, R-R tishga amplitudasi ko'payishi kengayishi kuzatiladi.

Yurakning ishemiya kasalligi.

Yurakning ishemiya kasalligi yurak toj- tomirlarining aterosklerozga uchrashi va miokardga qon yetkazilishining kamayishi yoki to'xtab qolishiga bog'liq bo'lgan yurak mushagining o'tkir yoki surunkali zararlanishidir. Xastalik rivojlanishiga tashqi va ichki muhitning turli tuman omillari, arterial gipotenziya, chekish, giperxolisterinemiya, kam harakatlik, yog' bosishi sabab bo'ladi.

Klinik amaliyotda yurak ishemiya kasalligining VOZ ekspertlari takliflari, asosida ishlab chiqilgan tasnifdan foydalaniladi.

1. Toj tomirlar kasalligi sababli to'satdan omil (yurakning birlamchi to'xtashi)

2. Stenokardiya.

Zo'riqish stenokardiyasi ilk bor paydo bo'lgan, barqaror, avj olib boradigan spontan (maxsus stenokardiya)

3. Miokard infarkti: mayda o'chog'li, yirik o'chog'li.

4. Postinfarkt kardioskleroz

5. Yurak ritmi buzilishi. (Turi ko'rsatilgan holda)

6. Yurak yetishmovchiligi (turi va bosqichi ko'rsatilgan holda)
Ateroskelozga gipertoniya kasalligi va qandli diabet moyillik tug'diradi (gipertoniya kasalligida tomirlarda sklerotik o'zgarishlar tez rivojlanadi, qandli diabetda yog' almashinuvi birmuncha buziladi).

Stenokardiya yoki ko'krak qisishi – yurak sohasida, to'sh orqasida, o'tkir xurujsimon og'riq bilan namoyon bo'ladigan chap qo'lga bo'yinga, ko'kraklararo bo'shlikka o'tadigan klinik belgidir. Stenokardiya – yurak ishemiya kasalligining turlaridan biri bo'lib kasallikning birdan- bir belgisi bo'lishi yoki uning boshqa turlari- kardioskleroz postinfarkt, miokardioskleroz, yurakning anevrizmasi bilan birga uchrashi mumkin.

Etiologiyasi – kasallik kelib chiqishida, ishemiya kuchayib borishida miokardning qon bilan yetarlicha ta'minlanmay qolishi toj tomirlarda qon aylanishining idora etilishini buzadigan nevrogen omillar (asabiy zo'riqish, salbiy his hayajon, ruhiy, jarohat), stenokardiyaning rivojlantiradigan arterial gipertenziya, qandli diabet, yog' bosishi, chekish, spirtli ichimliklar ichish va boshqalar asosiy ahamiyatga ega.

Klinik manzarasi – bemorlar asosan yurak sohasida va to'sh orqasida siqadigan, bosadigan qattiq og'riq xurujlari hamda bu og'riqlarning chap yelkaga ko'kraklararo bo'shliqqa, chap qo'lga, kamrok o'ng yelkaga, o'ng ko'krakka, ensaga berilishidan shikoyat qiladilar. Og'riq xurujlari, asosan sutkasiga bir necha marotaba har kuni yoki kamdan-kam bo'lishi ko'pincha tunda, tinch turganda, bemor ishga o'tlanayotgan paytda bir necha sekuntlardan bir necha daqiqagacha davom etishi bilan namoyon bo'ladi. Bemorlar xuruj paydo bo'lishini hayajonlanish, ruhiy asab zo'riqish, xavotirlanish, ko'p ovqat yeyish, qorinning dam bo'lishi bilan bog'laydilar. Xuruj paytida isterob chekish o'lim vahimasi bo'lishi, harakatsiz bo'lish, terining oqarib ketganligi, ko'ngil aynishi, qayt qilinishi, nitrogliserin yoki qabul qilingandan keyin og'riq xurujlarining o'tib ketishi xastalikning asosiy klinik belgilaridan biri hisoblanadi. Ko'krak qisishi tutib turgan mahalda bemorni ob'ektiv tekshirganda taxikardiya qayd qilinadi, arterial bosim esa bir oz ko'tarilgan bo'ladi. Arterial bosimning keskin pasayib ketishi miokard infarkti xususida gumon tug'diradi. Stenokardiyada yurak ---- o'zgarmaydi. Stenokardiyaning klinik ko'rinishlari quyidagilar:

1. Zo'riqish stenokardiyasi jismoniy zo'riqish sababli, miokardning kislorodga ehtiyoji oshishi natijasida toj tomirlar spazmi yoki ularning organik torayishidan paydo bo'ladi.

2. Tinch davrdagi stenokardiya - yurak sohasida og'riq xurujlari hatto tinch turganda, ayniqsa uyqu vaqtida qayd qilinadi.

3. Stenokardiyaning alohida turi - prinsmetal ko'rinishdagi Stenokardiyada tinch turganda paydo bo'ladigan anginoz og'riq xurujlari aniqlanib, bu tur yomon prognostik ahamiyatga ega bo'ladi. Kasallik belgilari ko'pincha miokard infarkti avj olishiga, ritmning jiddiy buzilishlariga, letal oqibatlariga olib keladi.

4. Xastalikning ko'rsatib o'tiladigan ko'rinishlaridan tashqari uning kechishida quyidagilar kuzatiladi:

a) barqaror stenokardiya- xurujlar kamida bir oy yoki ko'proq, ba'zan bir necha yil kuzatilgan bemorlardagi stenokardiya.

b) beqaror stenokardiya - birinchi marta paydo bo'lgan stenokardiya.

v) avj olib boradigan stenokardiya.

g) xavf soladigan miokard infarkti holati.

Davolash – xuruj tutganda nitrogliserin qabul qilish tavsiya etiladi. Ruhan tez hayajonlanadigan shaxslarga sedative preparatlar, masalan: valokardin, (korvalol) bir qabuliga 25-30 tomchidan, seduksen (diazepam)ni kuniga 2 marta bir tabletkadan buyuriladi. Bemorlarga nitrobrikmalar (aminirat, natriy nitrat, sustak, erinit, nitrong) kalsiy antagonistlaridan (verapamil yoki izoptin, diftil yoki korontin).

Profilaktikasi – etiologik (ateroskleroz, gipertoniya kasalligi va boshqa) hamda stenokardiya paydo bo'lishiga imkon beradigan omillarni bartaraf etish va o'z vaqtida davolash, iqtisodiy sog'lomlashtiruvchi tadbirlar (sport fizkultura bilan shug'ullanish organizmni chiniqtirish) o'tkazish chekish, ichkilikbozlikka, ko'p ovqat is'temol qilishga qarshi kurash, oshxona va oilada ham normal ruhiy sharoit yaratish va boshqalardan iborat.

Lug'at

Mitral kalapan yetishmovchiligi – недостаточность митрального клапана

Zo'riqish – напряжение

Yurak sohasi - область сердца


Ko'krak qafasi – грудная клетка

Xuruj payti – приступ

Ruhan tez hayajonlanadigan – вспыльчивый

I-topshiriq. Matnlarni o'qib, kasalliklarning o'ziga xos tomonlarni ko'rsating.

II-topshiriq. Plaster usuli “Yurak” atamasiga bog'liq bo'lgan tibbiy atamalarni toping.



III-topshiriq. “Yurak kasalliklari” mavzusida berilgan matnlar asosida asosiy tushunchalarni tezis shaklida yozing.

RAVISH (НАРЕЧИЕ)

Наречие – часть речи, которая обозначает признаки действия и качества реже предмета и выступает в предложении в роли обстоятельства.

Наречия в узбекском языке делятся на следующие группы: 1. Наречия образа действия. 2. Наречия меры и степени. 3. Наречия времени.

4. Наречия места.

Ish – harakatning qay holda bajarilishini, paytini, o'rnini, daraja-miqdori, maqsadini bildiradigan mustaqil so'z turkumi **ravish** deyiladi. Ravishlar qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Majlis kechroq tugadi. Bemor tez-tez yurib keldi.

Ravishlar ko'pincha fe'lga bog'lanib keladi.

Ravishlar ma'no va grammatika xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Holat ravishi. 2. Miqdor va daraja ravishlari. 3. Payt ravishi. 4. O'rin ravishi.

1-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Когда я пришёл в больницу, уже тебя не было. Откуда ветер, оттуда и счастье. Как только Хидоятов начал лекцию, студенты с большим интересом слушали его. Под вечер я пью лекарство, которое назначил врач.

2-mashq. Quyidagi gaplardan ravishlarni toping.

1. Kursdoshim Olimjon tez va oson davolaydi.
2. Hozirda tibbiyotda transplantasiya usuli kirib keldi.
3. Karim kasalxonadan kecha qaytdi.
4. Yozda fizioterapiya qabul qilish yaxshi samara beradi

3-mashq. Dialogni davom ettiring.

Sasha: - Kel, kiraver Shaxnoza

Shaxnoza: - Salom, Sasha. Sendan "Gistologiya" fanidan albomga chizgan rasmlaringni ko'rmoqchi edim. Ruxsat berasanmi?

Sasha: - Albatta. Albomda _____ chizilgan.

Saxnoza: - Menda ham _____ kabilarning rasmi chizilgan. Kechqurungacha o'tirib kecha chizib ugatdi.

Mavzu: "Hamshira va bemor muloqoti haqida"



Hamshiraning bemor bilan yaxshi munosabatda bo'lishini barcha tibbiyot muassasalarida kuzatish mumkin. Buning boisi shundaki, hamshira hamisha bemor bilan yaqin muloqotda bo'ldi.

Hamshiraning serqirra faoliyatini hisobga olib bemor bilan hamshira o'rtasidagi munosabatlar quyidagi bosqichlarga bo'linadi.

1. Boshlang'ich
2. Kengaytirilgan
3. Yakuniy

Boshlang'ich bosqichda bemor va hamshira bir-birlari bilan tanishadilar.

Kengaytirilgan bosqichda davolovchi va davolanuvchi bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar.

Yakuniy bosqichda qiyinchilik bemorni kasalxonadan chiqarish vaqtida yuz beradi, chunki bemor o'zini kasallik xavfidan qutqargan joydan ketishdan qo'rqadi va tinchligi buziladi.

Shuning uchun bemor kasalxonadan chiqishga tayyor bo'lishi kerak.

Hamshira shaxsi, ishlash uslubi, bemor bilan til topish, bilish mahorati, psixologik jihatdan ishlash texnikasi – bemorning hammasi o'z-o'zidan darmon bo'lib xizmat qiladi va xavotirlikdan xalos qiluvchi ta'sir ko'rsatadi

Hamshiraning tarbiyaga hamda tushuntirish ishlarini olib boruvchi kasbkor egasi hisoblanadi. Davolash muassasasida bemorni qabul qilish, kelgan vaqtdan boshlab unga kerakli ma'lumotlarni berish, kasalxona kun tartibi bilan tanishtirish, vrach tomonidan amalga oshiriladi.

I. NAMUNA:

Travmatologiya bo'limi. Eshik to'g'risida stol, stul, vrach stoli, uning qarshisida yana 1 ta stol, stul va hamshira stoli. Bo'lim o'ziga mos jihozlar bilan ta'minlangan. Soat 11 lar chamasi. Bir bemor kirib keldi va hamshiraga murojaat qildi:

- Assalomu alaykum. Kechirasiz kimga murojaat qilay?
 - Labbay keling, Xo'sh sizni nima bezovta qilyapti?
 - Qo'lim qaltis yegan, yiqilgan edim. Mana shu joyi og'riydi. Qo'limni ko'tara olmayman. Ayniqsa kiyinishda azob yeyman.
 - Bunga necha kun bo'ldi? Qachon yiqilgan edingiz?
 - Kecha tushlikka yaqin bir og'ridi-yu, shu bilan o'tib ketadi deb e'tibor qilmasam, haligacha og'riyapti.
 - Shish paydo bo'ldimi? Ko'kargandir?
- Sinmaganmi ishqilib?
- Sinmagan bo'lishi kerak, buni rentgen orqali aniqlaymiz.
- Bir oz vaqtdan so'ng...

- Mana rentgen javobi.
- Hech narsa bo'lgani yo'q. Bo'g'imlaringiz kengaygan, xolos. Iloji bo'lsa tuxum bog'lab shu qo'lingiz bilan ish qilmaslikka harakat qiling. Og'ir ko'tarmang.
- Raxmat sog' bo'ling. Ishlaringizga muvaffaqiyat.
- Xayr sog' bo'ling.

II. NAMUNA:

Bemor: - Assalomu aleykum, kirish mumkinmi?

Hamshira: - Assalomu aleykum, kiring marhamat! Sizni nima bezovta qiliyapti.

Bemor: - Meni shu peshonamda kuchli og'riq, burnimdan, suv oqishi, ko'zlarimda qizarishlar bor.

Hamshira: - Tushunarli. Oilangizda biron kishida bundan oldin shunday shikoyatlar bo'lganmi.

Bemor: - Yo'q

Hamshira: - Qachondan beri siz o'zingizni kasal deb bilasiz. Bundan oldin shu shikoyatlar sizda kuzatilganmi?

Bemor: - Yo'q, ana shu bir hafta bo'ldi. Avval menda bunday shikoyatlar kuzatilmagan.

Hamshira: - Men sizni tushundim. Sizda kuchli burun sohasida shamollash bor.

Siz uy sharoitida kechqurunga oyoqlaringizga xantalma qo'ying – 20 daqiqa, ingolyatsiya qilishingiz mumkin. Yana bir tavsiyam bor albatta vrachga uchrashingiz shart. Chunki vrach siz boshqa muolajalarni tavsiya etadi. Shunda siz bu shikoyatlaringizdan tezda xalos bo'lishingiz mumkin.

Bemor: - Sizga katta rahmat! Men albatta vrachga hozir borib uchrashaman. Sog' bo'ling.

Hamshira: - Yaxshi qoling

III. NAMUNA.

Bemor: - Assalomu aleykum, hamshirajon kirish mumkinmi?

Hamshira: - Valeykum salom, keling nima bezovta qilyapti?

Bemor: - Uch kundan beriharoratim yuqori darajada, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi kuzatiliyapti.

Hamshira: - Ko'ngil aynishi qusishga olib keladi. Kuniga necha marta ichingiz ketadi?

Bemor: - 3-4 marta. Men kundan-kun holsizlanib, uyqim buziliyapti, qornimning chap tomoniga ham og'riq kuchayapti.

Hamshira: - Bemorning terisini shilliq qavatlarini tekshirib ko'ramiz. Tekshirganda teri oqimtir, quruq, yuzlari najot istayotganday ko'rinishini ko'ramiz. Bemorning lablari quruq, yorilgan, ko'zlari ichiga botgan holda.

Bemor: - Hamshirajon meni shunday davolanki, tezda tuzalib ketay.

Hamshira: - Eng avvalo parhezda e'tiborli bo'ling. Parhezga tayaning, ko'proq suyuqlik iching. Regidron, glyukosalar, uy sharoitida qand-tuzli eritma iching.

Buni qaynatib sovutilgan suv + 40 gr oqqand kukuni 15 gr tuz + 2,5 choy qoshiq ichimlik sodasi qo'shib tayyorlanadi. Vitaminoterapiya olishingiz kerak.

250 - 500 mg askorbin kislota, 20 mg nikotin kislotasi, 50 mg Vitamin B₁, 15-20 mg Vitamin B₂, 50-100 mg Vitamin B₁₂ oling.

Ertaga kelsangiz oshqozoningizni yuvamiz.

Bemor: - Unday bo'lsa hozirdan bu dorilaringizni ichib, parhezga amal qilishni boshlayman. So'ngra ertaga yana kelaman. Sizga katta rahmat.

Hamshira: - Omon bo'ling.

Hamshira bilan shifokor.

Klinikada hamshira bilan shifokorning muloqoti. Shifokor har ertalab bemorlarni ko'rikdan o'tkazadi va hamma ma'lumotlarni tashxis varaqasiga yozib boradi. Shundan keyin shifokor hamshiraga topshiriqlar beradi. Masalan, bir bemorning ahvoli juda og'irlashib boraveradi. Hamshira darhol shifokorga darak beradi. Shifokor buni oldini olishi shart. Hamshira buyurgan vazifani bajaradi va yordamlashadi. Bemorga shifokorning buyrug'i bo'yicha hamshira ukol va barcha muolajalarni o'tkazadi. Shifokor esa buni kuzatib, ya'ni bemorning ahvoli o'zgarishini kuzatib boradi.

Dialog (bosh hakim va shifokor o'rtasida)

Bosh hakim jarroh shifokorni chaqirdi.

- Xo'sh, doktor bugungi ish rejalarangiz qanday?
- Bugun ikkita operatsiya rejalashtirganmiz.
- Rejadan tashqari bir bemor kelib qoldi, zudlik bilan operatsiyaga tayyorlaning.
- Xo'p bo'lmasa rejadagilarni orqaga suramiz.
- Yaxshi men bemorni operatsiyaga olib kiraman.
- Soat nechaga operatsiyangiz tugashi mumkin?
- Operatsiya kamida bir soat davom etadi.
- Unday bo'lsa operatsiya natijasini kuzating va muolajalar bering.

Dialog (hamshira va shifokor o'rtasida)

- 1- xonadagi bemorga "Diklofenak" qilindimi?
 - Ha, doktor keyingi inyeksiya muolajasi ta'siri juda kuchli bo'ldi.
 - Qon bosimi qanday?
- Qon bosimi joyida, o'lchab turibmiz.
- Raxmat kunduzgi muolajalarni davom ettiring.
 - Unday bo'lsa siz menga shu bemorning kasallik tarixini keltirib bering.
 - yaxshi hozir olib kelaman.

Dialog (bo'lim boshlig'i hakim va navbatchi shifokor)

- Navbatchi shifokor bo'lim boshlig'iga hisobot beryapti.
- Bugun kechqurun ikki bemor og'ir ahvolda olib kelindi.
- Ko'rilgan choralar haqida gapiring.
- biri operatsiya qilindi, ranematsiya bo'limiga o'tkazildi.
- Ikkinchisi nima bo'ldi?
- Ikkinchi bemor 7 - xonaga joylashtirildi va muolajalar boshlangan.
- Operatsiya joyini tekshirib bitishini kuzating.
- Aytgancha 7- xonadagi bemorning ahvolini tekshirib, unga ko'proq glyukoza qo'yilsin.

Lug'at

Hamshira – Медсестра

Bemor – Пациент

Burun sohasining shamollashi (yalig'lanishi) – Воспаление в области носа

Burun sohasini bug' bilan davolash – Ингаляция


Xantalma - Горчичница

Grammatik mavzu.

Harakat nomi

Отглагольное имя действие образуется присоединением к положительной основе глагола аффиксов – sh (ish), - moq, -v , (uv:) havodan foydalanish, davolash, iste'mol qilish va boshqalar.

В современном узбекском языке отглагольное имя действие на – sh (ish) является активной формой и часто сочетается со словами kerak, lozim, uchun, mumkin. Например:



Mashq. Quydagi gaplardan harakat nomini toping va ruscha tarjimasini yozing.

Ovqatlanish – organizmning hayot faoliyatini ta`minlash salomatlik va ish qobiliyatini saqlab turish uchun zarur oziq moddalarini o`zlashtirish jarayoni. Inson tartib bilan to`g`ri ovqatlanishni odat qilib olsa, kasalliklarga kamroq chalinadi. To`g`ri ovqatlanish barvaqt qarib qolishning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ichki kasalliklar



Klinik tibbiyotning maqsadi kasalliklarning oldini olish, avj olgan kasallikni davolash va bemor kishining azob chekishini yengillashtirishdir.

S.P Botkin.

Tibbiyot fani va profilaktikasida ichki kasalliklar shuning uchun ham muhim o`rin tutadiki, ular juda ko`p uchraydi, ancha og`ir kechadi, ko`p hollarda esa kishining hayotini xavf ostiga qoldiradi. Ularning kishi sog`ligi va ish qobiliyatiga keltiradigan zarari ayniqsa kattadir. Shuning uchun ham ichki kasalliklarga qarshi kurash so`g`liqni saqlash ishining asosiy va yetakchi vazifalardan biridir. Ichki kasalliklarni o`rganish boshqa jihatdan ham muhim. Ularni bilmay turib, vrach qaysi ixtisoslikni tanlab olmasin, u umuman ishlay olmaydi. Tibbiyot fani rivojlanib borgan sari ichki tibbiyotda ham, xirurgiyadan ham ayrim sohalar: asab, nerv kasalliklari, teri kasalliklari, yuqumli kasalliklar, ko`z kasalliklari, burun, tomoq va quloq kasalliklari, og`iz bo`shliq kasalliklari (stomatologiya), siydik tanosil kasalliklari (urologiya) va boshqa sohalar ajralib chiqadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda ichki tibbiyotning chegaralari bir muncha aniqlandi va umumiy (xirurgiyasiz) tibbiyotdan ko`proq ichki organlarda uchraydigan kasalliklar haqidagi fanga aylanadi.

Kasallikning to`g`ri klassifikatsiyasi faqat anatomik prinsipga emas, balki kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda kasallik organizmda qanday va funksional o`zgarishlar paydo qilishini belgilashda, ya`ni pat.fiziologik prinsipga ham asoslanishi zarur.

Klinikada ichki kasalliklarni o`rganishda quyidagi asosiy bosqich omillari inobatga olinadi:

- 1) bemorni tekshirish usullari (diagnostika);
- 2) shu usullar yordamida aniqlangan kasallik belgilari va simptomlari (simptomatologiya yoki semeotika) baholash;
- 3) kasallik sababini aniqlash (etiologiya);
- 4) kasallik jarayoni avj olishning umumiy mexanizmini aniqlash (patogeneza);
- 5) patologiya, anatomik o'zgarishlarni qayd qilish;
- 6) bemorning taqdiri haqida xulosa chiqarish (oldindan aytish yoki prognoz);
- 7) bemorni davolash choralarini ko'rish (terapiya)
- 8) kasallikning oldini olish uchun chora tadbirlar ko'rish (profilaktika).

Asboblarda yordamida va laboratoriya usullarida tekshirish, bemorni tekshirishdan bevosita bizni uzoqlashtirib yubormaydi, degan mulohazalar tamoman asoslidir. Bemorni to'g'ridan - to'g'ri oddiy usullar bilan sinchiklab tekshirish ham zarur albatta. Lekin diagnostikani takomillashtirish uchun laboratoriyada va asboblarda yordamida tekshirishlarni keng qo'llashning juda katta imkoniyati borligini hech kim inkor eta olmaydi. Kasallikni aniqlash bemorni davolashning asosiy yo'lidir. Simptomlar haqidagi fan semeotika ham shu maqsad uchun xizmat qiladi. Ayrim klinisistlar simptom - sindromlar yig'indisiga alohida ahamiyat beradilar. Ular hatto klinik nozologiya (nozologiya-kasalliklar haqidagi fandir) asosiga sindrom prinsipini qo'yadilar. Bunday fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki klinikada bizning simptom va sindromlarni o'zi emas, balki ularni yordamida kasallik mohiyatini aniqlab olish qiziqtiradi. Hakimning asosiy vazifasi burchi kasalni davolashdir. Butun tibbiyot fani shu muhim va oliyjanob vazifani ado etishga xizmat qiladi.

Lug'at

Ichki kasalliklar – внутренние болезни

Asab – нервы

Funksional o'zgarish – функциональное изменение

Sababini aniqlash – найти причину

I-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

1. Nima uchun ichki kasalliklar tibbiyotda keng qamrovli bo'lib qoldi?
2. Klinikada ichki kasalliklarni o'rganishda qaysi omillar inobatga olinadi?
3. Semeotika fani tibbiyotda qaysi sohani o'rganadi?
4. Hozirda kasallikka qarshi kurashda ko'proq qaysi davo choralari qo'llanilmoqda?

II-topshiriq. Vaziyatli masala

1. Bemor tez-tez aksiradi, bu aksirish mavsumiydir. Badanda ba`zan toshmalar chiqadi. Ko'pincha paxta gullash paytida bu holat takrorlanadi. Bemorga qanday tashxis qo'yar edingiz?

2. Yoshim 50 dan oshgan. Kechalari tez-tez bezovta bo'laman. Siydik chiqarish paytida og'riq beradi. O'zimni lanj, doimo horg'in his qilaman. Sizda _____ boshlangan.
3. Bemor 47 yoshda shikoyati. Boshqa og'riq, tamoq qurishi, quloqda shang'illash, qizarib ketish, ko'z skelaradagi tomirlar kengaygan, holsiz. Sizning tashxisingiz?

Grammatik mavzu

Sifatdosh – Причастие

Причастие – это неспрягаемая форма глагола, которая обозначает признак предмета, протекающий во времени и объединяет в себе свойства глагола и прилагательного.

В узбекском языке причастие обладает следующими признаками глагола: а) переходностью – не переходностью б) положительностью – отрицательностью (ishlagan, ishlamagan) в) временем (gapirgan, gapirayotgan).

Mashq. Quyidagi fe'llardan sifatdoshlar yasang.

Qilmoq, bajarmoq, aytmq, ko'rmoq, yozmoq.

Narsa hodisalarning sifat xususiyatlari haqida suhbat.



Olma

Olmalar olma turkumiga mansub daraxtlar bo'lib, O'zbekistonda ularning 6ta turi bor. Shulardan 3 tasi yovvoyi, 3 tasi esa madaniy turlardir.

Olmaning bargi oddiy, bujun. Gullari oq, pushti yoki och pushti, bo'lib, qalqon to'pgulga o'rnanishgan. Urug'chisi 5 ta, tugunchalari bir-biri bilan qo'shilib ketgan. Shunga ko'ra gulning formulasi quyidagicha bo'ladi: $K_5T_5CH_5$. Bundan tashqari olma gulining tuguni ostki.

Nok

Nok gul va mevalari bilan olmaga o'xshaydi, lekin mevasining etida tosh hujayralari borligi uchun olmadan farq qiladi. O'zbekistonda nok turkumiga oid 7 tur bor. Bulardan 3 tasi yovvoyi holda o'sadi. Ular asosan tog'larda tarqalgan, olmurut deb yuritiladi. Qolgan 4 tasi madaniy tur bo'lib, bulardan ko'p tarqalgani oddiy nokdir. Shuningdek ra'noguldoshlar oilasiga do'lana turkumi ham kiradi.

Do'lana

Do'lananing mevasi 1-5 urug'chibargning qo'shilishidan hosil bo'lgan, shuning uchun 1-5 danakli bo'ladi.

Tog' olcha va olxo'rilar olxo'ri turkumiga mansub daraxt va butalardir. Bularning barglari ham oddiy, lekin guli va mevasining tuzilishi tobulg'I, na'matak va olmalarnikidan biroz farq qiladi.

Anjir

1. Anjir mevasi va qoqisidan tayyorlangan damlama yo'talni to'xtatishga, balg'am ko'chishiga yordam bersa, anjir sharbati bilan asal omoxtasi ko'z shamollashida foydalidir.

2. Anjir damlamasi bilan tomoq shamollaganda g'arg'ara qilinsa, ijobiy natija beradi.

3. 100 gr quruq anjir mevasiga 2 stakan qaynoq suv quyiladi, past olovda 15 daq. davomida qaynatiladi, 1-3 soatcha qo'yib qo'yiladi va suziladi. Kuniga yarim stakandan 2-3 mahal ovqatdan oldin yo'talga qarshi davo sifatida ichiladi.

4. Anjir haqida Ibn Sino shunday deydi: “Anjirning xomini, shuningdek bargini xol, so’gal va bularning har xil turlariga, dog’larga surtiladi. Uni yeyilsa kasalliklar sababli buzilgan rangni tuzatadi hamda chipqonlarni pishiradi.”

...ho’l va quruq anjir tutqanoq kasaliga foydalidir.

Anjirning ho’li va qurug’i tomoq qirilishiga hamda ko’krak va o’pka yo’llariga foyda qiladi.”Anjirning sharbati sutni ko’paytiradi”.

Anor

1. Anor mevasi po’stlog’ining kuli sariyog’ yoki mol yog’I bilan yaxshilab aralashtirib surtilsa, teridagi yiringli yaralarni tuzatishga yordam beradi.

2. Anor po’stlog’idan tayyorlanadigan qaynatma og’iz bo’shlig’ining yallig’lanishida davo bo’ladi.

3. Anor, olma, behi, limon, otquloq, oshqovoq, nilufar va kashnichni teng miqdorda aralashtirib qaynatib, uning quyuvq sharbatiga asal qo’shib iste’mol qilinsa safro qusish, ko’ngil behuzur bo’lishi va tinka qurishidan qutulish mumkin.

Anor haqida Ibn Sino shunday deydi:

“Anorning urug’i asal bilan birga til va quloq og’rig’iga foyda qiladi hamda burun ichiga surtiladigan doridir. Anorning urug’ini yanchib asal bilan qo’shib, og’iz og’riganda surtilsa foyda qiladi.

Shirin va achichiq anorning siqib olingan suvini asal bilan qo’shib bir necha kun oftobga qo’yilsa, ko’zdagi haroratga kunduzi ko’rmay qolishdan foyda qiladi.

Anor urug’ini yomg’ir suvi bilan qo’shib ichilsa, qon tupirishda foyda qiladi.

Anorning hamma turlari xafaqonga foyda qiladi va shirini ko’ngil ochadi.

Anorning nordon shiriniga qaraganda siydikni ko’proq yurishtiradi, umuman ikkalasi ham siydik haydovchidir”.

Asal

1. Asal me’da ichak kasalliklarida, meda va o’n ikki barmoq ichak yarasi, ich ketishi, qabziyat hamda jigar o’t qopi xastaliklarida yallig’lanishni qaytaruvchi, hujayralarni tiklovchi davodir.

2. Asal yurak mushagini, jigar hujayrasini bamisoli sug’oradi, oziqlantiradi. Natijada yurak va jigar faoliyati oshadi.

3. Asal nafas yo’llari, o’pka kasalliklarida ham keng qo’llaniladi. Ko’krak yumshaydi, balg’am oson ko’chadi. Yo’tal kamayadi nafas ravon bo’ladi.

4. Asalni saratonda choy bilan ichish, chanqoqni bosibgina qolmay, kishini ruhan jismonan tetik qiladi, yurak miya faoliyatini tiklaydi.

5. Asalni o’z vaqtida o’z me’yorida iste’mol etib yuradigan bemorning qonida gemogloblin, yuzida rang bilagida kuch, ko’zida nur paydo bo’ladi.

6. Asalni katta kishilarga kuniga 100-200 gr miqdorda ravo ko'riladi. Erta nahorda 30-60 gramm, peshinda 40-80 gramm, kech paytda 30-60 gramm yeyish mumkin. Asalni ovqatdan bir-bir yarim soat oldin, ovqatdan uch soat keyin ichiladi

Behi

1. Behi mevasi sharbati bilan astma, yurak sanchig'i, sariq, hiqichoq, qorin og'rig'i, dizenteriya kasalliklari davolanadi.
2. Behidan bedarmonlik, kamqonlik yo'tal, me'da, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi.
3. Behi urug'i bilan uzum sharbatining qaynatmasi kamqonlikda, bavoil kasalliklarini davolashda yaxshi ta'sir qiladi.

Behi haqida Ibn Sino shunday deydi:

Behi sharbati me'dani kuchaytiradi va balg'am qusishini to'xtatadi.

Siqib olingan suvi astmada foydalidir, u qon tuflashni ham to'xtatadi. Behi terni to'xtatadi. Uning yog'i sovuqda yorilganga foyda qiladi. Qo'rga ko'mib pishirilgani issiq shishlarga qo'yiladi.

Agar behi ovqatdan keyin yeyilsa, ichni suradi, ko'proq yeyilsa, ovqatni hazm bo'lishidan oldinroq chiqarib yuboradi.

4. Behi sharbatini tayyorlash uchun shirin va nordon behidan 400 gramm olib, maydalab bir litr suvda qaynatiladi, ustiga 100 gramm binafsha guli qo'shib qaynatish yarim soatcha davom ettiriladi. Sovutilgandan keyin dokada suziladi, va 100 grammiga 50 grammdan asal qo'shib yana qaynatiladi, zanjabilni dokada o'rab bir necha daq.ga solinadi, so'ngra dolchin, zanjabil olinib qaynatma sovutiladi.

5. Behi barglari va yosh novdalaridan qand kasali, qon bosimini davolashda keng foydalaniladi. Buning uchun barglari va yosh novdalarini gullash davrida olib, salqin yerda quritiladi. 1-2 osh qoshiq barg va novdaning yanchilgan kukunidan olib, 1 stakan (300ml) suv qo'shiladi va past olovda 15 daq. qaynatiladi, sovutiladi, dokadan o'tkaziladi. Bir choy qoshiqdan kuniga uch mahal ichiladi.

Lug'at

Anjir – инжир

Damlama – настой

Anor – гранат

Po'stloq – кожура

Oshqovoq – тыква

Urug' – семена

Sharbat – сок

Qaynatish – кипятить

Novda – побег

Yomg'ir suvi – дождевая вода

I-topshiriq. Savbollarga javob bering.

1. Narsaning sifat xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Muammoli vaziyat mevalarning shifobaxshligi nimada?

3. Anjir va anordan qaysi kasalliklarda davo sifatida foydalanishadi?
4. Yana qaysi mevalarni shifobaxsh deb aytardingiz?

II-topshiriq. Quyidagi bemorlarning kasallik belgilariga qarab, qaysi shifobaxsh mevalardan tavsiya qilardingiz?

1. Tez-tez yo'talaman, ba'zan surunkalab davom etadi. Nafas olganda xirrilash eshitiladi.
2. Badanda toshmalar paydo bo'ldi. Asta-sekin qichib, yara bo'ldi. Ko'payib ketmasin deb qo'rqayapman.
3. Doim o'zimni horg'in his qilaman. Boshim tez-tez og'riydi.
4. Tez-tez ichim qotib, bezovta bo'laman. Qorin tomonda og'riq sezaman.

III-topshiriq. Yuqorida berilgan kichik matnlarni bir-biriga qiyoslab, mazmun mohiyatida qanday farqlar borligini aniqlang.

1-mashq. So'z birikmalari ishtirokida gap tuzing.

I. Noshud (bola), baqaloq (kishi), xipcha (bel), chalkash (ish), zaxkash yer; yuqori martabali (odam), yumshoq ko'ngilli (rahbar), katta-kichik (qovun).

II. 1. Nega u yalinchoq mushuk bolasidek hadeb suykala beradi? 2. Tirishqoq yigitga yordam berishga harakat qilishardi. 3. Bo'lajak san'atkorlar bahslashardi. 4. Qoyalarga, asriy qoyalarga o'xshaydi ular. 5. Ro'parasida kul rang bino savlat to'kib turardi.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Sifat darajalarini ko'rsating.

1. Sava – chumchuqqa qaraganda kichikroq qush. 2. G'urrak savadan kattaroq, kaptarga qaraganda eng kichik qushdir. 4. Qirg'ovul esa ularga nisbatan eng katta qushdir.

Savollar.

1. Ra'noguldoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarning gul tuzilishi qanday?
2. Olmaning gul formulasini yozing hamda tushuntiring.
3. Ra'noguldoshlar oilasiga mansub qanday o'simliklarni bilasiz?
4. Shu oilaga kiruvchi yovvoyi o'simliklarni ayting.
5. Bu mevalarning odamlar hayotidagi o'rni qanday?

Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar.

Reja:

1. Bolalarda uchraydigan o'tkir ichak infeksiyalari:
 - a) Dizenteriya.
 - b) Sal'monellez.
- 2) Bolalarda havo yo'li bilan yuqadigan kasalliklar:
 - a) Gripp.
 - b) Qizamiq.

Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar.



O'tkir ichak kasalliklarning tarqalishi asosan ayrim onlarda bolalarni parvarish qilishda shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilmasliklari, sanitariya bilimidan yetarli boxabar emasliklari natijasida yuzaga keladi.

Ba'zan bolalarga qaraydigan odamlar gigiena qoidalariga puxta rioya qilmasalar, xususan hojatxonadan chiqqanlaridan keyin qo'llarini sovunlab yuvmasalar, mikroblar surgichga, o'yinchoqlariga va bolaning boshqa narsalariga tushadi, bola esa ularni og'ziga solib, kasallikni yuqtiradi.

O'tkir ichak infeksiyalari keng guruhdagi kasalliklardir. Bu kasallik mikroblari odam organizmiga og'iz orqali tushib, ichaklarda rivojlanganda paydo bo'ladi. Dizenteriya, sal'monellez, kolinifeksiya, ich terlama, parativlar, vabo va boshqalar ichak infeksiyalariga kiradi.

Dizenteriya- juda yuqumli kasallik bo'lib, uni dizenteriya tayoqchalari keltirib chiqaradi. Dizenteriya paydo qiladigan mikroblar umumiy nom bilan- Flekser Zonne, Shtuser- Shmits, Grigor'ev- Shiga bakteriyalari deb ataladi. Bunda meda va ichakning ingichka bo'limi zararlanadi.

Bemor dizenteriya kasalligi bilan og'rib qolganda tana harorati ko'tariladi, bemorning tez-tez hojatga borgisi keladi, lekin ichi oz-ozdan bir kecha kunduzda 10-15 marta, ba'zan 20 martagacha shilliq va qon aralash ketadi. Dizenteriya bo'lib qolgan bola hojat paytida ba'zan bezovta bo'ladi, yig'laydi, kuchanganidan yuzi qizarib ketadi. Oradan bir ikki kun o'tgach ich ketishi to'xtaydi, Kasallikning yengil o'tishiga qaramasdan, bu xilda kechadigan dizenteriya ba'zan xavfli bo'ladi. Dizenteriya bo'lib qolgan bemor vaqtida vrachga bormasa va yaxshi davolanmasa, rejimga rioya qilmasa, kasallik asorat berib, xronik kechadigan bo'lib qolishi mumkin. Bunda ichak shilliq pardasida ba'zan asliga kelmaydigan chuqur o'zgarishlar yuzaga keladi.

Sal'monellezlar- o'tkir ichak infeksiyalarining keng tarqalgan katta guruhi bo'lib, ularni salmonella, turkumidagi mikroblar guruhi keltirib chiqaradi. Kasallik manbai bemor yoki bakteriya tashuvchi, shuningdek sal'monellalar tushgan oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Bu kasallik bilan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar ko'p og'riydi. Kasallikning yashirin davri odatda bir necha soatdan 2-3 kungacha davom etadi. Ko'pincha kasallik o'tkir boshlanadi. Bola tinmasdan bir necha martalab qusa boshlaydi.

Kasallikning dastlabki kunlarida bemorning ichi kelmay qolishi mumkin keyin sutkasiga 15-20 marta ichi ketadi. Bemorning ichi suvdek suyuq ketadi. harorati 30-40 gacha ko'tariladi, organizm tez orada suvsizlanib qoladi. Terisi oppoq, kulrang tus oladi. Yonoq suyaklari turtib chiqib, ko'zlari kirtayib qoladi. Bunday hollarda shoshilinch medisina yordami uning hayotini saqlab qolishi mumkin.

Septik tur asosan yangi tug'ilgan bolalarda kuzatiladi. U qattiq isitmalash va turli organlarda yiringli uchoqlar rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. (meningit, artrit, osteomelit vxk) Tifoit ancha kam uchraydi, u ro'yirost isitmalash bilan kechadi, kechishiga ko'ra ich terlamani eslatadi.

Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar:

Gripp

Gripp juda keng tarqalgan o'ta yuqumli kasallik hisoblanadi. Grippni filtrlanuvchi viruslar deb ataladigan nihoyatda mayda mikroblar qo'zg'atadi, uni faqat 40-60 ming marta kattalashtiradigan maxsus elektron mikroskopda ko'rish mumkin. Gripp virusining A,A1,A2,B,C turlari tafovut qilinadi. Gripp virusi tashqi muhitda quyosh nuri, yuqori harorat quritish va dezinfeksiyalovchi vositalar ta'sirida tez o'tadi.

Infeksiya manbai bemor odam hisoblanadi, u gaplashganda, yo'talganda, aksirganda gripp viruslarini tarqatadi. Xususan, kasallikning dastlabki kunlarida bemor juda yuqumli hisoblanadi. Kasallikni oyoqda o'tkazadigan bolalar xavfli bo'ladilar. Ular bolalar bog'chalariga, maktablarga borib kasallikni boshqalarga yuqtiradilar. Kasallikning yengil yashirin turlari uning keng va tez tarqalishiga sabab bo'ladi. Bemor bilan yaqin bo'lganda, uning sochig'idan, idish- tovoqlaridan, dastro'molidan foydalanganda kasallik yuqib qoladi. Bunda harorat 39-40°C ga chiqib bola titrab qaqshaydi, butun vujudi, bo'g'imi qaqshab og'riydi, bola hatto xushidan ketishi, talvasa tutib qolishi mumkin. Bolaning ahvoli birdan og'irlashadi, holsizlanadi, ishtahasi yo'qoladi. Katta bolalar yutinganida tomoqlarining qirilishi, og'rishidan shikoyat qiladilar, tomoq qizarib og'iz bo'shlig'i shishadi burni bitib kalta-kalta, quv-quv yo'taladi. Bolaning rangi oqarib ko'zining tagi ko'karadi, ko'zlari yaltirab turadi, konyuktiva shishadi, ko'zidan yosh oqib, yorug'likka qaray olmaydi. Lablari quruq, tanglayi, tili, halqum orqa devori qizaradi. Kasallikning birinchi kuni kasallik belgilari aniq bo'lib qoladi. Harorat esa 4-5 kungacha tushmaydi. Grippni davolashda antibiotiklar va sulfamidlar (penisillin, streptomitsin, levomisin, tetrasiklin) gruppasidan foydalaniladi.

Grippning juda og'ir turida nerv, yurak- tomir sistemasi, nafas organlari, meda ichak yo'li va boshqalar zararlanadi.

Kasal bolalarga qaynagan sut, limon choy, murabboli choy, meva sharbatlari, servitamin ovqatlar, salatlar eb turishi tavsiya qilinadi.

Qizamiq (корь)

Qizamiq - o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, qadim zamonlardan ma'lum. Qizamiq bilan kasallanish bolalar o'rtasidagi yuqumli kasalliklar ichida dastlabki o'rinda turadi. Qizamiq bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar uchun ayniqsa og'ir o'tadi va o'z vaqtida kasallikka davo qilinmasa bolalar o'limiga sabab bo'ladi.

Qizamiq virusi elektron mikroskop ostida ko'rinadigan nihoyatda mayda mikroorganizm. Qizamiq virusi tashqi muhitga chidamsiz. Havoda kunduzgi yorug'likka, so'lak tomchisi 30 minut ichida o'ladi. qizamiq manbai shu kasallik bilan og'rigan bemorlar hisoblanadi. U inkubasion(yashirin) davrining oxirgi kunlarida va kataral davrida yuqumli bo'ladi. Infeksiya havo- tomchi yo'li bilan yuqadi. Qizamiq virusi burun-halqum, yuqori nafas yo'llari, shilliq pardalari shillig'ida bo'ladi va gaplashganda, aksirganda, yo'talganida, bola yig'laganida, shilliq zarralari bilan havoga tushib sog'lom odamga yuqadi. Kasallik juda yuqumli bo'lganidan bemor bilan bir lahza bo'lgandayoq yuqadi. Kasallik alomatlari birdan emas, balki infeksiya yuqqanidan keyin oradan 9-11 kun o'tgach paydo bo'ladi, bu yashirin davr deb ataladi.

Kataral davri

Kasallik tumov, aksa urish, bo'g'iq yo'talish bilan boshlanadi. Yuz ko'pchiydi, qovoqlar va lablar shishadi, ko'z yoshlanib turadi, keyin esa yiringlaydi, bemor bola yorug'likka qaray olmaydi. Harorat 38-39°C darajaga chiqadi, bosh og'riydi. Bosh shalvayib, injiq bo'lib qoladi, yaxshi uxlay olmaydi, ichi ketadi va qusadi, qorni og'riydi. Kasallik boshlangandan keyin 2-3 kun o'tgach lunj shilliq pardasiga, milkka oq dog'lar toshadi. Bu dog'lar faqat qizamiqqa xos bo'lib, Bel'sk-Filatov-qoplik dog'i deb ataladi.

Davolash

Kasallikning dastlabki alomatlari (yo'tal, aksirish, tumov, harorat) paydo bo'lganda bolani tezda o'ringa yotqizib, uyga vrach chaqirish zarur. Kasallikning o'tkir davrida bemor o'ringa yotishi zarur. Bemor yotgan xona yorug', yaxshilab shamollatiladigan va toza bo'lishi lozim. Xonani namlab artish zarur. Xona harorati 18-20°C bo'lgani ma'qul. Bola yotgan joyni ko'ziga yorug'lik tushmaydigan qilib qo'yish kerak.

Bolalarda uchraydigan virusli gepatit.

Gepatit A. Bolalarda gepatit A ning sariqsiz, subklinik va simptomlari yetarli bilinmagan xillari ko'proq uchraydi. O'tkir gepatitA ba`zan cho'zilgan formada o'tadi, ammo baribir surunkali formasi rivojlanmaydi. O'tkir gepatit A dan so'ng ba`zan gepatomegaliya kuzatiladi.

Davosi. Yengil gepatit A bilan kasallangan bolalarga dorilar berilmaydi. To'g'ri aniqlangan kun tartibi, parhez kifoya qiladi. oqsil, yog' moddalari va uglevodlarning bir-biriga nisbati 1:1:4,5 bo'lishi kerak. Uzoq muddatga oqsil va yog' moddalar miqdorini cheklash mumkin emas. Bemorlarga sut va sut mahsulotlari, sabzavot va ho'l mevalar ko'proq beriladi.

O'tkir gepatit B. Gepatit B ko'pincha 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Ayniqsa 6 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda gepatit B ko'pincha og'ir va ful`minant (yashin tezligida o'tadigan) shaklida o'tadi va ba`zan o'limga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich davri. Kasallik asta-sekin rivojlanadi, harorat ba`zan ko'tarilmaydi. Asosan asteno-vegetativ simptomlar aniqlanadi (bemor bo'shashaveradi, tez-tez charchaydi, tajang bo'laveradi, ishtaha bug'iladi). Keyinroq intoksikasiya kuchayib boradi, bemorning ko'ngli ayniydi, qusadi, harorat ko'tariladi, boshi og'riydi, qorni bezovta qiladi, ba`zan bemorning ichi ketadi, badaniga eshakemi toshadi. Ba`zi hollarda boshlang'ich davr simptomlari juda kam bilinadi. Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloq bolalarda kasallik ko'pincha tez rivojlanadi. Bola bezovtalanadi, harorati ko'tariladi, tez-tez emgan sutini qusib tashlayveradi.

Gepatit B ning og'ir shakli to'satdan boshlanadi, harorat yuqori bo'ladi, bemor qayta-qayta qusadi, uyqusi buziladi, ishtaha yo'qoladi, bemor ovqatga qaramaydi. Badanda geporragik toshma paydo bo'ladi.

Sariq davri boshlanishi bilan bemorning ahvoli og'irlashadi, intoksikasiya kuchayadi, badan sarg'ayadi va 3-4 hafta davom etadi. Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloq bolalarda intoksikasiya kuchliroq, sariq kamroq, katta yoshdagi bolalarda aksincha sariq ko'proq va intoksikasiya kamroq bo'ladi. Gepatit B og'ir o'tganda jigar va taloq anchagina kattalashadi, badanda gemoragik toshma ko'rinadi.

Virusli gepotitlardan so'ng hamma bolalar vrach nazoratida bo'ladi. Bu nazorat surunkali gepatitni o'z vaqtida aniqlash va boshqa xatarli oqibatlarini rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun kerakdir.

Lug'at

Yuqumli kasalliklar – инфекционные болезни

Xavfli – опасный

Dastro'mol – платочек

Qizamiq – корь

Kataral davri – катаральный период

Yo'tal – кашель

O'tkir gepatit – острый гепатит

I-topshiriq. O'qing. Berilgan matnlarni bir-biriga solishtirib har uchala yuqumli kasalliklarning o'ziga xos tomonlarini aniqlab, har biriga rezyume yozing

II-topshiriq. Quyidagi fikrlarni davom ettiring

1. Bemorning umumiy ahvoli _____, teri va ko'z oqining sarig'i yo'qolgach _____, hajmi qisqargach uyiga jo'natish mumkin. Bunday kasallik deb o'ylaysiz?
2. Toshma paydo bo'lgach _____ kun ajratib qo'yiladi. Kasallik boshlangach _____ kungacha bemor _____ yo'taladi. _____ virusi burun, halqum, yuqori nafas yo'llarida bo'ladi. Kasallik turini ko'rsating.

III-topshiriq. Dialogdagi tibbiy atamalarning izohli lug'atini tuzing.

Pediatr xonasida



Musayeva Nasiba Raximovnaning bolalar shifokori ya'ni pediatr xonasi 12-xonada joylashgan. Xona har tomonlama ya'ni bugungi kun davr talabiga javob beradigan tarzda shinam bezatilgan. Xonaning bir tomonida katta shkaf, uning yon tomonida bola bo'yini, og'irligini o'lchovchi maxsus asbob, kushetka, stol stullar bor. Asbob uskunalar ham bor, ular orasida: shpatel bankasi bilan harorat o'lchagich, fonendoskop, antropometr, hamda shkafda bolalar sog'lig'i bilan ko'rsatmalar. Xona devorlari ham juda chiroyli bezatilgan.

Qishki kunlarning birida o'zining 6 oylik farzandi bilan bemorning onasi Musayeva qabulida bo'ldi.

Ona: Assalomu alaykum.

Shifokor: Valeykum salom. Xush kelibsiz.

Ona: Bilasizmi doktor, ikki kundan beri mening farzandim juda bezovta, kechalari uxlamaydi, tuni bilan yig'laydi, hech narsani og'ziga olmaydi, ozgina isitmasi ham bor.

Shifokor: To'g'ri hozir qish payti. Ayni shu paytda juda ko'p bolalar shamollaydi. Keling men farzandingizni o'zim tekshirib ko'ray.

Nasiba Raximova bolani tekshirib ko'rib shunday xulosaga keldi.

Shifokor: Tomog'i qizargan ekan... Bu kasallik nomi ORVI. Ya'ni o'tkir respirator virusli infeksiya.

Ona: Kechirasiz bu jiddiy emasmi?

Shifokor: Xavotir olmang, hechqisi yo'q. Hozir men sizga kerakli dori-darmonlarni yozib beraman. Dorilarni borib dorixonadan olasiz. Mana ko'ring men nimalarni yozib berdim.

“Panadol”- uni bir kunda 3 mahal bir choy qoshiqcha bilan berasiz.

Penicillin 500000 birlik 1ml novokain(1%eritma) bilan birga 5 sutka davomida har 6 soatda mushak orasiga yuboriladi. Hamda eng asosiysi turli xil meva va sabzavotlardan hosil bo'lgan suyuqliklar ichirib turing. Yo'tal “Bromgeksin” siropini ichirishingiz mumkin. Hozirdan bu kasallikni oldini olmasak, har xil asoratlarni keltirishi mumkin. Masalan surunkali bronxit yoki zotiljam.

Bu tavsiyalarni hammasini bajarib tursangiz hammasi yaxshi bo'ladi va farzandingiz bir hafta ichida sog'lom bo'lib ketadi. Bolangizni isitmasi bo'lsa demak immuniteti kuchli ekan chunki organizm kasallik bilan kurashayapti. Shuning uchun xavotirlanmang, bolangiz tez kunda sog'ayib ketadi. Lekin isitmasi ko'tarilishiga yo'l qo'ymang. Xavfsizlik uchun analiz topshirish kerak. Men yo'llanma yozib beraman, pastga tushib topshirasiz. Men javoblarini o'zim olaman. 5 kundan keyin menga uchrashishni unutmang.

Ona: Raxmat, men sizdan juda minnatdorman.

Shifokor: Mayli men sizni kutaman tavsiyalarni albatta bajaring. Kichkintoyingiz juda yoqimtoy ekan, tezda tuzalib ketsin.

Ona: Sog' bo'ling.

Ravishdosh

Ravishdosh Ish-harakatn holatning belgisini bildirib gapda ko'pincha kesim ba'zan hol bo'lib keladi.

Ravishdoshlar bo'lishli-bo'lishsiz, nisbatni bildiradi: aytib- bo'lishli, aniq nisbatda; yozdirmay - bo'lishsiz, orttirma nisbat.

Ravishdosh ma'noga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Holat ravishdoshlari: **-b, -ib, -a, -y, -gudek** qo'shimchalari orqali yasaladi: o'qib, aytib, kula-kula, yig'lagudek, sanay-sanay. Ravishdoshning bo'lishsiz shakllari **-may, -mayin** qo'shimchalari orqali yasaladi: bilib aytdi, bilmay aytdi.

2. Payt ravishdoshlari: **-gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha** qo'shimchalari bilan yasaladi. Masalan: Qosh qorayguncha odamlar o'z uylariga yetib oldilar.

Payt ravishdoshning bo'lishsiz shakli **–ma** qo'shimchasi orqali yasaladi: borgach-bormagach, kelgach-kelmagach.

3. Maqsad ravishdoshi: **-gani, -kani, -qani, she'riyatda ba'zan –gali, -kali, -qali** qo'shimchalari orqali yasaladi. Masalan: Bolalar dam olgani toqqa chiqishdi. Yor ko'rgali kelganmiz.

MASHQ. Berilgan gaplardan ravishdosh turini aniqlang.

1. O'ychini o'yi **bitguncha**, tavakkalchini ishi bitadi. 2. Dilnoza dugonasini qiynalib **tushuntirayotganini** ko'rib achinib ketdi. 3. Ataylab ushbu ma'ruzani **tinglagani** keldim. 4. Yomg'ir **tingach**, osmonda kamalak paydo bo'ldi.

OLIY HAMSHIRALIK ISHI



Hamshiralik ishi tushunchasi mashhur ingliz tibbiyot hamshirasi Floryans Naytingyel tomonidan kiritilgan. U o'zining 1859 yilda parvarish haqida yozgan kitobida "Hamshiralik ishi – bemor tuzalishi uchun uning atrofida qilinadigan barcha xatti-harakatlar majmuidir", - deb yozgan.

Hozirgi zamonda hamshiralik ishi xalq sog'ligini saqlash tizimini salmoqli tarkibi hisoblanadi. Uning ko'лами keng va ko'p qirrali bo'lib, tibbiy sanitariya ishlarini va aholi salomatligini saqlash borasida atrof-muhitning zararli ta'siridan holi qilish kabi masalalarni qamrab oladi.

Hamshira faoliyatining asosida bemor bilan munosabat yotadi. U bemorning kasalligi tufayli kechirayotgan azob-uqubatlariга hamdard Hamshira faoliyatining asosida bemor bilan munosabat yotadi. U bemorning kasalligi tufayli kechirayotgan azob-uqubatlariга hamdard. Bir narsani ko'zda tutaylik: bemor shifokorni kuniga faqat bir necha daqiqa davomida ko'radi, faqat bir inson bemor bilan har doim yonma –yon hamda birga . Bu inson – hamshira. Hamshira shifokor ko'rsatgan yo'ldan bemorni yetaklab borib, uni sog'lomlik tomon kuzatadi.

Inson qiyofasiga ega har bir odamni yaxshi anglash uchun uni o'rganmoq kerak. Har bir odam – bir butun olam . Uning jussasi tanasining barcha qismlari bir-biriga bog'liq. Hamshira ularni inobatga olishi zarur. Xalqimiz “Molning shoxiga ursang tuyog'i zirqiraydi” deydi.

HAMSHIRALIK ISHI VA NAZARIYASI, FALSAFASI

Hamshira faoliyati asosida bemor bilan munosabati yotadi. Bemor va uning yaqinlari bilan bo'layotgan odobi, xatti-harakati, aytayotgan gaplari, tovush intonatsiyasi, undagi vazminlik, qat'iylik va shu bilan bir qatorda iliq yoki muloyim tabassum ham katta ahamiyat kasb etadi. Tibbiy hamshiralarning xalqaro kengashida qabul qilingan axloqiy kodeks 4 ta asosiy tamoyilni qamrab oladi.

1. Inson sog'lig'ini muhofaza qilishga yordam berish.
2. Inson kasalliklarini oldini olish (profilaktik) ishlarda faol qatnashish.
3. Kasallikka chalingan bemorning sog'ligini tiklash.
4. Surunkali xastalangan bemorlarning og'ir ahvollarini yengillashtirish kabilaridan iborat.

Grammatik mauzu

SIFATDOSHI

Predmet – hodisalarning belgisini bildirgan fe'l shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdosh otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi. Gapda aniqlovchi, kesim bo'lib keladi:

1. Nargiza bog'da qip-qizil bo'lib ochilgan gullarni zavq bilan terishga tushdi.
2. Mustaqil ishlar o'z vaqtida bajarilgan.

Sifatdosh fe'l kabi ish-harakatni anglatib, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik , nisbat bildiradi: Yozgan- bo'lishli, o'tgan zamon, aniq nisbatda; yozmagan- bo'lishsiz, o'tgan zamon, aniq nisbat.

Sifatdoshni zamonga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O'tgan zamon sifatdoshi : **-gan, -kan, -qan** qo'shimchalari orqali yasaladi. (O'qigan, yoqqan, tikkan.)
2. Hozirgi zamon sifatdoshi: - **a** bilan yasaladi. (Uxlayotgan, kelayotgan)
3. Kelasi zamon sifatdoshi: **-(a)r, -(a)digan, -(u)vchi** qo'shimchalari bilan yasaladi. (Oqar suv, o'qiydigan bola, keluvchi qizlar.)

MASHQ. Quyidagi gaplar ichidan sifatdoshni toping.

1. Shahrimizga tashrif buyurgan sayyohlar mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga juda qiziqishadi.
2. Bahor faslida endigina ochilayotgan gullarning ifori atrofga taralmoqda.
3. Dildora berilgan vazifalarni bajarar edi.
4. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Otalar-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlari

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 64- moddasi birinchi bandiga binoan ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Ota-ona va bolalarning bir- biriga nisbatan huquq va majburiyatlari bolalarning nasb-nasabiga qarab belgilanadi.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelib chiqishiga asos bo'lib, bolaning otadan paydo bo'lganligi va onadan tug'ilganligi qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 65- moddasida belgilangan bolani yashash va tarbiyalanish huquqi avvalo bola o'z ota onasi bilan birga yashash mumkin ekanligini anglatadi. Fuqarolik kodeksining 21- moddasiga binoan o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki va siylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi o'z ota-onasini bilish huquqi bilan mustahkam bog'liqdir. Bu haqda bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 7- moddasida to'g'ridan-to'g'ri aytiladi. Haqiqatda biroz qo'shimcha sharti bilan "agar bu mumkin bo'lsa". Bunday holat voyaga yetmagan bolaning huquqi sud tartibida otalik belgilanayotgan vaqtda nazarga olinadi.

Oila kodeksi 66- moddasining birinchi qismiga binoan bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka- ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota- onaning boshqa- boshqa yashashi ta'sir qilmaydi.

Ota -ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Oila jamiyat va davlat muhofazasida



Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalangan.

Yiliga o'rta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda.

Respublikamizda o'tish davriga qaramay, nikohga o'tish, oila qurish boshqa mintaqalarga nisbatan barqaror bo'lib turibdi. Chunonchi 2004 yil davomida 155.936 ta; 2005 yilning dastlabki 6 oyida 65.614 ta nikoh ro'yxatga olindi. Ko'p bolalilik o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatidir.

O'zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolik totuvligiga asoslanib ish olib borilmoqda. Prezident I.A. Karimov bu boradagi vazifalar haqida gapirib: "Eng muhim vazifa- xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi.", - degandi.

Biz adolatli fuqarolik jamiyatni shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoa birlashmalari notijorat nodavlat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati oshib boraveradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda mamlakatimizda ikki yarim mingdan ziyod jamoa birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatayapti. 70 ga yaqin fondlar bor.

Mamlakatimizda jamoa tashkilotlari har xil jamg'armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun turli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Jamoa tashkilotlari o'z maqsadi va vazifalariga muvofiq ravishda respublikada o'tkazilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib hissa qo'shib kelinmoqda. Masalan, ekalogiya va salomatlik sohasida "Ekosan" ehtiyojmand kishilarga va nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishda "Navro'z" jamg'armalari, nogironlar jamiyatlari, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin qizlarning jamiyat hayotdagi faolligini oshirishda xotin qizlar qo'mitalari, mehnatkashlarning kasbiy va boshqa qonuniy manfaatlarini ifoda etishda kasaba uyushmalari professor-o'qituvchilarni va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlashda "Iste'dod" jamg'armasi faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Bugungi kunda Respublikamizda o'n mingga yaqin mahalla va qishloq fuqarolari yig'inlari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va ommaviy ishlarni olib bormoqdalar, oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashda, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Davlat tomonidan oilaga kun sayin g'amxo'rlik qilish, ular har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65 moddasining 2-qismi va oila kodeksi 4- moddasining birinchi qismida binoan oila, onalik va bolalik davlat himoyasidadir.

Oilaning davlat muhofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining qator farmonlarida o'z aksini topmoqda. Prezidentning bu sohadagi 1- farmoni 1990 yil 3-mayda qabul qilingan bo'lib, u "Ko'p bolalik onalarga nafaqa miqdorini ko'paytirish to'g'risida" deb nomlangan.

Unda ko'p bolali onalarning moddiy ahvolini, yosh avlodning o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to'lanadigan oylik, nafaqa ikki marta ko'paytirilgan. Mazkur farmon o'zbek xalqining bolajonlik tabiatini ko'rsatadi.

Umuman, oila ishi jamoat va davlat ishi hamdir.

Mamlakatimizda alohida e'tibor yoshlar oilasiga qaratilgan.

Prezident I.A. Karimov "Kamolot" yoshlar ijtimoiy tashabbus guruhi yig'ilishda so'zlagan nutqida shunday degandi: "harakat... yosh oilalarga yordam berishni o'zining asosiy burchi deb bilishi, shu maqsadga "Yosh oila dasturi"ni ishlab chiqish masalasiga alohida ahamiyat qaratilishi zarur .

... harakat endigina turmush qurgan yosh oilalarga ma'lum bir imtiyozlar berilishi, aytaylik, ularga keyin bo'lib-bo'lib qaytarilish sharti bilan imtiyozli kreditlar ajratilishi haqida o'z takliflarini ilgari surishi va ularni amalga oshirish uchun harakat qilishi o'rinli, deb bilaman. Ishonchim komilki, bu yosh oilalarga moddiy yordamgina bo'lib qolmay ayni paytda ularni mustahkamlashga xizmat qilish muqarrar!"

LUG'AT

1. Jamiyat – общество
2. Fuqarolik – гражданство
3. Turmush farovonligi – семейное благополучие
4. Yilida – в году

SAVOLLAR.

- 1.Oila farovonligi nimaga bog'liq?
2. Oilaning madaniy saviyasi nimalarga bog'liq?
3. Oila jamiyatga qanday manfaat keltiradi?
- 4.Oilaviy totuvlikka qanday erishib bo'ladi?

Grammatik mauzu

Yordamchi sozlar

Ko'makchilar

O'zbek tilida yordamchi so'zlar – ko'makchilar otga yoki otlashgan so'zga bog'lanib, ularning gapda boshqa bo'laklar bilan turli munosabatini ifodalaydi. Ko'makchining o'zi alohida gap bo'lagi bo'lmaydi, bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda gapning biror bo'lagi vazifasida keladi.

O'zbek tilidagi ko'makchilar bilan rus tilidagi predloglarning farqi ularning o'zi bog'langan so'zdan oldin yoki keyin kelishidadir. O'zbek tilida ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan oldin keladi.

O'zbek tilida ko'makchilar ikki gruppaga birlashadi: 1) sof ko'makchilar; 2) ot ko'makchilar.

Sof ko'makchilar *uchun, bilan, qadar, uzra, sayin, sari* ko'makchilari kiradi. Bu tur ko'makchilar biror affiksni olib o'zgarmaydi. Shu jihatdan ular rus tilidagi predloglarga o'xshaydi.

O'zbek tilida ko'makchilar qatoriga kiruvchi ot ko'makchilar o'z mohiyati bilan sof ko'makchilardan farq qiladi. bular asli o'rin-joy ma'nosini anglatuvchi otlar bo'lib, egalik affiksi va o'rin kelishiklari affikslaridan biri bilan kelganida ko'makchi otga aylanadi: *ichida, orqasiga, yonidan, haqida, qarshisida, oldiga, tomonidan, o'rtasida, tepasiga, ostidan* kabi. Bunday so'zlar o'z leksik ma'nosini ozmi-ko'pmi saqlaydi.

1-mashq. Bilan, uchun, sayin, yonida, orqali, sari, bo'ylab, uzra, tomon ko'makchilarning mosini qo'yib gaplarni yozing.

Do'stlar _____ toqqa chiqdik. Dorixona _____ ko'zoynak do'koni bor. Allergologik bo'limi _____ o'tamiz. Tez yordam mashinasi qirg'oq _____ berar edi.

2-mashq. Test.

1. O'zbekistonda qaysi daraxt birinchi bo'lib gullaydi?
 - a) olma
 - b) shaftoli
 - c) bodom
2. Gullarning qaysi biri ilk bahor darakchisi?
 - a) binafsha
 - b) lola
 - c) boychechak
3. Qaysi qushlar qishda yurtimizda qishlaydi?
 - a) bulbul, qaldirg'och
 - b) chumchuq, musicha
 - c) turna, laylak
4. Qaysi daraxt gullamasdan meva qiladi?
 - a) shaftoli
 - b) anjir
 - c) behi
5. Quyidagi qushlardan qaysi biri qo'lga o'rganadi?
 - a) chumchuq
 - b) qarg'a

c) burgut

6. Qushlarning qaysi biri uchmaydi?

- a) kurka
- b) kalxat
- c) o'rdak

3-mashq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Do'stlar yordami bilan _____.
2. Bir hafta ichida _____.
3. Qishloq vrachlik punkti yaqinida _____.

4-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Вблизи реки есть санаторий.
2. Институт расположен около стадиона.
3. Мы с другом занимались в читательном зале.
4. Сердце расположено внутри грудной клетки.
5. Между клиникой и главным корпусом находится памятник Абу Али ибн Сина.

Bog'lovchilar.

Gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchilar deyiladi. Mas.: Shirinlik, yog'lik va o'tkir narsalar yeyishni man qildim. ("Sih-sal.")

Bog'lovchilar mustaqil so'zlar kabi gapda gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydi. Bog'lovchilar grammatik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. Teng bog'lovchilar (va, hamda, ham, ammo, lekin, biroq, balki); 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar (chunki, shuning uchun, toki, negaki, agar, basharti)

Bog'lovchilar yakka va takror holda qo'llaniladi: men va sen. Na gapga quloq soladi, na o'zi gapiradi.

Союзы – это служебные слова, связывающие между собой члены в простом предложении или простые предложения в сложном. Союзы бывают сочинительными и подчинительными.

Сочинительные союзы - связывают, главным образом, однородные члены простого или части сложносочинённых предложений, занимающих равное, а не зависимое друг от друга положение.

Подчинительные союзы – связывают только части сложноподчинённого предложения, т.е. придаточное предложение с главным.

5-mashq. Va, hamda, chunki, shuning uchun, lekin, ammo, `hud bog'lovchilarini qatnashtirib gaplar yozing va bu gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

6- mashq. Gaplarni ko'chiring. Bo'glovchilarni topib, turini ustiga yozing.

1. Kasalligi yengillashdi va uning arziyas alomatlarigina qolgan edi. ("Sih-sal.")
2. Odam his-hayajon, g'am-tashvishsiz yashamaydi, albatta, lekin har narsaning me'yori yaxshi. ("Sih-sal.")
3. Kechasi yomg'ir yog'di, shuning uchun salqin bo'ldi.
4. Sher rahmsiz, ammo o'z bolalariga mehribon bo'ladi.
5. Ko'pchilik erkak kishilar prostata bezi va uning faoliyati haqida kam ma'lumotga ega. ("Sih-sal.")
6. Ular go'daklarning hamda kichik yoshdagi bolalarning sog'ligini saqlash ishi bilan ko'proq mashg'ul bo'ladilar.

Qon va uning tarkibi

Qon harakatchan muhit bo'lib, o'z tarkibini doimo o'zgartirib turadi. Qon tarkibining o'zgarishi tartibsiz bo'lmay, balki organizmning malum bir funksional holatiga mos ravishda yuz berad.

Qon tarkibining organizm funksional holati bilan o'zaro bog'likligi meditsina praktikasida katta ahamiyatga ega, chunki ko'p hollarda qondagi o'zgarishlar ikkilamchi bo'lib, turli o'rganlar fiziologik vazifasining buzilishi tufayli kelibchiqadi. I.A. Kassiryskiy iborasi bilan aytganda "qon - organizmning oynasi bo'lib, unda organlar va to'qimalarda bo'ladigan har xil o'zgarishlar o'z aksini topadi".

Qon suyuq hujayralararo modda – plazmadan va unda muallaq joylashgan shaklli elementlardan iborat. Ularning o'zaro musbati so'g'lom odamda 55 : 45 ni tashkil etib gematokrit ko'rsatgich deb ataladi. Gematakrit korsatkichning u yoki bu tomonga o'zgarishi qonnig suyulishi yoki quyilishini ko'rsatib, muhim diagnostik belgi hisoblanadi.

Qon miqdori voyaga yetgan organizmda tana og'irligining taxminan 7 % tashkil etib o'rta hisobda 5 - 5.5 l ga teng.

Qon plazmasi (plasma sanguinis)

Rangsiz, tiniq suyuqlik bo'lib 90 – 92 % suvdan va 8 – 10 % quruq moddadan iborat. Quruq moddaning 5.5 – 8 % oqsillarbo'lib, 2 – 3.5 % esa organik miniral birikmlar hosil qiladi. Qon oqsillaridan eng muximlari albumin (4.5 – 5.5%), globulin (1.2 – 2.5%) va fibrinogendir (0.2 – 0.6 %).

Qonning shaklli elementlari.

Qonning shaklli elementlari qatoriga qizil qon tanachalari – eritrositlar, oq qon tanachalari – leykositlar va qon plastinkalari – trombositlar kiradi.

Eritrositlar (erythrocyti)

Eritrositlar eng ko'p sonli qon hujayralari hisoblanadi. Sog'lom erkaklarda ularni soni 1mm kv qonda 4.0 – 5.5 mln. Ayollarda 4.0 – 5.0 mln ga tengdir. Voyaga yetgan odamda o'rtacha 25 trillion ga yaqineritrositlar bo'ladi.

Leykositlar (leucocyti)

Bu termin yunoncha “leikos” – oqsilmanosida keladi. Leykasitlar yoki oq qon tanachalari tuzilishi va vazifalari turlicha bo'lgan hujayralar guruppasini tashil etadi. Leykositlar o'z plazmasidagi maxsus donachalarga qarab ikkita katta guruhga ajratiladi:

1. donador leykositlar yoki granulositlar (granulocyti).
2. donasiz leykositlar yoki agranulositlar (agranolocyti).

Fiziologi sharoitda sog'lom odamda laeykositlar soni 1 mm kub qonda 3800 – 9000 ($3.8 - 9 \cdot 10^9/l$) ga teng.

Qon plastinkalari – Trombasitlar (thrombocyti)

Normal sharoitda qon plastinkalaining miqdori odamda 1mm kub qonda 200 000 dan 300 000 gacha bo'ladi. Qon plastinkalari odatda yumaloq va oval shakliga ega bo'lib ular periferik, strukturaga ega bo'lmagan zona - gialomer va markaziy, donador zona – granulomer tafovut etiladi.

Lug`at

Leyksitar formula – лейкоцитарная формула

Qon plazmasi – плазма крови

Quyqa – сгусток

Qon ivishi – свертывание крови

Trombosit – тромбоцит

Limfositoz - лимфоцитоз

Savollar

1. Qon tarkibi qanday tuzilmalarga ega va ushbu tuzilmalarning o'zaro nisbati qanday?
2. Qon plazmasi qanday moddalardan iborat?
3. Qon tarkibida qanday shaklli elementlar bor?
4. Voyaga yetgan odamda eritrosittlar miqdori qanday?
5. Leykosit so'zi qanday tildan olingan va manosi qanday?
6. Qon plastinkalari deb qaysi shaklli elementlarga aytiladi?

Grammatik mauzu

Yuklamalar (Частицы).

So'zlarga yoki gaplar mazmuniga qo'shimcha ma'no qo'shadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deyiladi. Mas.: Sidiqxon etagini qoqib, o'rnidan turdi-yu jadallaganicha ko'cha eshigiga qarab yurdi.

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. So'z yuklamalar (faqat, holbuki, nahotki, hatto, axir)
2. Qo'shimcha yuklamalar (-mi, -chi, -a, -ya, -yu, -da)

Yuklamalar ma'nosiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi;

1. So'roq va taajjub yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya)
2. Ta'kid yuklamalari (-ku, -da, -u, -yu, ham)
3. Ayiruv yuklamalari (-gina, -kina, -qina, faqat, hatto)
4. Kuchaytiruv yuklamalari (axir, hatto, -oq, yoh)

Частицами в узбекском языке называются служебные слова или аффиксы, придающие различные смысловые оттенки предложению или отдельным его членам.

В узбекском языке наиболее употребительными частицами являются следующие:

1. Вопросительные и побудительные частицы
2. Утвердительные частицы
3. Выделительные частицы
4. Усилительные частицы

1-mashq. Gaplarni ko'chiring. Yuklamalarni toping. Ularning tuzilishiga va ma'nosiga ko'ra turini aniqlab, ustiga yozing.

1. Shamdek kuysa-da, o'zgalar dilini ravshan qilish baxtiga muyassar bo'lmoq haqiqiy shifokor qismati ekan, bu mas'uliyatni anglab yetmay shifokorlikka da'vogar bo'lishga haqqimiz yo'q. ("Sih-sal.") 2. Chunki biz markaz tasdig'ini kutmadik-da. 3. Bektemirning go'yo nafasi o'chgan, yurakning ko'krakda bolg'aday urganini ham sezmaydi. 4. Yong'oq po'chog'i bilan aralashtirib ishlatilsa, sochni qoraytiradimi? ("Sih-sal.")

5. Dunyo qiladi orzuki, sen bog' bo'l deb,
Gohida rayhon bo'lu, sarv goh bo'l deb.
Oy kabi o'tma-ketma, hamroh bo'l deb,
Yuzlarni yorug' qilmoq uchun sog' bo'l deb. (Pahlavon Maxmud.)

Alohida soz turkumi **Undovlar (Междометия)**

Undovlar his-hayajon, haydash-chaqirish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Undovlar yakka holda (voy, uh, e, iye, kabi) va takrorlanib – juftlashib (vay-vay, oh-oh-oh, voy-bo'y kabi) keladi. Takrorlanib – juftlashib kelganda chiziqcha (-) bilan yoziladi.

Undovlar ma'no xususiyatlariga ko'ra his-hayajon undovlari va haydash-chaqirish undovlariga bo'linadi.

His-hayajon undovlari (eh, oh, uh, ho, he, e, iye, uf, marsh, tuf kabilar) gap bo'laklaridan ko'pincha vergul bilan ajratiladi, kuchli hayajon bilan aytilganda undov belgisi qo'yiladi.

Oh-oh-oh! Otangizga rahmat!

Haydash-chaqirish undovlari (bah-bah, quray-quray, pisht, ti-ti-ti, kisht kabilar) deb, degan so'zlari bilan birga qo'llanadi: Ha, degan tuyaga madad

Слова, служащие для выражения чувств и волевых побуждений, называются междометиями.

В узбекском языке наиболее употребительными междометиями являются:

1. Эмоциональные, выражающие различные переживания и чувства: vox (ax), эх (эх), вой-вой (ой-ой)
2. Призывные: курай-курай (когда сзывают овец), ту-ту-ту (когда сзывают кур)

3-mashq. Ko'chiring. Undovlarni topib, ostiga chizing. Tinish belgilarining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. E, endi dorixonaga yurganim-yurgan. ("Sih-sal.") 2. Voy-bo'y, tishning abjag'ini chiqaribsiz-ku! ("Sih-sal.") 3. E, o'g'lim, e-e, qattiq non davo bo'ldi...4. E, O'rmonjon aka, nima dor edi. Nuqul kolxozni surishtiradi. 5. Uff! Kasallar ko'p edi-ya. Lekin hammasi birin-ketin bu dunyoni tark etdi. ("Sih-sal.") 6. Voy-bo'y, bu avtobusda ikki kun yursang qoq baliqdek bo'lib ketasan, – dedi xola istehzo bilan.

Stomatologiya va stomatolog shifokor



Dunyoda har bir kasbning o'z o'rnini bor. Shu jumladan tibbiyot soxasi va shifokorlik kasbi dunyodagi eng yuksak faoliyatlardan biridir. Chunki odamlarning dardiga malham bo'luvchi inson bu oppoq xalatdagi najot elchisi- shifokorlardir. Tibbiyot xodimi bo'lish juda katta mas'uliyat talab etadi. Shuning uchun har bir tibbiyot xodimi bu kasbni tanlaganidan so'ng GIPPOKRAT qasamyodini qabul qilib, o'z kasbiga sodiq qolib, burchiga xiyonat qilmasdan beminnat yordam berishi kerak.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan tibbiyot infratuzilmasini yaxshilash borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan va ular amalda tadbiiq qilinmoqda. Tibbiyot sohasi o'z navbatida keng tarmoqlarga bo'linadi, bulardan hozirda rivojlanish borasida etakchi soxa bu stomatologiyadir.



Keng ma'noda stomatologiya "stoma"- og'iz bo'shlig'i, "logiya"- ta'limot degani bo'lib, og'iz bo'shlig'i- kasalliklarini o'rganadi va davolaydi. Stomatolog- tish shifokori bu sohada faoliyat ko'rsatadi.

Ayrim manbalardagi statistic ma'lumotlarga qaraganda respublika axolisining 70%dan ortig'i karies va uning asoratlari bilan, 35%dan ortig'i paradont kasalliklari bilan kasallangan. Bu umumiy kasalliklar oldida juda baland ko'rsatkichdir. Og'iz bo'shlig'i kasalliklarini sifatli davolash va o'z vaqtida profilaktikasini to'g'ri tashkil qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash aktual muammo bo'lib kelgan. Bu muammoni hal qilish maqsadida tibbiyot oliygohlari oldida stomatologiya fakultetini tashkil qilish, talabalar yaxshi bilim olishlari uchun o'quv- tajriba bazasini zamonaviy jihozlash borasida bir talay ishlar qilindi. Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida vrach- stomatologlar uchun og'iz bo'shlig'i kasalliklarini zamonaviy usullar bilan davolashni o'rgatish borasida o'quv kurslari tashkil qilinmoqda.

Respublikamiz aholisiga stomatologik xizmatni sog'liqni saqlash tizimidagi poliklinikalar va xususiy sektordagi poliklinika va stomatologik kabinetlar amalga oshiradi.

Har bir kasallikni davolashdan ko'ra oldini olish osonroqdir. Shuning uchun bizda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini oldini olish borasida ko'pgina ishlar qilinmoqda.

Maktab va maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida , kollej va oliy o'quv yurtlarida, yirik korxonalarda tibbiy ko'rik va sanatsiya ishlari olib boriladi. Hududiy poliklinikalarda fertil yoshdagi ayollar, xomiladorlar, o'smirlar va nogironlar sog'lig'i mutaxassislar tomonidan doimiy nazoratda bo'ladi.

Stomatologiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan har bir vrach nazariy va amaliy etuk mutaxassis bo'lishi kerak. Doimiy ravishta o'z ustida ishlashi, rivojlanib borayotgan sohaning yangiliklarini o'z vaqtida o'rganib borishi va ularni o'z amaliyotida ishlatishi kerak.

Demak ,stomatologiyada faqatgina tishni davolash emas, balki og'iz bo'shlig'ida kechadigan barcha kasalliklarni davolash, nuqsonlarni tuzatish kabi vazifalar ado etiladi. Bu vazifalarni faqatgina yaxshi mutaxassis- stomatolog vrachlar bajara oladi. Yosh stomatologlar kelajakda ana shunday shifokor bo'lib yetishishadi va albatta tibbiyot sohasida stomatologiyada yangi kashfiyotlar yaratib, o'z burchlarini xalqimiz orasida namoyon qiladilar.

Taqlidiy so'zlar. (Звукоподражательные слова)

Sharpa-tovushga va holatga taqlidni bildiradigan so'zlar tanqidiy so'zlar deyiladi. M.: taqir-tuqur, gup, vag'ir, gumbur-gumbur.

Taqlid so'zlar ko'pincha juft va takrorlangan holda keladi. U gapda gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin.

Taqlid so'zlar ma'nosiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Tovushga taqlidni bildiruvchilar (g'uv-g'uv, vov-vov, g'ing'ir-g'ing'ir)
2. Holatga taqlidni bildiruvchilar (yelt-yult, apil-tapil, milt-milt)/

Это особая группа слов, представляющих собой условное воспроизведение разного рода звучаний: криков животных, птиц, шумов, взрывов, грома и др.

4-mashq. Gaplarni ko'chiring. Taqlid so'zlarni topib, ostiga chizing. Turini ustiga yozing.

1. Nega stolni asabiy taqillatayapsan? – deb so'radi bemordan.
2. Bog'da g'ir-g'ir shamol esar edi.
3. Sidiqjonning yuragi jiz etdi.
4. Doktorni ko'rib, bolaning yuragi gup-gup ura boshladi.
5. Ayniqsa, qizga juda alam qildi, lekin bularning g'uvillashi darrov tindi, chunki Karimqulning vaji hammasiga ma'qul tushdi.

Teri tanosil kasalliklari

Insonning terisi quyidagi vazifalarni bajaradi:

Teri – inson tanasini qoplab turuvchi a'zo. Terida morfofunktsional yagona holatda bo'lgan va shartli ravishda uch qavat: ***Epidermis*** – teri po'stlog'i, ***derma*** – asosiy teri va ***gipoderma*** – teri osti yog` qavatlari tafovut etiladi. Teri asosan himoya va ayiruv funksiyalarini bajaradi.

Ekzema

Ekzema – terining nevroallergik, kuchli qichish bilan kechadigan, chin polimorfizm bilan asosiy toshmasi o'tkir yallig'langan terida, mayday-mayda pufakchalar bilan kechadigan surunkali kasallik. Etiologik omillariga ko'ra ekzemaning quyidagi turlari mavjud: chin mikrobl, seboreyalik, professional va bolalar ekzemas. Shulardan

Bolalar ekzemas

Bolalar ekzemas ko'proq eksudativ diatezga mos o'zgarishlar bilan boshlanib, asosan yosh onalar o'zi parxezni buzib, bolaning emizishi, keyin bolani qo'shimcha ovqatlantirishdagi xatolar bu kasallikni rivojlantiradi va qo'zg'aydi. Yaqin qarindoshlarda, ota-ona yoki ularning ikkitasidan ham turli allergikkasalliklar bo'lgan bo'lsa, bolaning parxezidagi xatolarni ekzemaning rivojlanishiga tezda olib keladi.

Bolada turli xil surunkali infeksiya o'choqlari, me'da-ichak kasalliklari kuzatiladi. Kasallik birinchidan bolaning hayot sifatini buzib, uning tengdoshlariga aqliy va jismoniy zaiflikka keltiradi. Toshmalar toshishi bilan kuzatiladi. Toshmalar – ko'proq boshning sochli qismi, quloq atrofi, yuz, qo'ltiq osti, ko'rak va boshqa yog` ajrab turuvchi bezlarni ko'p joylashgan teri qismlarida rivojlanadi.

Davosi

1. Kasallikni yuzaga keltiruvchi allergenlarni bartaraf qilish.
2. Allergensiz, kam tuzlik va kam suyuqlik parxez.
3. Yallig`lanishga qarshi davo (antigistamin va desensibilizatsiyalovchi preparatlar)
4. Ichki a`zolaridagi kasalliklarni aniqlab, ularni davolash.
5. Mahalliy davo, bu har bir kishiga individual qo`llaniladi.

Grammatik mauzu

Gapning bosh bo`laklari

Ega va kesim ikki bosh bo`lakli gapning Grammatik asosini tashkil qiladi va ular gapning bosh bo`laklari deb yuritiladi.

Gapning kim? Yoki nima? Haqida ekanligini bildirib, boshqa bo`laklarga Grammatik tobe bo`lmagan bo`lak ega deyiladi. Ega kim? Nima? Qaer? So`roqlariga javob beradi.

Masalan: O`qituvchilar Shaxnozani va boshqa qizlarni maqtashdi.

O`tloqda bedana ko`p.

Dangasaga bahona ko`p.

Ega haqida xabarni bildirib, unga Grammatik tobe bo`lgan bo`lak kesim deyiladi. Kesim nima qildi? Nima qilayapti? Qandaydir? U kim? Bu nima? U nechta? Kabi so`roqlarga javob beradi.

Masalan: Nurov aytgan gaplarni hammamiz tushundik.

Havo mayin, osmon tip-tiniq, ochilibdi gullar rang-barang.

Ega gapning boshqa bo`laklariga grammatik tobe bo`lmaydi, kesim esa egaga tobe bo`ladi.

Masalan: Bir talaba keldi.

Talabalar keldilar.

Kesimlar qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga qarab 2 xil boʻladi.

1. Feʼl kesim 2. Ot kesim

Feʼl kesim. Feʼl yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi. Tuzilishiga koʻra 2 xil boʻladi.

Sodda feʼl kesim – bir soʻz bilan ifodalanadi. Mard maydonda bilinar.

Murakkab feʼl kesim – quyidagicha turlanadi: 1.Koʻmakchi feʼlli feʼl qoʻshilmasidan iborat boʻladi: bunda murakkab kesim 2 qismdan tuziladi: a) yetakchi b) koʻmakchi

Kesimning lugʻaviy maʼnosini yetakchi feʼl.

Grammatik maʼnosini koʻmakchi.

Murakkab feʼl kesim 2. Sifatdosh yoki maqsad maylidagi va feʼldan iborat boʻladi. Masalan:

U oʻrnidan turmoqchi boʻlgan edi.

20 dorivor oʻsimliklarning nomi.

1. Eman poʻstlogʻi – гингивит

2. Zveraboy

3. Devasil ildizi

4. Kiyik oʻti

5. Isiriq

6. Moychechak

16. Doʻlana urugʻi

17. Kalanxao bargi

18. Yalpiz

- | | |
|---------------------------------|--------------------------|
| 7. Aloy | 19. Qoraqat |
| 8. Na'matak | 20. Qalampir (гаримдори) |
| 9. Shuvoq | |
| 10. Xmel | |
| 11. Qora ituzum | |
| 12. Limon po'stlog'i – стоматит | |
| 13. Arslon quyuq | |
| 14. Yong'oq – парадантоз | |
| 15. Ko'k choy - стоматит | |

Aniqlovchi

Predmetning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo`lagi bu – aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi gap ichida ega, kesim, to`ldiruvchi, hol kabilarga tobe' bo`la oladi. Aniqlovchi 3 turli bo`ladi:

Sifatlovchi – aniqlovchi – predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradip: Qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachon?, qancha?, nechanchi?, necha? kabi so`roqlarga javob beradi.

Hol

Ish harakatning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo`lagi bu – hol deyiladi. U ko`pincha fe'l kesimga bog`lanib keladi. Hol ish harakatning qay tarzda bajarilishini o`rni, payti, sababi, maqsadi, miqdori darajasi kabilarni ifodalab, qanday?, qanday qilib?, qay tarzda?, qaerga?, qaerda?, qachon? kabi savollarga javob bo`ladi.

24-mashq.

Quyidagi gaplarning sifatlovchi, aniqlovchilarni toping.

Sharqning ming yillik faylasufi, islom qadriyatlari taraqqiyoti uchun bebaho xazinadir. Sevimli vatanimizda toshqin daryodek jo`sh urar hayot. Hisobli do`st ayrilmas. Muhabbat nimaligini bilmagan. Shavkat uni tushunmas edi. Rayhonning xushbo`y hidi dimog`imga urildi.

Shifobaxsh o`simliklar

Do`lana

Bodom

Asal

Baqlajon

Ra`noguldosh

Лекарственные растения

Боярышник

Миндаль

Мёд

Баклажан

Розоцветовые

Savollarga javob bering

1. Qaysi shifobaxsh o`simliklardan foydalanasiz?
2. Teri kasalliklarida qaysi shifobaxsh o`simliklardan foydalanasiz?
3. Sharq tabobatida qanday ma`lumotga egasiz?
4. Sog`lom avlodni tarbiyalash uchun nimalarga e`tibor berish kerak?
5. Sog`lom turmush tarzini tahlil etish uchun qanday tadbirlar o`tkazar edingiz?

TABIBLAR ALISHER NAVOIY TALQINIDA .



Navoiy “Maxbub ul - qulub” asarini 1500 – 1501 yillarda yozdi . Bu asar muallifning g’oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to’plagan boy tajribasining xulosasidir.

Asarning birinchi qismida Navoiyning ijtimoiy - siyosiy qarashlari o’z aksini topgan .

“Maxbub ul -qulubning ” ikkinchi qismi asosan axloqiy masalalariga bag’ishlanadi. X bobdan iborat bu qismida insoniy fazilatlar va yomon xislatlar tahlil etib beriladi .

Keyingi boblardan biri tabiblar to’g’risida bo’lib , unda hakim o’z fanining mohir bilimdoni bo’lishi , bemorlarga rahm – shavqat bilan muomala qilishi , tabiyatan , jismonan shu kasbga moyil bo’lishi , muloyim so’z va bemor ko’nglini o’ziga maftun etuvchi andishali , xushfe’l bo’lmog’i kerakligi uqtiriladi.

Tabib o’z fani , ya’ni tabobat sohasida bilimdon , fozil bo’lishi va kasallarga mehribon bo’lishi kerak . Tabibning so’zlari muloyim , o’zi esa hakimlarning so’ziga amal qiluvchi va ularga mulozim , xizmat qiluvchi bo’lishi lozim . So’zlagan so’zida yumshoqlik va dilni xursand qiluvchi , o’zida esa sharmu-hayo va xushfe’llik bo’lishi kerak .

Shavqat va mexribonligi bo’lgan tabibning ishi chiqayotgan joyga so’z bilan shifo berishidir .Bunday tabibning yuzi bemorning ko’ngliga yoqimli , so’zi esa har qanday kasalning joniga orom beruvchidir . Uning qalbiy davosi xasta kishilarga shifo yetkazadi. Davo topgan bemor uchun bunda hakim obi hayot singari totli va sharaflidir.

Tabobat fanidan savotsiz tabibini jallodga o’xshatadi . Hech gunohkor jallod qo’lida bo’lmasin , hech bir begunoh kasalmand bunday tabibga zor bo’lmasin .

Bayt

Shirin so'zli mohir tabib tan
Xastaligiga shifodir ,
Batfel , serjahl va savodsiz tabib
Esa el joniga jafodir

A.Navoiygina bu asarda qisqa va lekin asirlarga tatiguvlik, tarix zar varaqlarida yoziladigan tabibga xos xislatlar majmuasini bera olgan .

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan saxiy yurtida ma'naviy qadriyatlar ulug' Navoiyga intilishi kundan – kun oshib bormoqda .

Bugungi kunda hazrat A.Navoiy ruxi , she'riyati , nasriy va nazmiy durdonalari tibbiyot ahli - donishlari hamda , talabalarini ezgulikka undashiga aminmiz .

– zaxarli dorilar – ядовитые лекарства

– tez tasir etuvchilar – сильнодействующие лекарства

Farmatsevt- yuqori malakali dorixona hodimi .

Osma – vena orqali tomchilab yuboriladigan dorivor preparat

Retsept shifokor tomonidan ma'lum kasalliga yozilgan dorilar ro'yxati.

1 mashq/. Berilgan sozlar yordamida gaplar tuzing

Dialog

Assalomu aleykum ! --- Здравствуйте!

Sizni ko'rishdan xursandman! --- Рад/а вас видеть!

Ruxsat eting ,o'zimni tanitay ! --- Разрешите представиться .

Tanishkanimdan xursandman! --- Рад/а с вами познакомиться.

Tuzukmisiz? Sog'lig'ingiz qalay?--- Как вы себя чувствуете?

Sizga nima bo'ldi ! --- Что с вами ?

Ko'rinishingizda qattiq shamolaganga o'xshaysiz. --- Вероятно,вы сильно простудились.

Darmonim qurigandek tuyuladi! --- Чувствую себя слабым/ой/.

Boshim og'riydi!--- Голова болит

Isitmam bor ! --- У меня температура.

Unday bo'lsa ! --- В том случае

Shifokor tafsiyalari bilan tanishib chiqing ! --- Ознакомьтесь с рекомендациями врача

Lug'at

Zaxarli dorilar – ядовитые лекарства

Tez tasir etuvchilar – сильнодействующие лекарства

Farmatsevt- yuqori malakali dorixona hodimi .

Osma – vena orqali tomchilab yuboriladigan dorivor preparat

Retsept - shifokor tomonidan ma'lum kasalga yozilgan dorilar ro'yxati

Asar --- произведение

Insoniy fazilatlar --- человеческие качества

Rahm - shavfqat --- милость

Muomala qilish --- общение

Savodsiz --- неграмотный

Jallod --- палач

Muloyim so'z --- добродушный


Kasalmand --- больной.

Savollar

1. A.Navoiy "Maxbub - qulub" asarini qachon yozgan ?
2. "Maxbub ul -qulub" qanday asar ?
3. Asar necha qisimdan iborat ?
4. Tabib qanday bo'lishi kerak ?
5. Matnda berilgan baytni izohini ko'rsating.

boshqotirma

1. A.Navoiyning tabiblar to'g'risidagi asari.
2. Tabibning xislatlari.
3. Beshlik dostonning nomi
4. Forsiy tilda yozilgan asarlariga qaysi taxallusda berilgan
5. Navoiy tug'ilgan shahar.
6. Navoiyning talabalik davri o'tgan shahar
7. Navoiyning do'sti



Grammatik mavzu

Qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap.

(Сложное предложение. Сложносочиненные предложения)

Сложное предложение состоит из двух или более простых предложений.

Простые предложения соединяются с помощью союзов и без них. –

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topadi qo'shma gaplar bog'lovchilar yordamida yoki ularsiz tuziladi.

Shamol esar va uning shovqini daraxtlarni mayingina silkitar edi.

Quyosh botib borar qizg'ish nurlar to'lqin yuzida chil-chil sinar edi.

Сложные предложения бывают трёх видов:

1.Сложносочиненные предложения-(Bog'langan qo'shma gaplar)

2.Сложноподчинённые предложения-(Ergashgan qo'shma gaplar)

3.Безсоюзные сложные предложения- (Bog'lovchisiz qo'shma gaplar)

2Mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida qo'shma gaplar tuzing: tabib,bemor, harorat oshishi, zo'riqish.

3Mashq. Quyidagi konstruksiyalarga mos qo'shma gaplar tuzing.

Va

ammo

lekin

Zahiriddin Muhammad Bobur



Bobur 1483 yil 14 fevralda Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ilgan.

Boburning shajarasi quyidagicha: Umarshayx Mirzo - Abdusaid Mirzo - Sulton

Muhammad Mirzo - Mironshoh - Amir Temur. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi

Toshkent hokimi Yunusxon esa o'zbeklashgan mo'g'il urug'idan bo'lib, 12 avlod bilan Chingizxonga tutashgan. Bobur uni „Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandur" deb tanishtiradi. Otasi Umarshayx Mirzoning uch o'g'li (Z. M. Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo), besh qizi (Xonzoda-begim, Mehribonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sulton begim, Ruqiya Sulton-begim) bo'lib, Bobur o'g'illarining eng kattasi edi. Otasi vafotidan so'ng Andijon taxtiga Bobur o'tiradi. U taxt uchun tinimsiz kurashib, 1497-1500 yillarda Samarqandni, 1502-1503 yillarda O'sh va uning atroflarini egallab oladi, ammo Ahmad Tanbaldan yengiladi.

Bobur 16-17 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullanadi, o'zbek va tojik tillarda she'rlar yozadi. U o'zbekcha she'rlarini to'plab 1519 yilda Qobulda („Qobul devoni"), 1528-1529 yilda Hindistonda („Hind devoni") devonlar tuzgan. Bizgacha yetib kelgan she'rlarining umumiy soni 400 dan oshadi. Shulardan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiydir. Bobur lirikasining asosiy janrlari g'azal, ruboiy va tuyuq bo'lib, shoir qit'a, fard kabi janrlar-da ham ijod qilgan. Boburning 4 ta o'g'li, 3 ta qizi bo'lib, shulardan Kamron ismli o'g'li sheriylar devon tuzgan. Shoir sherlarida Vatan ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur 20 yoshida „Xatti-Boburiy" yozuvini kashf etgan, Xoja Axrorning „Volidiya" asarini sheriylar yo'l bilan arjima qilgan. Boburnomaday ulkan tarixiy badiiy asarni yaratdi. Musiqa bilan shug'ullanib chorgoh maqomiga satrlar bitdi. 1521 yilda she'riylar yo'lida soliq ishlarini tartibga soluvchi „Mubayyin al zakot bayoni" asarini yozdi. 1523-1525 yillarda „Aruz vazni" haqida Muxtasar nomli risola yozdi. Boburni „Xarb ishi", „Musiqa ilmi" degan asarlari topilmagan.

Boburning eng mashhur asari „Boburnoma" dir. U dastlab „Vaqoye" (Voqiyalar) deb atalgan. So'ngroq „Voqiyayi boburiy", „Voqiyanomani tuzluki boburiy", „Boburiya" va eng oxirida „Boburnoma" deb shuhrat topdi.

Bobur 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etdi. Uning jasi Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog'ining markaziy qismiga dafn etiladi. 1533 yilda esa xoki vasiyatiga muvofiq Qobulga „Bog'i Bobur"ga ko'chiriladi.

Lug'at

Tarixiy- исторический

Shoir- поэт

Badiiy- художественный

O'zbek- узбек

Mashhur- известный

Ijod- творчество

Dastlab- сначала

Ulkan- большой

Grammatik mavzu

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

(Сложноподчиненные предложения)

Сложноподчиненные предложения состоят из двух или более предложений, одно из них является главным, другое придаточным.

Сложноподчиненные предложения связываются между собой подчинительными союзами.

Ergashgan qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topib, ularning biri **bosh gap**, ikkinchisi **ergash gap** bo'ladi.

Ergash gap o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.

Сложноподчиненные предложения делятся на несколько видов:

- 1.Изъяснительные придаточные предложения конкретизируют и раскрывают значение главного предложения.
- 2.Определительные придаточные предложения служат для определения признака одного из членов главного предложения.
- 3.Обстоятельственные придаточные предложения относятся к глаголу и уточняют место, время, причину, цель действия.

Ergashgan qo'shma gaplarning bir nechta turi bor:

- 1.To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapning ma'nosini to'ldirib keladi.
Masalan:

Shuni bilingki, biz doim halollik va yaxshilikni qadrlaymiz.

- 2.Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi biror bo'lak belgisini aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan:

Shunday davrda yashayapmizki, bu davr talabchan yoshlarnikidir.

- 3.Hol ergash gapli qo'shma gap fe'l bilan bog'liq bo'lib harakatning o'rni, vaqti, sababi ,miqdorini bildiradi.Masalan:

Qayerda yaxshi imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, hammamiz o'sha yerga borib ishlashga intilardik.

Ergashgan qo'shma gaplarning turini aniqlang.

- 1.Ba'zi ota-onalar borki, ular o'z farzandlariga keragicha e'tibor qaratmaydilar.
- 2.Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Mexikoda aholi soni 30 mln ga yetibdi.
- 3.Qish uyqusidan uyg'onib, yaproqlar sehrli shivirladi.
4. Men shu shaharga kelganimdan beri, juda ko'p yangiliklarga ega bo'ldim.

Sog'lom muhit-sog'lom avlod

“Tozalik va orastalik- sog'liq garovidir” mavzuda suhbat uyushtirib hammani shanbalikka undagan edim. O'zing o'ylab ko'r agar shahrimizdagi har bir talaba, har oyda hech bo'lmaganda ikki soat ishlab, shahar ko'chalari, bog'lari, tevarak atrofni tozalashga o'z hissasini qo'shsa, shahrimiz chiroyiga yana chiroy qo'shilib, gullar shahriga aylanadi.

B: To'g'ri aytasan, men ham sen bilan borsammikan.

A: Juda yaxshi bo'lardi-da, Yaxshi ishni hamma har doim qilishi kerak.

B. Ketdik bo'lmasa.

Ozodalik kishi mehnati va vaqtini tejaydi. Pokiza tutilgan barcha buyumlar – kiyim-kechak, poyabzal, shuningdek, turar joylar ko'pga chidaydi. Ozodalik bilan turli ortiqcha xarajatlar tejaladi. Ozodalikka rioya qiladigan va chiniqqan odam sog'lom bo'ladi.

Ozodalik – terini toza tutishning birinchi qoidasidir. Nihoyat, har bir odam dastavval oʻz badanini ozoda tutishga eʼtibor berishi zarur. Bularning barchasi odamning **shaxsiy gigiyenasi** deyiladi.

Odam terlaganda teri orqali organizm uchun keraksiz va zararli moddalar bilan birga organizm uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan osh tuzi va vitamin S ni ham ajratadi. Terlash faqat organizm holatiga bogʻliq boʻlmay, balki uni oʻrab turgan tashqi muhitga ham bevosita aloqador.

Oʻrta Osiyo mintaqalarida oyoq muntazam parvarish qilinmasa koʻp terlaydi, natijada yoqimsiz hid paydo boʻladi va teri bichiladi.

Barmoqlar orasi shilimasligi va ozodalik uchun ham oyoqni har kuni yotishdan oldin sovunlab yoki iliq suvda yuvishga odatlanish kerak.

Tashqi muhit – iqlim sharoitlari, ovqatlanish ham terining funksiyasiga katta taʼsir qilishini unutmaslik lozim. Teri, ayniqsa, uning ochiq qismlari kun boʻyi ozmi-koʻpmi chang bilan qoplanadi. Bordiyu, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinmasa, changlar ter va yogʻ bilan aralashib, ter va yogʻ bezlarining chiqaruv yoʻllarini berkitib qoʻyadi, natijada teri oʻzining barcha muhim vazufalarini oʻtay olmaydi. Odam doim pokiza boʻlib, chiniqib yursa, terisi sogʻlom boʻladi.

Tozalik – teri gigiyenasining eng muhim shartidir.

Terini ifloslanishdan saqlash uchun muntazam ravishda haftada bir marta (yaxshisi ikki marta) hammomda (yoki uyda) issiq suvda choʻmilish kerak.

Sochni erinmasdan har kuni tarash, haftada bir marta sovunlab yuvish kerak, soch yuvilganda chang va mikroorganizmlardan tozalanadi. Soch moylarini koʻp qoʻllash yaramaydi, chunki bunda sochlarning tabiiyligi yoʻqoladi.

Koʻchirma va oʻzlashtirma gap (Прямая и косвенная речь)

Чужая речь , передаваемая от автора без изменений, называется прямой речью.

Косвенной речью называется чужая речь, передаваемая автором от своего лица.

Soʻzlovchining nutqi muallif tomonidan hech qanday oʻzgarishsiz berilsa, bunday gapga koʻchirma gap deyiladi.

Masalan:

Oʻqituvchi: ” Bugun talabalar oʻrtasida bellashuv boʻladi”,- dedi.

Muallif tomonidan soʻzlovchi nutqining maʼnosi berilsa bunday gap oʻzlashtirma gap deyiladi.

Oʻqituvchi talabalar oʻrtasida bellashuv boʻlishini aytdi.

Ish yuritish hujjatlaridan namunalar ARIZA

Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza ijtimoiy hayotda eng koʻp

qo'llaniladigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'qituvchisi va talaba, ishchi va dehqon, muhandis va olim, xizmatchi va yuqori mansabdor shaxs-jamiatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Arizalar bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oily o'quv yurti rektoriga, magazin mudiriga va boshqa ko'rib chiqadigan, hal qiladigan idoralar nomiga yozilishi mumkin.

Buxoro Davlat Tibbiyot
Instituti rektori,
prof.R.M.Ahmedovga
Mansurova N.tomonidan

ARIZA

Meni Buxoro Davlat Tibbiyot institutiga o'z mutaxassisligim bo'yicha ishga qabul qilishingizni so'rayman.
Kerakli hujjatlar arizaga ilova qilindi.

09.06.2008y.
N.dan

(Imzo) Mansurova

BILDIRISHNOMA

Muayyan muassasa rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron bir voqea-hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma bayondir. Unda odatda bayon qilinadigan masalalar bo'yicha tuzuvchining takliflari aks ettiriladi.

Kimga yuborilganligiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

Buxoro Davlat Tibbiyot
instituti stomatologiya fakulteti
U.I. Nurovga
Anatomiya kafedrasini mudiri
B.A. Hidoyatovdan

BILDIRISHNOMA

124,126-guruh talabalari Qayumov M. Udayev Q.dan 17 fevralda 2 soat bo'ladigan mashg'ulotga kelishmagan.
Sababini aniqlab, chora ko'rishingizni so'rayman.

17. 02. 2008yil

(Imzo) B. A. Hidoyatov

DALOLATNOMA (AKT)

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron- bir bo'lgan voqea, hodisa , ish-harakatni yoki mavjud bu holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat.

Vazirlik,yuqori idora muassasa nomi

TASDIQLAYMAN

DALOLATNOMA

(TASDIQLANGAN)

sana

(Imzo) Familiya

tuzilgan joyi

sana

Matn sarlavhasi ("... haqida")

Asos:(muassasa rahbarining (sanadagi)- raqamli buyrug'i yoki yuqori idoraning – raqamli qarori)

Raisi(shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh hariflari , familiyasi)

A'zolari : 1(lavozimi, ismi va otasining bosh hariflari , familiyasi)

2 (lavozimi, ismi va otasining bosh hariflari , familiyasi)

3(lavozimi, ismi va otasining bosh hariflari , familiyasi) dan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi , familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar

Komissiya raisi (imzo)

Ismi, ota ismining bosh harflari, familiya

Komissiya a'zolari(imzolar)

Ismi, ota ismining bosh harflari, familiyalar

Ishtirok etganlar (imzolar)

Ismi, ota ismining bosh harflari, familiyalar

Ishonchnoma

Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat . Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra mol-mulkni boshqarish , pul va moddiy buyum boyliklarni olish , sud idoralarida ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

Ishonchnoma

Men, Toshkent shahar, 1-Qorasuv dahasi 512-uy , 2-xonadonda yashovchi Bohodirov Rahmon Davronovich yon qo'shnim Odilova Saodatga shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2008-yil 16 iyun

(imzo)

Bohodirov R.D.

Bohodirov R.D. ning imzosini tasdiqlayman

Kadrlar bo'limi boshlig'I

(imzo)

I.Karimov

(muhr)

2008-yil 16-iyun

Ma'lumotnoma

Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish –axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnomalar , odatda,yuqori idora,mansabdor shaxs hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasiga , talabiga yoki iltimosiga binoan tuziladi; so'ralayotgan yoki iltimos qilinayotgan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

So'ralgan joyga.

MA'LUMOTNOMA

Ushbu ma'lumotnoma shu haqidaki, haqiqatdan ham Xasanov Rahmatilla BuxDTI ti stomatologiya fakultetining 1- bosqich talabasi sifatida shartnoma asosida tahsil olmoqda.

Kadrlar bo'limi boshlig'I
2008-yil 11-iyun

(imzo)

Bahramova S.Z.

Tushuntirish xati

Xizmat sohasidagi , xizmatga aloqador masalani , uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'naluvchi hujjatdir .

BuxDTI ning anatomiya kafedrası
o'qtuvchisi Bahromova N.A.ga
stomatologiya fakulteti 225-guruh
talabasi Rahmonov Sardor
Karimovichdan.

Tushuntirish xati

Men Rahmonov Sardor 225-guruh talabasi 12.06.2008 –yil anatomiya darsiga sababli kelolmadim, bunga sabab sog'lig'im yomonligi uchun shifokor huzuriga borgan edim. Keyingi darsgacha qoldirgan darsimni topshiraman.

12.06.2008

(imzo)

Rahmonov S.K.

Tarjimai hol

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yuzuv. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muhtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsada, goh tajimai holda ayrim qismlarini bo'lishi shart.

Tarjimai hol

Men Ahmedov Zafar Sardorovich 1989-yilda 21-mayda Toshkent shahri Shayhontoxur tumani Qoraqamish mavzesi Navoiy ko'chasi 21 uyda yashayman.

Otam -Ahmedov Sardor Azizovich, tadbirkor .

Onam- Ahmedova Olima Sharipovna, uy bekasi.

1996 yildan 2005 yilgacha Chilonzor tumanidagi 122-o'rta maktabda o'qidim. 2005 yil Toshkent Pedagogika kollejining tilshunoslik fakultetiga o'qishga kirdim. 2008 yil kollejni imtiyozli diplom bilan tugatib, shu yil Toshkent Pedagogika institutining tilshunoslik fakultetiga qabul qilindim. Hozirgi vaqtda 1-bosqichini tamomladim.

2006 yildan "Kamolot" tashkilotiga a'zo bo'ganman va kelajak ovozi ko'rik tanlovida qatnashmoqchiman.

13.06.2008

Ahmedov

Z.S.

Kasallik tarixidan namuna Pasport qismi

1. Ismi, familiyasi, otasining ismi *Hamroev Axmad Istamovich*
2. Yoshi *1961 yil 20 avgust*
3. Kasalxonaga kelgan vaqti *20.02.2008*
4. Yashash joyi *Buxoro shahar*
5. Kasbi *ishchi*
6. Doimiy yashash joyi *Buxoro shahar Mustaqillik ko'chasi 11*
7. Bemor yo'llanmasidagi tashxis *Bronxial astma*
8. Klinikada qo'ilgan tashxis *Bronxial astma*

Shikoyati

Bemor yo'talga, yo'talning asosan kechasi ya'ni yotganda bezovta qilishi, nafas qisishi, balg'am ajralgandan so'ng ahvolining biroz engillashishiga, holsizlikka shikoyat qiladi.

Anamnesis morbid

Bemor Hamroev Axmad Istamovich o'zini 2002 yildan buyon kasal deb hisoblaydi. Kasallig

ini doimiy chang sharoitida ishlagani bilan bog'laydi. Shamol changida ham kasallik bezovta qiladi. Bemorda kuchli yo'tal, nafas qisilishi, to'sh sohasining orqasida yo'tal vaqtida og'riq, hansirash, holsizlik kuzatiladi. Bemor shu vaqtgacha davolanmagan, kasalligi kuchayganligi tufayli shifokorga murojaat qilgan.

Anamnesis vitae

Hamroev Axmad Istamovich 1961 yil Buxoro shahrida tug'ilgan. Oilada 6 ta farzand bo'lib, 3 qiz va 3 o'g'il bor. Otasi va onasi zavodda ishlagan. Bemor o'rta ma'lumotli, 22 yoshida uylangan, 3 ta farzandi bor. XBK da ishchi bo'lib ishlaydi. Bemor oxirgi 6 oy ichida chet ellarda bo'lmagan. Dori preparatlariga allergik reaksiyalar kuzatilmagan.

Status objectives

Bemor ahvoli o'rtacha og'irlikda. Bemorda kaxeksiyaning 1 darajasi, vazni 50 kg, bo'yi 162 sm, normostenik tip, rangi qizg'ish, burun yoriqlari kengaygan, bemor vaziyati sust.

Nafas sistemasi

Nafas olish tezlashgan, burun va og'iz orqali. Nafas soni 25 ta 1 minutda. Pal'patsiyada ovoz dirillashi sal kuchaygan, elastiklik oshgan. Perkussiyada o'pkada qutichasimon tovush eshitiladi.

Aniqlanadigan chiziqlar	O'ng o'pka	Chap o'pka
Linea parasternalis	VI qovurg'a	Aniqlanmaydi
1. medioclavicularis	VII qovurg'a	Aniqlanmaydi
1. axillaries anterior	VIII qovurg'a	Aniqlanmaydi
1. axillaries media	IX qovurg'a	IX qovurg'a
1. axillaries posterior	X qovurg'a	X qovurg'a
1. scapularis	XI qovurg'a	XI qovurg'a
1. paravertebralis	XII qovurg'a	XII qovurg'a

Kreyning maydon 7 sm ga yetgan.

Auskultatsiyada o'pkada kuchaygan veziko-bronxial
nafas.

Yurak-qon tomir sistemasida

Yurak urushi 1 minutda 82 ta. Pal'patsiyada yurak uchi turtkisi kuchaygan.
Perkussiyada yurakning nisbiy chegarasi aniq. A/B 130/90 mm.sim.ust.

Ovqat hazm qilish sistemasida

Til karashsiz, ishtahasi pasaygan. Tishlarda karies yo'q, og'izda hid bor.
Jigar kattalashmagan, taloqda ham o'zgarish yo'q. Ich o'tishi 3-5 soatda bir.
Qorin og'riqsiz, yumshoq, metiorizm yo'q.

Siydik ajratish sistemasida

Buyraklar og'riqsiz, siydik ajralishi regulyar. Pasternatskiy simptomi
manfiy. Siydik rangi sarg'ish.

Tekshirish rejasi

1. EKG
2. Balg'amni umumiy tekshirish
3. Qonning umumiy tahlili
4. Rentgen

Davolash

Bemor yotoq rejimi. Quyidagi dori vositalari tavsiya etiladi:

1. **Rp:** Sol.analgin 25 % 1 ml

D.S. 2 ml dan dimedrol bilan m/o ga yuborilsin.

2. **Rp:** Sol. Dimedroli 1 % 1 ml

D.S. 1 ml dan analgin bilan qo'shib m/o ga yuborilsin.

3. **Rp:** Tab.Eritromitsini 250 mg

D.S. 1 tabletkadan 4-6 marta ichilsin 14 kun davomida.

4. **Rp:** Sol.Mucaltini

D.S. kuniga 3 marta balg'am yumshatish uchun 10 kun davomida berilsin.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MAVZULAR

UGLEVODLAR

Uglevodlar odam va hayvonlar o'zig'i tarkibida miqdor jihatdan birinchi o'rinni egallaydi. Katta yoshli odam bir sutkada 450-600g uglevod iste'mol qiladi.

O'simliklar organizmining 85-90% uglevodlarga to'g'ri keladi, ularning oz qismi odam ovqatlanishi uchun yaroqli bo'ladi. Masalan: sellyuloza ksilan va pektinlar. Oshqozon-ichak yo'llarida ham to'qima hujayralarida ham parchalanmaydi.

Hozirgi qabul qilingan klassifikatsiyaga asosan uglevodlar uchta asosiy guruhlariga bo'linadi: Monosaharidlar, oligosaharidlar, polisaharidlar. Monosaharidlarga: glyukoza, fruktoza, galaktoza va boshqalar kiradi. Oligosaharidlarga: maltoza, laktoza, saharoza va boshqalar kiradi. Polisaharidlarga: glikogen, kraxmal, sellyo'lioza, gialuron kislota, geparin, xondriatin-4-sulfat va boshqalar kiradi.

Gialuron kislota to'qima zichligini boshqarishda ishtirok etadi; geparin antikoagulyant sifatida ishtirok etadi; glikogen – odam va hayvondagi asosiy zaxira polisaxariddir.

Sellyuloza o'simliklar dunyosining polisaxaridi, u oshqozon'-ichak traktida peristaltikani kuchaytiradi, kraxmal – ozuqa polisaxarid.

Laktoza – sut disaharidi; saxaroza – bu oddiy ozuqa shakari; maltoza – kraxmalni oraliq hazm bo'lish mahsuloti hisoblanadi. Keng tarqalgan monosaharid glyukoza hisoblanadi, yuqori tuzilishdagi uglevodlar uning manbai hisoblanadi. Bundan tashqari glyukoza aminokislotalardan, glitserindan, piruvat (PVK) dan, laktatdan hosil bo'lishi mumkin.

Organizmdagi uglevodlar funksiyasi quyidagilardan iborat:

1. Uglevodlar energiya manbai bo'lib xizmat qiladi: odamning energiyaga bo'lgan ehtiyojining taxminan yarmi uglevodlar oksidlanishi hisobiga qondirib boriladi. Energiya almashinuvida asosiy rolni glukoza bilan glikogen o'ynaydi.

2 .Uglevodlar hujayralarning struktura-funksional tarkibiy qismlari jumlasiga kiradi. Bular qatoriga nukleotidlar bilan nuklein kislotalarning pentozalari , glikolipidlar bilan glikoproteinlar uglevodlari, hujayra aro moddaning geteropolisaxaridlari kiradi.


3. Opganizmda uglevodorodlardan boshqa sinflarga mansub birikmalar, jumladan, lipidlar va ba'zi aminokislotalar sintezlanishi mamkin.

Shunday qilib, uglevodlar ko'pgina turli-tuman funksiyalarni ado etib boradi va shu funksiyalardan har biri organizm hayoti uchun muhimdir. Lekin miqdor tomonidan olib gapiriladigan bo'lsa, u holda energiya manbai tariqasida uglevodlardan foydalanish birinchi o'rinda turadi.

Hayvonlar uglevodining hammadan ko'p tarqalgan turi glukozadir. Glukoza uglevodlarining energetik va plastik funksiyalari o'rtasida bog'lovchi halqa rolini o'ynaydi, chunki hamma monosaxaridlar glukozadan hosil bo'lishi va aksincha turli-tuman monosaxaridlar glukozadan hosil bo'laslari mumkin.

Organizm uglevodlarining manbai bo'lib ovqat uglevodlari-asosan kraxmal, shuningdek saxaroza va laktoza hosil qiladi. Bundan tashqari, organizmda aminokislotalardan, shuningdek yog'lar (triatsilglitserinlar) tarkibiga kiradigan glitserindan hosil bo'lishi mumkin.

Ovqat uglevodlari (asosan kraxmal, maltoza) ogiz bo'shlig'idagi sulak amilazasi ta'sirida hazm bo'lishi'ni boshlaydi, u 1,4-glikozid bogini parchalaydi.



Ogiz bo'shlig'ida ovqat ko'p saqlanmaydi, shuning uchun kraxmal unchalik ko'p parchalanmaydi.

Ingichka ichak – bu kraxmalning pankreatik amilaza ostida hazm bo'lishi'ning asosiy joyi, bunda 1,4-glikozid boglar parchalanadi. Asosiy fermentlar – amilo-1,6-glyo'kozidaza va oligo-1,6-glyo'kozidazalar glyo'kogen va kraxmal tarkibidagi 1,6-glikozid boglarini parchalaydi. Natijada bu polisaharidlarning parchalanishi natijasida disaxaridlar – maltozalar hosil bo'ladi. Ular 2-molekula glyukozaga gidroliz natijasida parchalanadi. Sut tarkibidagi laktoza laktazalar ta'siri ostida ichakda glyukoza va galaktozaga, saxaroza esa saxaraza ta'sirida fruktoza va glyukozaga parchalanadi. Shunday tarzda ovqat uglevodlari ularni tashkil etuvchi monosaharidlarga parchalanadi (asosan glyukoza, fruktoza va galaktoza). Ular ichak devolarida suriladi va shundan keyin qonga tushadi. Bunda alohida monosaharidlarni surilishi turlicha.

Glyukoza va galaktoza boshqa monosaxaridlarga qaraganda tezroq so'riladi. Shu narsa aniqlandiki, oddiy uglevodlarni so'rilishi uchun Na ionlari kerak bo'ladi. Ular uglevodlar bilan kompleks birikmalar hosil qiladi, so'ng kompleks parchalanadi, erkin Na ioni esa qaytadan transport qilinadi. Na ioni ATΦazani aktivlaydi, natijada ATΦ parchalanishi kuchayadi va energiya ajraladi, bu energiya surilish uchun kerak.

Odamlarni ma'lum bir qismida sut tarkibidagi laktozani ko'tara olmaslik kuzatiladi – laktozemiya. Laktozani ko'tara olmaslik orttirilgan va tugma bo'ladi. Tugma laktozemiya sababi – laktazani hosil bo'lmasligi. Vaqtinchalik laktozemiya ko'pchilik oshqozon-ichak kasalliklarida uchraydi, ayrim infeksiyon kasalliklar, oshqozon reaksiyasidan keyin. Asosiy xarakterli laktaza yetishmovchiligi – bu diareya – ovqatdan so'ng. Parchalanmagan laktoza ingichka ichakning pastki qismlariiga tushib, gaz (meteorizm) va kislota hosil

qiladi. Kislota esa osmotik ta'sir natijasida ichakdagi ko'p miqdorda suvni o'ziga tortadi – ich ketishi kelib chiqadi. Meteorizm ta'sirda ichakda kolikalar kelib chiqadi. Asosan laktoza yetishmovchiligi emiziklik bolalarda xavfli, chunki ularning asosiy ozuqasi sut hisoblanadi. Bundan ogir distrofiya kelib chiqishi mumkin.

90% dan ortiq surilgan monosaharidlar (asosan glyukoza) ichak vorsinkalari kapillyarlari orqali qon-tomir sistemasiga tushadi va darvoza venasi orqali kerakli joyga etkaziladi. Birinchi navbatda jigarga, keyin esa boshqa a'zolarga etkaziladi.

Ekologiya

“Ekologiya “ so’zi yunoncha bo’lib “oykos” – uy va “logos” –fan ma’nolarini bildiradi . Bu fan biologiyaning eng yosh lekin juda ham tez rivojlanvotgan tarmog’l bo’lib, tabiatda uchraydigan tirik organizmlarning bir-birlari va ular yashayotgan muhit bilan bo’layotgan munosabatlarni o’rganadi . Ekologiya tirik organizmlarning rivojlanishi, ko’payishi, tarqalishi ,o’zgarishi hamda ular hosil qiladigan murakkab ekologik birliklar qununlarini o’rganadigan fanga aylandi . Bu fan “tabiiy uy”da yashayotgan va shu “uy”da hayot uchun kerakli funksional jarayonlarni o’tayotgan hamma tirik organizmlarni o’rganadi . Shuning uchun ham ekologiya organizmlarni “ o’z uyi” da o’rganadigan fan deb ataladi. Bu fan organizmlar va atrof- muhit o’rtasidagi aloqalarning har xilligiga , umumiyligiga katta ahamiyat beradi.

Ekologiya o’simlik va hayvonlarning turli joylarga moslashishi , fasllar bo’yicha o’zgarishi va ayniqsa , ularning turli tabiiy mintaqalarga xosligini aniqlashda geografiya fanidan qadimdan bog’liqdir. Ekologiya tur vakillarining rivojlanish qonunlarini o’rganishda , ularga abiotik va biotik omillarning ta’sirini hamda organizmlarning o’zlari yashab turgan muhitga o’tkazayotgan ta’sirini aniqlaydi . Sodda va murakkab biologik birliklar hosil qiladigan organizmlar bir-biri bilan bog’lanadi va biotopning ma’lum joyida harakat qiladi . Ingliz ekologi A.Tenisli biotop va unda yashaydigan , doim harakatda bo’ladigan organizmlar birikmasini ekosistema deb nomlaydi.

Akademik VNSukachevning biogeosenoz tushunchasi A.Tenisli ekosistemasidan ham aniqroq bo’lib, tirik organizmlarning biologik birliklarini bildiradi : bu ikki termin (atama) ma’lum darajada bir- birlarini to’ldiradi .

Ekologiya fanning asosiy vazifasi tur vakillarini hosil qiladigan populyatsiyalar, turli senozlar,biosenozlar va ekosistemalarning hosil bo’lishi, rivojlanish qonunlarini aniqlashda ularning muhit bilan munosabatlarini yoritishdan iborat. Umumiy ekologiyaning asosiy vazifalari 1954 –yili Kiy

evda bo’lib o’tgan ekologlarning 3- konferensiyasi qarorlarida quyidagicha belgilangan:

- 1- Organizmlar va muhit o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni aniqlash uchun turlarning muhitga tarixiy moslashish yo'llarini o'rganish .
- 2- Ekosistemalarda uchraydigan turlar soni va sifati hamda turlar uchraydigan yerning iqlimi, tuproq xili, joyning holatini o'rganish .
- 3- Ekosistemaning tuzilishini , bu yerda uchraydigan turlarining bir- birlari va ularning muhit bilan hamda o'lik tabiat komponentlari bilan bo'layotgan munosabatlarini ochish.
- 4- Ekosistemaning tarkibini ko'rsatuvchi harorat, namlik , tuproqning xillari, tuzlar miqdori (suv , tuproqda) va biogen moddalarning borligi hamda oz va ko'pligini aniqlash.
- 5- Ekosistemaning miqdorini solishtirishda, uning asosiy komponentlarining o'zaro va muhit bilan aloqalarini ochib , turlarning o'sishi, ko'payish va fotosintez jarayonida hosil bo'ladigan fitomassa hamda uning hayvonlar tomonidan o'zlashtirish tezligini aniqlash .
- 6- Ekosistemalarda uchraydigan hamma komponentlarning fasllar bo'yicha , yil davomida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganib, u yoki bu ekosistema asosida umumiy qonunlar yaratish , kelajak uchun chora- tadbirlar ishlab chiqish .

K o'z kasalliklari



Minglab qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu aholiga tibbiy xizmatni yanada yaqinlashtirish, yurtimizning olis hududlarida ham tez va malakali tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratish hamda profilaktika tadbirlari ko'lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Tibbiyotning barcha jabhalarida erishilayotgan bunday yutuqlar oftalmologiya sohasidahamo'zaksinitopayotir.Hozir mamlakatimizda ushbu yo'nalishga ixtisoslashgan yuzlab shifoxonalar, bo'limlar va xususiy tibbiyot muassasalari faoliyat yuritayotir. Ijtimoiy himoya yilida xalqimiz bu borada yana bir

qulaylikka ega bo'ldi: yaqinda yangi ta'mirdan chiqqan, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi markazibinosi foydalanishga topshirildi. Markaz oftalmologik kasalliklarga aniq tashxis qo'yish, davolash va noyob usuldagi jarrohlik amaliyotlarini bajarishda foydalaniladigan jahon andozalari darajasidagi tibbiy texnika va vositalar bilan ta'minlangan.

Olimlarimiz ko'z kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va davolash borasida salmoqli natijalarga erishayotir. Bu boradagi izlanishlar samarasi o'laroq, keratoplastika, ksenotransplantatsiya, vitreoretinal xirurgiya singari noyob usullar davolash jarayoniga joriy etildi. Bunday ilmiy yangiliklar xastaliklarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash ishlarini takomillashtirish bilan bir qatorda nogironlikni kamaytirish, nogironlarni oila, jamiyat va sog'lom hayotga qaytarishda muhim omil bo'layotir. Bu borada jahondagi taraqqiy etgan ilm-fan markazlari, nufuzli klinikalar bilan yo'lga qo'yilgan aloqalar o'z samarasini berayotir. Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining akademik S.Fyodorov nomidagi "Ko'z mikroxirurgiyasi" ilmiy-texnik majmuasi ulardan biri. O'zbek shifokorlari mazkur markazga, rossiyalik olimlar mamlakatimiz klinikalariga tez-tez tashrif buyurib, o'zaro tajriba almashadilar. Anjumanda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda oftalmologiya sohasida vitreoretinal xirurgiya yo'nalishi tobora takomillashmoqda. Ko'zning shishasimon tanasiga qon quyilishi va to'r pardaga ziyon yetishi natijasida ko'rmay qolgan bemorni sog'lom hayotga qaytarishga xizmat qilayotgan ushbu noyob texnologiya Markaziy Osiyo respublikalari mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Shu bois ikki kunlik anjumanda ushbu yo'nalishdagi O'zbekiston tajribasini keng namoyish etishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tadbirda, shuningdek, glaukoma, katarakta singari ko'z kasalliklarining oldini olish, aniq tashxis qo'yish va davolashning ilg'or texnologiyalariga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglanadi. Bu borada jahon tibbiyoti hamda ilm-fani yutuqlaridan amaliyotda oqilona foydalanish bilan bog'liq masalalar xususida fikrlashiladi

Bu qiziqarli!


Uzoq vaqt davomida komputer bilan ishlaganda ko'zlar



nima uchun og'riydi?

Chunki:

- - yorug'lik nurlarining tinimsiz harakatlarini kuzatar ekan, ko'zlar toliqadi;
- - biz odatda bir daqiqada 20 marta kiprik qoqamiz. Bunda ko'z yoshlarini ishlab chiqaruvchi bezlar shohpardani namlaydi. Ekranga tikilib o'tirganimizda esa 3 marta kamroq kiprik qoqamiz. Ko'zlar "quriydi", achishadi. Mutaxassislar ko'z shohpardasini sun'iy ravishda namlab, ko'zlarga yordam berishini maslahat beradilar";
- - Ko'z va ob'ekt orasidagi optimal masofa 33 santimetrni tashkil etadi. Biroq komputer ekrani odatda 50 santimetrdan ortiq masofada bo'ladi, bu esa qo'shimcha zo'riqishga olib keladi, natijada ko'zlar uzoqni yaxshi ko'rolmaydigan bo'lib qoladi;
- - Siz nur taratayotgan nuqtalarga tikilasiz – oxir-oqibat ko'zlaringiz zo'riqadi;
- - Vaqt faktori: kamdan-kam inson 8-9 soat davomida kitob mutolaa qiladi.
- Komputer bilan ishlaganda esa bu odatiy hol hisoblanadi. Natijada ko'zlar zo'riqadi.



Toliqishdan qanday qutulish mumkin?

1. Ko'zlar uchun tinchlantiruvchi kompresslar qilishingiz mumkin. Xom kartoshkani yupqa parrak-parrak qilib kesing va ko'zlaringizni yumib, qovoqlaringizga qo'ying. O'zingizni bo'sh tuting. 5 daqiqadan so'ng kompressni olib tashlang.

2. Ko'z toliqishidan oson qutulish usuli (kosmetikadan foydalanmaydiganlar uchun).

Sovuq suvga ko'zingizni bir necha marta yuvib tashlang. Barmoqlaringizni yumuq ko'zlaringiz ustiga qo'yib, bir necha daqiqa o'tiring, hech narsani

o'ylamaslikka harakat qiling. Har kuni achchiq choy damlamasidan kompress qilish ham ko'zlar uchun juda foydalidir. Ko'zlar dam olibgina qolmay, yaltiray boshlaydi, ko'z atrofidagi mayda ajinlaringiz esa tekislanadi.

Ko'z uchun mashqlar.

Zo'riqish tufayli kam kiprik qoqayotgan bo'lsangiz, har 5 soniya ongli ravishda ko'zlaringizni pirpiratib turing. Bunda ko'z shohpardasi namlanib, halok bo'lgan to'qimalardan forig' bo'libgina qolmay, balki ko'z olmalarini ham massaj qiladi. Bu esa juda foydalidir. Bundan tashqari, ko'z olmalarini barmoqlar bilan uqalash mumkin. Avval tashqi burchakdan ichkariga qarab, so'ngra aylanma harakatlar bilan ichkaridan tashqariga qarab ohista massaj qiling. Ko'zlaringiz yumuq bo'lsin. Ko'zlarni yumib, aylanma harakatlar qilish ham g'oyat foydalidir. Mushaklar akkomodasiyasi (ko'z gavharining ravshanlashi) uchun mashq: deraza oynasi oldiga turing, navbat bilan deraza romidagi bir nuqtaga va uzoqqa nigohingizni qarating.

Ko'zlar toliqmasligi uchun:

Ekrandagi tasvir ravshanligi ko'nglingizdagiday bo'lishiga erishishga harakat qiling, bunda imkon boricha ekran aniqligi va kontrastlikni o'zingizga moslab oling. Ekran displeyiga chiroq nuri, turli akslar tushmasligi uchun uni shiftdagi chiroq tagiga emas, balki derazalarga to'g'ri burchak ostida joylashtirish kerak. Krasnodar o'lkasining bosh oftalmologi, tibbiyot fanlari doktori E.I. Volik maqolasidan parchalar keltiramiz. Ko'zlaringizni komputerdan himoya qiling! Ko'zlarning ravshanlik darajasi va komputer bilan ishlash o'zaro chambarchas bog'liqdir. Misol uchun, birinchi bor 2001- yilda amalga Komputer ko'rish Sindromi (Computer Vision Syndrome, CVS) atamasini kiritgan Amerika oftalmologlar assotsiatsiyasining ma'ruzasini olaylik. Bu ma'ruzada sindromning paydo bo'lish sabablari va uning oqibatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Oftalmolog – olimlarning fikriga ko'ra, ko'p vaqtni komputer ekrani oldida o'tkazadigan odamlarda ko'rish qobiliyatining o'ziga xos buzilishi hollari vujudga keladi. Ya'ni:

- ko'rish qobiliyati pasayadi;
- yaqindan uzoqqa va aksincha uzoqdan yaqinga nigohini qaratish qobiliyati pasayadi (akkomodasiya izdan chiqadi);
- bitta narsa ko'zga ikkita bo'lib ko'rinadi;
- kitob o'qiyotganda ko'zlar tez charchaydi;

- ko'zlar achishadi;
- ko'z va peshonada og'riq paydo bo'ladi;
- ko'zlar harakat qilganida og'riydi;
- ko'zlar atrofi qizaradi va shishadi.

Ba'zi odamlarda ekran oldida to'xtovsiz 2 soat davomida ishlaganlaridan so'ng, ko'pchilikda 4 soat, deyarli barchada 6 soatdan so'ng CVS sindromi paydo bo'ladi. Olimlar komputer ekrani oldida uzoq vaqt ishlash natijasida CVA sindromi vujudga kelishidan tashqari ko'rish qobiliyati pasayishini (yoki ilgari ham ko'rish qobiliyati past bo'lganlariniki yanada pasayib ketishi) ham ta'kidlaydilar. Ayniqsa, komputer grafikasi bilan shug'ullanish davrida ko'rish qobiliyati vaqtincha pasayadi. Tadqiqodchi olimlarning xulosasiga ko'ra, insonning ko'rish qobiliyati kompyuterdagi tasvir bilan ishlash uchun moslashmagan. Monitoringiz ekranidagi tasvirlarning alohida belgilarini aytib o'taylik:

- u o'zidan nur taratadi, tasvir aks etmaydi;
- kontrastlik past, yoritilgan xona uni yanada pasaytiradi;
- tasvir to'xtovsiz emas, diskret nuqta-piksellardan iborat;
- tasvir lipillaydi, ya'ni nuqtalar ma'lum bir chastotada yonadi va o'chadi;
- aniq chegarasi yo'q, chunki piksel asta-sekinlik bilan fonga o'tib ketadi.

Kompyuterlarning inson ko'ziga zararli ta'siri ular paydo bo'lganidayoq ma'lum bo'lgan. Monitor oldida bir necha soat o'tirib ishlagandayoq ko'zlar charchar, qizarib ketar va yoshlanar edi. So'ngra boshda og'riq paydo bo'lar edi. Ko'zlari uzoqni ko'ra olmaydigan, astigmatizmi bor, yaqinni ko'ra olmaydigan xodimlarning ko'rish qobiliyati keskin pasayib ketdi, ular tez-tez ko'zoynaklarini almashtirar, so'ngra asta-sekin nogironlarga aylanib borar edilar. Ilgari ko'rish qobiliyatining pastligidan nolimaydiganlar esa endi ko'zoynak taqa boshlar va yuqoridagilar qatoridan joy olar edilar. Diqqat: Ko'z xirurglari bugungi kunda ham zamonaviy kompyuterlar yillar davomida muvofiqlashtirilgan ekanligiga qaramay, ko'zlari operatsiya qilingan odamlarga 2-3 oy davomida kompyuter bilan ishlashni ta'qiqlaydilar. Ko'zlarning haddan ziyod zo'riqishi operatsiya qilingan ko'zga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Imom Al-Buxoriy **(810-870)**

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plamining (As- sihoh as-sitta) mualliflari ijod qilganlar. Shular ichida " Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir.

Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al- Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810yil 20iyul) da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq Al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil Jurjoniy o'z davrining ilmi odamlaridan biri bo'lib o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususida ham uning aniqligiga hech shubha yo'q. Al- Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan . U yoshligidan aql-idrokli , o'tkir zehnli va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. U o'n yoshdan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini, shuningdek Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yod olgan. Ustozi Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in baxslarda qatnashgan. 825-yili 16 yashar Al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi. Muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bog'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi.

Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik al-Hakim , Muhammad ibn Yusuf al-Farobiy Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn al-Zubayr, Imom Ahmad ibn Xanbal, Ali ibn al-Ma'daniy va boshqalardir. O'z navbatida Al-Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan . Isqoh Ibn Muhammad ar-Romodiy , Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Xojjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir. Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird ham safdosh hisoblanib, ulrning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Uzoq yillar Sharqning turli – tuman mamlakatlarida safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy 5 yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. Al-Buxoriyning At-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyorimizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas qizg'in ilmiy bahslar ko'pdan-ko'p ijodiy do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-

Termiziy o'z ustozlari va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsiddin az-Zahabiyning "Tazkirat ul-Hufos" ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida yozishicha, At-Termiziy o'z ustozining vafotidan so'ng qattiq qayg'uda botib, ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashaydi. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. ammo ba'zi xasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko'rolmas edilar. Natijada xasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab amir olimdan huzuriga kelib, "Al-Jomiy as-Sahih", "At-tarix" kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy "Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa o'zi izlasin. Lekin Olloh oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechirmaydi degan", javobni aytadi. Amirga javob yoqmaydi va ayrim fitnachilar gapiga kirib, Imom al-Buxoriyni shahardan ketishini buyuradi. Shundan keyin Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va birmuncha muddat xalqdan qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasallikka chalilib, hijriy 256-yil (milodiy 870-yil 1-sentabrda) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan "Al-Jomiy as-Sahih", "Al-adab al-mufrat", "At-tarix al-avso't", "At-tarix al-kabir", "Asomiy us-sahoba", "Kitob al-kuna" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Uning shoh asarlari hisoblanmish "Al-Jomiy as-Sahih", "Al-adab al-mufrat" kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi Al-Buxoriy merosini katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavallud kuni nishonlanib, uning maqbarasi qaytadan qurildi.

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY (824- 892)

Jahonshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalardan biri - mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad at-Termiziydir. Uning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhoq as-Sullamiy (umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan ad-Dariy taxallusi bilan ham atalgan.) at-Termiziy bo'lib u hijriy hisobda 209-yilda Termizda uncha badavlat bo'lmagan oilada tavallud topdi. U Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun unung nomiga Al-Bug'iy taxallusi qo'shib aytilgan. U dastlabki ma'lumotni shu shaharda olgan. O'rta asrlarda Termiz ham Markaziy Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand singari ilm-fan

va madaniyati rivojlangan shaharlardan biri bo'lgan. Mana shunday muhitda o'sgan at-Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egllashga zo'r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi va noyob qobilyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egllagan va boradagi o'z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon Makka va Madinada yashagan. Bu safarlarida u ilm- fanning turli sohalaridan – ilm al -qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o'zi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan o'z davrining yirik olimlari mashhur muhaddislaridan ta'lim oladi. Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Davud, Qutayba ibn Sa'iyd, Is'hoq ibn Muso Mahmud ibn G'aylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko'rsatish mumkin. Manbalarda yozilishicha, hadislarni to'plashda va o'rganishda At-Termiziy har bir qulay fursatdan unumli foydalangan. U yo'lda, safarda bo'lganda ham yoki bir joyda muqim turganda ham o'z ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislarni darhol yozib olib, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borgan. Musofirchilikdan qaytgan at-Termiziy o'z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi. U 279-hijriy (milodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo'lmagan Bug' qishlog'ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

O'z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida At-Termiziy bir qancha asarlar yaratdiki, ularning aksariyat qismi bevosita hadislarga bag'ishlangan. At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-Jomiy" (Jamlovchi). "Ash-shamoyil al-nasaviya" (Payg'ambarning alohida fazilatlarini), "Al-ilal fi-l-hadis" (Hadislardagi og'ish ishlari), "At-tarix" (Tarix) kabi asarlar shular jumlasidandir. At-Termiziy asarlari ichida eng mashhuri shubhasiz "Al-Jomiy" bo'lib, avval eslatib o'tganimizdek, payg'ambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir.

At-Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri "Ash-shomil an-nabaviya" (Payg'ambarning alohida fazilatlarini) bo'lib, ba'zi manbalarda "Ash-shomil fi shamoyil an-nabiy sallolohu alayhi vasallam" nom bilan ham keltirilgan. Bu asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlarini odatlariga oid 408 ta hadisi sharifni o'z ichiga olgan. Ushbu asar arab tilida yozilib, unga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu asarning tili ravon, uslubi g'oyat oddiyligi bilan qayd qilinib o'tishi o'rindidir. Asarning fors va turk tillariga tarjima qilinishi ham unga bo'lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi.

"Ash-shamoil an-nabaviya"ning XVI asrga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda, Movarounnahr musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. Bundan tashqari allomaning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan gazeta va jurnallarda u haqida ko'plab maqolalar chop etildi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. Afsuski, hozircha bu qimmatbaho meros jumhuriyatimizda yetarlicha o'rganilgani yo'q. Keng jamoatchilik ommasini uning hayoti va ijodi haqida g'oyatda oz ma'lumotga ega.

MAHMUD QOSHG'ARIY

(XI ASR)

Mahmud Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, huquqshunoslik sohasida, xususan turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasining ismi Husayn , bobosi Muhammad bo'lib, kelib chiqishi va tiliga ko'ra Qoshg'ariy nisbatini olgan. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etgan. Bu davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallab, turkiy adabiyot mintaqida keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy elatlar namoyondalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida bunyod etgan "Devonu lug'otit turk" kitobini hijriy 469 (1074-75)-yilda tugallab, Abbosiy xalifa avlodidan bo'lgan baland mavqe'li Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan. Asarning asosiy matni o'sha davrda keng mintaqada musulmon Sharqida, butun Yaqin va O'rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mahmud Qoshg'ariy Bolasog'unda tug'ilgan bo'lib, yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar "Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan" turkiy o'lkalarni turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi. Turli sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi. O'z ishi uchun nihoyatda boy material to'pladi. Qoshg'ariy asarida ko'p she'vashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik va morfalogik, leksik, tematik alomatlar ko'rsatilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirilib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon qilingan. Muallif ko'rsatishicha, kitob 8 ta bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot, ism, so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan.

"Devon"da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. "Devonu lug'otit turk" ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o'rtacha adabiy tildagi 10-12 so'zga she'vaga oid bir so'zga to'g'ri keladi. Lug'atda yuzlab kishi ismlari shahar va qishloq, o'lka nomlari, daryo va tog', yaylov va vodiy kabi jug'rofiy atamalar turli qabila, elat, urug', sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli soʻzlar, 700 satrdan oshiq sheʼriy parchalar ushbu asar sahifalaridan oʻrin olgan. Qoshgʻariy “Devon”ida keltirilgan VIII-XI asrlarga oid turkiy sheʼriyat namunalari u yoki bu darajada aruz vazniga oʻtish moyilligi seziladi. Aruzning rajaz, ramal, xajaz, mutaqorib vaznlari turkiy sheʼriyat namunalari ishlatilgan boʻlib, ayniqsa, rajaz bahridan keng foydalanilgan.

Mahmud Qoshgʻariy asarida dunyo xaritasi doira shaklida chizib koʻrsatilgan, unung markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Bolasogʻun, Shosh, Oʻzgan, Margʻinon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador koʻrsatilgan. XI asr jugʻrofiy tasavvurlaridan darak beruvchi xaritaning ilova qilinishi Qoshgʻariyning qomusiy alloma ekanini yana bir bora isbot etadi. Mahmud Qoshgʻariy islomdan ilgari va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, toʻplash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, etnografiya, joʻgʻrofiya xususida keng bilim doirasi til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada edi. Uning kitobida jamlangan aniq, ravshan maʼlumotlar VIII-XI asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham ogʻzaki xalq ijodi va turli lahjalarning boy manbai boʻlgani sababli imkon doirasida batafsil tavsif etildi.

“Devoni lugʻotit turk”ni oʻsha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin. Bu asar ustida tadqiqotlar olib borgan Fitrat, S.Mutallibov, B.B.Reshetov, A. Rustamov kabi olimlar Mahmud Qoshgʻariy qadimgi turkiy tillarni oʻrganishga buyuk hissa qoʻshgan oʻz davrining oʻta bilimdon olimi ekanini taʼkidlaydilar. “Devoni lugʻotit turk” uch tomda oʻzbek tilida nashr etilgan.

BAHOVUDDIN NAQSHBAND (1318-1389)

Markaziy Osiyoda XIV asrda paydo boʻlgan yana bir yirik tasavvufiy tariqat-naqshbandiya tariqatidir. Bu tariqat Xoʻja Muhammad Bahovuddin Naqshband nomi bilan bogʻliqdir. Naqshband 1318-yilda Buxoro yonidagi Qasri Hinduyon qishlogʻida tugʻiladi. 1354-yilda vafot etgan mutasavvuf olim Xoʻja Muhammad Boboyi Samosiy Bahovuddin Naqshbandning Buxoro yonidagi Qasri Hinduyon qishlogʻida paydo boʻlishini bashorat qilgan. Mazkur mutasavvuf donishmand yosh Bahovuddinni oʻziga oʻgʻil qilib oladi va uni har tomonlama tarbiyalaydi. Vafotidan oldin uni oʻz shogirdi Sayyid Mirkulolga topshiradi.

Tasavvufning mashhur bilimdoni atoqli sharqshunos Ye.E.Bertelʼsning yozishicha, naqshband taʼlimotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi... Shunga binoan Bahovuddin Naqshband umri boʻyi dehqonchilik bilan shugʻullangan. Oʻz qishlogʻida unchalik katta boʻlmagan yeriga bugʻdoy va mosh ekar edi. U uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan edi. Qishda

qamishlar ustida, yozda esa bo'ya ustida yotib kun kechirar edi. Uning uyida xizmatkor ham bo'lmagan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlik vayo'qsillikda o'tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi – “Dil ba yoru, dast ba kor”, ya'ni “doimo ko'ngling Allohda bo'lsa, qo'ling esa ishda” degan g'oyani ilgari surgan. U o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, Topgan-tutganlarini – yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga inom etgan, hukmdorlardan doimo o'zini yiroq etgan, ular oldida hech qachon ta'magirlik qilib yashamagan.

XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan “Naqshbandiya” ta'limoti Afg'oniston orqali Hindistonga va boshqa islom yurtlariga shiddat bilan tarqala boshladi. Naqshbandiya ta'limoti Temurning Mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash, mustaqik davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishda, temuriy davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

XV asrning ko'p olim-fozillari davlat arboblari san'atkorlari naqshbandiya ta'limotidan keng foydalandilar, unga o'ta ijobiy munosabatda bo'ldilar. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483- 1530) davrida undan keyingi XVI-XVII asrlarda bu jarayon ancha tezlashdi. Naqshbandiya tariqati XVI asrda Xo'ja Muhammad al-Boqiy Kobuliy Hindistonga borgandan so'ng hind tuprog'ida ham bu avj oladi. Bu mashhur mutasavvuf olim Afg'on va Hind yurtlarida Xo'ja Boqibillo nomi bilan uning shogirdi Xo'ja Ahmad Foruq Sirhindiy (1563-1624) esa Naqshbandiya ta'limotining XVII asrda Hindistonda yozilishida katta rol o'ynagan.

Shunday qilib, bizning tabarruk yurtdoshimiz Hazrati Bahovuddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyo O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida juda katta o'rin egallaydi. Naqshbandiylar savdo-sotiq bilan dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma'rifat, xattotlik, naqqoshlik, quruvchilik kabi barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug'ullanishga da'vat etganlar. Shuning uchun ham o'z davridagi ilm-ma'rifatning, adabiyotning namoyondalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmadshoh Durroniylar singari yuzlab ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoirlar va mutafakkirlar Naqshbandiya yo'lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, tinmay barakali ijob qilganlar. 1993-yilda O'zbekistonda Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi zo'r tantanalar bilan nishonlandi. Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklar qaytadan tiklandi.

AMIR TEMUR

(1336-1405)

Amir Temur ibn Amir Tarag'ay 1336-yil 8-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'da dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan

Amir Temurning yoshligi haqida malumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, Chingizxon va Botuxon bosib o'tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoy xoniga sovga sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yoqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrning mo'g'ulni xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki, uch yillik, besh yillik deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360 yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori ustidan g'alaba qozongach, 1370-yilda Movarounnahr taxtining xaqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimyat poytaxti etib belgiladi.

Temur davlatni boshqarishga katta e'tibor berib, yangi davlat tizimi bo'yicha Devoni buzrugdan tashqari, har viloyatda Devon deb boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar- bozorlar, hammomlar, yo'llar, sug'orish tarmoqlariga qarab turish va aholining huquqiy-axloqiy haraklatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug'ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o'zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan.

"Temur tuzuklari"da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarni vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shnlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rne va o'zaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi.

Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lishi bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibini tuzilishi o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Uning harbiy mahorati turli yo'nalishlarda- askariy qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum qilishda turli-tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o'rganib chiqishda, ham lashkarboshi-qo'mondonlikda namoyon bo'ldi.

Amir Temur ilm- fan, ma'naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko'rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, "Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat- hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi, ularning har birini o'z martabasiga qo'yib izzatu ikromini unga ishor qilardi".

O'zbekistonning mustaqilliga erishuvi tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. So'nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar kitoblar nashr etildi. O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan 1996-yil- Amir Temur yili deb e'lon etilishi va bu

sana jahon miqyosida nishonlanishi Amir Temur nomi oqlanib ,o'zbek xalqiga butunlay qaytganiga yorqin dalildir.

Abu Abbos ibn Muhammad ibn Kasir Farg'oniy

Abu Abbos ibn Muhammad ibn Kasir Farg'oniy (861 yil Bag'dodda vafot etgan) — buyuk astronom, matematik va geograf. O'rta asr Yevropa ilmiy adabiyotida uni Alfraganus deb ataganlar. Farg'oniy arab xalifaligining Bag'dod va Damashq shaharlarida IX asrda yashagan.

U Bag'dodda Xorun ar-Rashidning o'g'li al-Ma'mun hukmronligi (813-833) davrida O'rta Osiyolik olimlar Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abbos ibn Said Javhariy va boshqalar bilan birga ishlagan. Ular dastlab yunon olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilishgan, keyin esa o'zlari mustaqil asarlar yaratishgan. Xalifa al-Ma'mun 829 yil Bag'doddagi “Bayt al-hikmat” (“Donishmandlar uyi”) qoshida, 832 yil Damashqda rasadxona (observatoriya) qurdirgan. Bu rasadxonalarda muntazam ravishda kuzatuv ishlari olib borilgan. Ularda Farg'oniy ham faol qatnashgan, kuzatuvlarning natijasini “Al-Ma'munning tekshiilgan jadvallari” nomi bilan kitob holiga keltirgan. Bu astronomik jadvallarni aslida faylasuf al-Kindiy oxiriga yetkazishi zarur edi, ammo u xalifa Mutavakkil (846-862)ning g'azabiga uchrab qatl qilinganidan so'ng uni davom ettirish va oxiriga yetkazish Farg'oniyga qolgan. Farg'oniy bu vazifani muvaffaqiyatli hal etgan. Farg'oniyning birinchi mustaqil asari “Astronomiyaga kirish” deb ataladi. Bu asarda u o'zigacha yashagan astronomlarning ishlarini tartibga solib, izchil bayon etadi va ularda uchraydigan ba'zi kamchiliklarni tanqid qiladi. Shu asari bilan Farg'oniy o'zining yetuk astronom ekanini ko'rsatgan. Farg'oniy avvalroq astronomiyani chuqur egallaganini isbotlab, 812 yil Quyosh tutilishini oldindan aytib bergan edi. Farg'oniyning bunday yutuqlarga erishishida uning qunt bilan qadimgi yunon matematikasi va astronomiyasini o'rganishi bilan birga hamkasb do'stlarining ham xizmati katta bo'ldi. “Bayt ul-hikmat”da Farg'oniy bilan birga, Xorazmiy va Javhariydan tashqari, IX asrning mashhur matematik va astronomlari Muso ibn Shokir o'g'illari — Muhammad, Ahmad va al-Hasan (“Banu Muso”) ishlaganlar. Farg'oniy Muso o'g'illari bilan Qizil dengiz yaqinidagi Sanjor va Kufa sahrosida kuzatuvlar olib borgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Farg'oniyning yana bir asari “Osmon harakatlari va astronomiya fani to'plami haqida kitob” deb ataladi. Bu asar astronomiyadan arab tilida yozilgan birinchi kitoblardan hisoblanadi. Farg'oniyning bu asari XII asrda latin tiliga, XIII asrda esa ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan. Asarning anchagina qismini astronomik asboblarning yasash va ulardan foydalanish metodlari, xususan, astronomik kuzatuvlar uchun eng zarur asboblardan biri — Quyosh soatining bayoni

egallaydi.

Fargʻoniyning asarlariga qiziqish Yevropada XIII asrdan soʻng ham davom etgan. Uning “Astronomiya elementlari” nomli asarini Yakob Galius 1669 yilda latin tiliga tarjima qilgan va arabcha matnda bilan Amsterdamda nashr qilgan. Fargʻoniy risola ham yaratgan, masalan, Ptolomeyning “Almagest” asarining sharhiga bagʻishlab “Almagestning kirish boʻlimlari haqida oʻttiz bobdan iborat risola” nomli asar yozgan. U astronomik asboblari haqida kitoblari yozishni davom ettirib, “Asturlab haqida mukammal kitob” va “Asturlab yashash haqida” degan asarlar ham yaratgan.

NIL BILAN TILLASHGAN OLIM

Oʻrta asrlarda Movarounnahr arablar tomonidan fath etilgach, Markaziy Osiyo va Arab xalqlari oʻrtasida iqtisodiy-siyosiy va madaniy-maʼrifiy aloqalar tobora jonlandi. Jumladan, buyuk ehromlar yurti — Misr bilan Movarounnahr oʻrtasida mustahkam bogʻliqlikning vujudga kelishi ham aynan shu davrga toʻgʻri keladi. Qolaversa, Misr tarixida davlatni idora etishda, yaʼni bu yurt zaminida hukmron boʻlgan ulkan imperiyalarga asos solinishida ham koʻhna Movarounnahr bilan bogʻliq jihatlari koʻp. Yaʼni, bugun oʻtmish sahifalarini varaqlasak, Misrda hukmdorlik qilgan bir qator shaxslar aslida Movarounnahrdan yetishib chiqqani ayon boʻladi. Jumladan, Qadimiy Misrda hukmronlik qilgan va asli kelib chiqishi buxorolik boʻlgan Tuluniylar sulolasi tarixda muhim oʻrin tutadi. Tuluniylar sulolasi Misrda 868 yildan 905 yilgacha hukmronlik qilgan. Sulola asoschisi Ahmad ibn Tulun turk harbiy lashkarboshilaridan biri edi (Uning otasi IX asrning boshlarida Buxorodan bandi qilib olib kelingan). U Misrga Abbosiy xalifalar noibining yordamchisi sifatida kelib, keyinchalik oʻzi noib darajasiga koʻtariladi va Falastin hamda Suriya hududlarida ham hukmdorlik qiladi. Ahmad Tulunning oʻgʻli Xumaravayh davrida (884 y) ham Tuluniylar sulolasi oʻz hukmronligini muvaffaqiyatli davom ettirdi. Xumaravayh oʻz hukmronligi davrida yangi xalifa al-Mutadid bilan bir necha bitimlar tuzib, oʻz hukmronligini mustahkamladi. Lekin Xumaravayhning vafotidan (896 y) soʻng Tuluniylar sulolasi kuchsizlanib, keyinchalik hukmronlik barham topdi. Misr tarixchilari Tuluniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrni “Oltin asr” deb hisoblashadi. Negaki, Ahmad Tuluniy hukmronlik qilgan davrda Misr qudratli davlatga aylandi. Hukmdor tomonidan kuchli harbiy-dengiz floti tashkil qilindi. U Tuluniylar sulolasi poytaxti boʻlgan Fustatning siyosiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ham katta eʼtibor berdi. Qurilish ishlarini rivojlantirib, poytaxt — Fustatda harbiy shaharcha tashkil qildi. Qadimiy Misr tarixida Mamluklar sulolasi ham asosiy oʻrin tutadi. Ikki yarim asrdan ziyod vaqt mobaynida hukmronlik qilgan bu sulola tarixida al-Muzaffar Sayfiddin Kutuzning hukmronlik davri (1059 y.) Misr ijtimoiy-siyosiy hayotida salmoqli ahamiyatga ega. Tarixchi Shamsiddin al-Jazriyning rivoyat qilishicha, Sayfiddin Qutuz Jaloliddin Xorazmshohning jiyani (opasining oʻgʻli) boʻlib, u

o'z yurtida Xorazmshohning mo'g'ullarga qarshi janglarida ishtirok etgan. Keyinroq parokandalikka uchragan Xorazm xalqi qatorida Damashqqa kelgan. Sayfiddin Qutuz hukmronligi davrida Misr va Suriyada iqtisod, madaniyat va san'at rivoji barqarorlashdi. Me'morchilik, hunarmandchilik, chilangarlik va boshqa san'at sohalari ham rivojlandi. O'rta yer dengizi hududida joylashgan mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi. Dunyoga tahdid solayotgan Chingizxon imperiyasi Misr sultonligiga ham hujum boshlaganda Sayfiddin Qutuz barcha hukmdor musulmon sulolalarini bu bosqinchilarga qarshi kurashishga chorladi. Ko'p sonli armiya tuzib ularga qarshi kurashdi.

Misr va Movarounnahr o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, ilm-fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik rishtalari orqali ham mustahkamlik, barqarorlik kasb etgani tarixdan ma'lum. Aniqroq aytganda, azaldan ilm-fan va madaniyatning yirik markazlaridan biri bo'lgan zaminimizning dovrug'ini jahon uzra doston qilishda ko'plab olimu fuzalolarimizning xizmatu hissasi beqiyos. Xususan, nasaflik olim Abul Fazl va Abu Abdurrahmon Ismoil ibn al-Yasa' ibn ar-Rabiy' an-Nasafiy ham misrliklarni yurtimiz bilan tanishtirishda munosib hissa qo'shgan.

VIII asrda yashab o'tgan ushbu olim haqida manbalarda juda kam ma'lumot uchraydi. U haqda asosan XIV asrda yashagan Misr tarixchisi Muhiddin Abu Muhammad Abdulqodir al-Qurashiyning (1297-1373) qalamiga mansub "al-Javohir al-muziyya fi tabaqot al-Hanafiyya" ("Hanafiy toifalar haqida porloq javohirlar") nomli asarda ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, mazkur asarda shunday deyiladi: "An-Nasafiy Misrda qozi bo'lib, u hanafiya (Imomi A'zam) mazhabi bo'yicha birinchi marotaba Misrda qozilik mansabini egallagan, chunonchi, Misr ahli o'sha paytgacha Abu Hanifa mazhabi ta'limotidan bexabar bo'lgan. Misr tarixchisi Abu Said ibn Yunus "G'urabo allaziyna qadimu Misr" ("Misrda bo'lgan begonalar") nomli asarida shunday hikoya qilgan: "Qozi an-Nasafiydan misrlik olimlar — Abdulloh ibn Vahb, Said ibn Sobiq, Said ibn Abu Maryam va Abu Solih al-Jurjoniy (boshqa ba'zi manbalarda al-Harroniy deb keltirilgan) hadis rivoyat qilganlar". U Misrda qozilikni saltanat sohibi xalifa al-Mahdiy davrida — 780 yilda egallagan edi. Abu Said ibn Yunus o'z asarida yana quyidagilarni hikoyat qiladi: "Bizga Ahmad ibn Said ibn Abu Maryam hikoya qilgandi, unga amakisi shunday degan: "Ibn Lahiy'adan keyin bizga Ismoil ibn an-Nasafiy qozi bo'lib keldi. U qozilarimizning ichida eng yaxshisi bo'lib, Abu Hanifaning ta'limoti bo'yicha ish yuritardi..."

Arab xalifaligi jahonning yirik imperiyalaridan biriga aylangan o'rta asrlarda Movarounnahrda yetishib chiqqan ko'plab mutafakkirlar uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'ringa ega bo'ldilar.

IX asrda yashab o'tgan Abul-Abbos ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy xalifa Horun ar-Rashidning (786-809) vorislari al-Mo'min Abdulloh ibn Horun ar-Rashid (813-833), Mu'tasim (833-842) va Abu Fazl Ja'far al-Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan davrda avval Marv, so'ngra Bog'dod, Damashq va Qohira (Misr) shaharlarida ilmi hay'at, falakiyotshunoslik (astronomiya), riyoziyot (matematika), jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi va qator ilmiy-amaliy asarlar yozib qoldirdi.

Tarixdan ma'lum bo'lishicha, keksayib qolgan Ahmad al-Farg'oniy 861 yilda xalifa Mutavakkil farmoni bilan qadimgi Qohira — Fustat shahriga yuboriladi.

Bu yerda Ahmad al-Fargʻoniy Nil daryosi deltasi (adogʻi)ning yuqori qismida — Ravza orolida daryoning Sayyoratul ar-Rudah tarmogʻi boʻyida barpo etilayotgan suv inshooti qurilishida qatnashadi va daryo oqimining mavsumiy darajotini oʻrganadi hamda suv sathini oʻlchaydigan usturlobni kashf qiladi. Nil daryosi boʻyida qurilgan bu qadimgi gidrotexnika inshooti yozma manbalarda “Miqyos an-Nil”, “Nilometr” nomlari bilan shuhrat topgan.

“Miqyos an-Nil” Nil daryosi oqimidagi mavsumiy va davriy oʻzgarishlarni muttasil kuzatib, daryo sathi darajotlarini belgilash maqsadida bino qilingan oʻziga xos murakkab, nodir va qadimiy gidrotexnik inshootdir. Misr hududida 20 ga yaqin nilometrlar bino qilinib, ulardan eng mashhurlari Misr vodiysining yuqori qismida joylashgan Qubosh, Alofantin, Asuan, Aduf, Asna, Luqsor, Qarnaya va Rudah inshootlaridir.

Rudah Miqyosi orqali belgilangan darajotning baland yoki past boʻlishi Misr vodiysida dehqonchilik mavsumida hosildorlikning qanday boʻlishini oldindan maʼlum darajada bilib olishdek hayotiy bashorat sifatida qabul qilinib, unga katta ahamiyat berilgan.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, agar Nil daryosida sugʻorish mavsumida suv sathi faqat 12 tirsakkacha koʻtarilsa, dehqonchilikda hosil mutlaqo boʻlmay, mamlakatda ocharchilik boshlangan, 13 tirsakda esa bugʻdoy hosil tugmagan, 14 tirsak hajmda oʻrtacha hosil yetishtirilgan, 15 tirsakda ekinlar yaxshi hosil bergan, 16 tirsakda esa hosil nihoyatda koʻp boʻlib, mamlakatda maʼmurchilik boshlangan. Xullas, Nil daryosi oqimidagi mavsumiy oʻzgarishlar va ularning darajotlari muttasil kuzatilib, oqim sathini belgilash, shubhasiz, Misr dehqonchiligi taqdirini belgilab bergan.

Inshoot devori boʻylab arab tilida nilometr haqidagi toshga oʻyib ishlangan yozuvlar joylashtirilgan. Unda ushbu nilometrning taniqli astronom va matematik olim Abul-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniy tomonidan bunyod etilgani ham koʻrsatilgan boʻlib, yozuvlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Ibn al-Zayr “Kavoniy zayira” (1412 y) asarida yozishicha, Misr xalqi hayoti rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan buyuk vatandoshimiz Ahmad al-Fargʻoniy vafotidan soʻng Qohira yaqinidagi Karafa maqbarasiga dafn etilgan.

Muso al Xorazmiy.

Xorazmiy “Al- jabr val muqobala“ kitobi bilan matematika tarixida birinchi boʻlib matematika faniga asos soldi.

Muhammad ibn Muso al- Xorazmiy (783-850 yillarda yashab ijod qilgan) qadimgi Xorazm diyrida tugʻilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli xil sohadagi bilimlarni u oʻz ona yurti Xorazm va Movorounnaxr shaxarlarida koʻpgina ustozlardan oladi. Soʻngra u halifa Maʼmun zamonida (813-833 yillar) “Bayt ul- hikmat”da mudir sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Zamonasining mashxur matematigi, astarnomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qoʻshdi. Xorazmiy 20 dan otqi asarlar yozgan. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari “Al – jabr val - muqobala”, “Hind hisobi haqida”, geografiyaga oid asarlari “Kitob surat ul - arz” (Yer surati), astranomiya oʻid asarlari “Zij” va “Ustirlab bilan ishlash haqida”, tarixga oʻid

asarlari “Kitob at - tarix”, “Yaxudiylarni taqvimini va bayramlarini aniqlash haqida risola” nomlari bilan atalgan.

Hatto “algebra” atamasi ushbu kitobning “al – jabr”deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida “Algoritmi” atamasi shaklida o`z ifodasini topadi. Uning “al- jabr” asari asrlar davomida avlodlar qo`lida yer o`lchash, ariq kovlash, bino qurish, merosini taqsimlash va boshqa turli xil hisob va o`lchash ishlarida dasturulamol bo`lib xizmat qilgan.

Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o`nlik hisoblash tizimining Yevropada qolaversa, butun dunyoda tarqalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, buyuk vatandoshimiz Al- Xorazmiy al –jabrni mustaqil fan darajasiga ko`tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o`zidan o`chmas iz qoldirdi. U arab, fors, hind, yunon tillarini o`rgandi. Bag`dod o`lkasi ilmiy va madaniy markaz xisoblanardi.

Abu Mansural-Motrudi

“Bayt ul–hikmat” Donishmandlar uyi Islom sharqining o`sha davridagi fanlar akademiyasi.

Kalom ilmi ravnaqiga ulkan xissa qo`shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Moturudiy taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi Moturud qishlog`ida tug`ildi. Abu Mansur al- Motrudi islom odob qoidalari, ma`naviy va axloqiy kamolot sirlaridan ta`lim berishga mo`ljallangan qator asarlar yozgan.

Ulardan “Kitob at - Tavhid” (“Allohnig birligi”) va “Ta`vilat ahl as– sunna” (“Sunnilik an – analari sharxi”) nomli asarlarigina saqlanib qolgan.

Ularda diniy ta`limot, islomiy urf- odatlar, insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanish mohiyati talqin etilgan. Abu Mansur al- Motrudi 944 yilda Samarqandda vafot etgan.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarimiz tiklanayotgan, Vatanimizda 2000 – yilning noyabr oyida Abu Mansur al- Motrudiyning 1130 yilligi nishonlandi. Samarqandda Abu Mansur al- Motrudi xotirasiga bag`ishlangan yodgorlik majmui barpo etildi, asarlari o`zbek tilida nashr ettirildi.

Abu Nasr Farobiy. 873 – 950 yillar da yashagan

Allomalar ichida alohida o`ringa ega bo`lgan Farobiyning to`liq ismi – Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug` Farobiy.

Jahon madaniyatiga katta xissa qo`shgan O`rta osiyolik mashxur faylasuf, qomusiy olim Farobiy 873 yilda turkiy qabilalardan bo`lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg`og`idagi Farob (hozirgi O`tror) shaxrida tug`ilgan. U Fa`robda boshlang`ich ma`lumotni olgan. So`ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda ta`lim olgan. O`z ma`lumotini oshirish uchun Arab xalifaligining madaniy markazi bo`lgan Bag`dodda o`qishni davom ettirgan. Farobiy 949-950 yillarda, Misrda, so`ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as Sag`ir” qabristoniga dafn qilingan.

O`rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog`liq. Farobiy o`z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo`shganligi, yunon falsafasini sharxlab,

dunyoga keng tarqatganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulugʻlanib “Al – muallim as - Soniy” – “ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” degan unvonga sazovor boʻlgan. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Faʼrobiy oʻrta asr davri, tabiiy ilmiy va ijtimoiy bilimlarini qariyb barcha sohalarida 160 dab ortiq asar yaratgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy- siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq tarbiyaga, fiqrxshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlari, “Baxt saodatga erishuv yoʻllari” (“Risola fi-t tanbex ola asbob as- saodat ”), “Shaxarni boshqarish” (“As – siyosat an – madaniya”), “Urush vat inch turmush haqida kitob”, “Fazilatli xulqlar” (“Asashrat al – Fazila”) va boshqalardir.

Oʻrta asr mutafakkirlaridangina, amas, balki yevropalik olimlardan hambir necha asr ilgari Farobiy adolatli jamiyat qurish nazariyasini yaratishga katta hissa qoʻshgan. U jamiyatning kelib chiqishi va davlatni boshqarishning asosi haqidagi bilimlar tizimini ishlab chiqdi. Uning bu xizmatlari jahon tarixiy – falsafiy adabiyotlarida tan olinib, yuksak baholangan.

Abu Rayhon Beruniy.

973 – 1048 yillar da yashagan

Xorazmda yetishib chiqqan astranomiya

, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, mineralogiya, tarix fanlaridan mukammal bilimga ega boʻlgan. Abu Rayhon Beruniy jahon ilm fani tarixida eng mashxur siymolar qatoridan joy olgan.

Abu Rayhon Beruniy 973 yili Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shaxrida tugʻildi va yoshligidanoq ilm fanga qiziqishi ortib bordi.

Abu Rayhon Beruniy oʻz umri davomida 160 ga yaqin asar yozib, oʻz xalqiga katta ilmiy meros qoldirdi.

Abu Rayhon Beruniy oʻzining eng mashxur “Qadimgi xalqlardan yodgorliklar”, “Maʼsud qonuni”, “Hindiston” nomli asarlarida Farobiy, Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlarini ijobiy rivojlantirdi.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi, eng mashxuri bashariyatning belgilanishidir” deb bayon etadi. U jamiyat tizimi yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojining rolini koʻra oladi. Ehtiyojlar (ovqat, kiyim kechak va h.k.) ni qondiruvchi zaruriyatlar kabi moddiy omillar insonlarni birgalikda yashashga daʼvat etadi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, ehtuyojlar turli – tuman va son sanoqsizdir.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonning eng oiliy baxti bilimda, chunki u aqlga ega.

Abu Rayhon Beruniy madaniy hamkorlik va ilm maʼrifatning keng tarqalishiga eʼtibor berdi.

Ahmad Yassaviy 1041 – 1167 yillar da yashagan

“Yassaviya” tariqatining asoschisi Hoji Ahmad Yassaviy 1041 yilda Sayramda – Yassida (Turkiston) Shayx Ibrohim oilasida tugʻilgan. Uning vafot etgan vaqti manbalarda 1167 yil deb yozilgan. Ahmad Yassaviy yoshligida ota -onasidan ajraldi. Ahmad Yassaviyning “Hayotnoma” larida unga yeti yoshli chogʻlarida

turkiy xalqlarning avliyolaridan Arslon Boboning nazari tushgani aytiladi.

“Devoni hikmat” asarida shunday yozadi:

“Yetti yoshda Arslon boboga qildim salom,

Haq mustafo omonatin qiling in’om.

O’shal vaqtda ming bir zikrim qildim tamom,

Nafsim o’lib ochdim ma’no.”

Ahmad Yassaviy dastlabki ta’limotni Yassida oladi. So’ngra Arslonbobo ko’rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniyydan ta’lim oladi. Ahmad Yassaviyning o’zi “Ustoz Yusuf Hamadoniyyning huzuriga 23 yoshida borganini va ul hazratning tarbiyasiga noil bo’lganini aytadi”. U yerda tasavvuf ta’lim olib, so’ng o’z yurti Turkistonga qaytadi. O’z ta’limotini targ’ib qilib, shogirdlar muridlar tayyorlay boshlaydi.

Risolalarga ko’ra Yassaviy 63 yosh (Payg’ambar yoshi)ga yetgach, yer ostida xujra yasatib “chilla” ga kirgan. Qolgan umrini toat-ibodat qilib, o’zini allohga bag’ishlab, qimmatli hikmatlar

yozib , riyozatlar chekib , yer ostida o’tkazga .Bu rivoyatga ko’ra, u 125 yil , boshqa rivoyatga ko’ra 133 yil yashagan.

Ahmad Yassaviy o’zini , o’zgalarni kamtarlikka chaqiruvchi 4400 hikmat yozib qoldirgan .

Sohibqiron Amir Temur bobomiz Turkistonda Ahmad Yassaviy xoki ustida juda baland , go’zal maqbara qurdirgan. Har yili dunyoning hamma burchaklaridan minglab , ziyoratchilar Turkistonga Ahmad Yassaviyning tabarruk xotirasi uchun keladilar.

Najmiddin Kubro. 1145 – 1221 yillar da yashagan

Musulmon olamidagi eng zabardast tasavvuf ta’limotining

Buyuk siymolaridan biri vatandoshimiz Najmiddin Kubrodir. Najmiddin Kubroning to’liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. U 1145-yilda Xorazmning Xiva shahrida tug’iladi . Bolalik paytidayoq ilm istab Misrga boradi hamda tasavvufga oid ilmlarni qunt bilan o’rganadi . Unga Misrdagi Shayx Ibrohim “ Najmiddin degan nom bersa ” Tabrizdagi Shayx Ismoil Kasriy “ Kubro ” - “ Ulug’ ” laqbini beradi. Najmiddin Kubro hadis va shariatga asoslanib “Kubraviya ” tariqatiga asos soladi. Misrdagi ustoz va qaynotasi Ruzbexon maslahati bilan o’z vatani-Xorazmda xonaqoh qurdiradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e’tibor berdi.

“Kubraviya ” tariqati Xuroson , Movaraunnahr va Hindiston

Ali Akbar Dehxudoning mashxur “Lug’atnoma”sida ko’rsatilishicha, u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziytrakliklariva tunganmas zakovatleri tufayli har qanday muammoli masalani so’raganda, hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan baxs, munozara qilsa, g’olib chiqar edilar.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi hayoti o’ta og’ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. 1221 yilning iyul oyida chingizxon lashkarboshchilaridan biri o’zining yosh o’g’li, tumonat lashkari bilan Urganch qa’lasini qamal qilib oladilar. Urganch shahri qamal ichida qoladi. Munkillab qolgan 76 yoshli Najmuddin Kubro lashkar to’plab, qo’lida qurol bilan qa’lani bir necha kunn dushman hamlalaridan saqlab, turadi. Mo’g’ul bosqinchilariga qarshi jangda o’z

muridlari bilan shahid bo'lgan. U kishining jasadini darrov topisha olishmagan. Chunki u zot qiyma- qiyma tashlangan. Urganch shaxridan chiqq borishda ul zotga maqbara qurilgan.

Har bir inson Najmiddin Kubrodek vatanparvar, bilimdon, zukko, komil inson bo'lishga intilishi lozim.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashxurligini eshitib, Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, "Men xorazmni qamalqilmoqchiman, shuning uchun sizdek ulug'vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman." degan. Ammo Shayx unga javoban: "Men 70 yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchik – chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo – qazolar yog'ilayotgan paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi" deb javob berganlar.

Najmiddin Kubroning "Risolatun adab ul – zokirlik" yoki asl ismi "Al – Usul al – ashara" ("O'n usul" yoki "O'n asos") nomli asari arab tilida yozilib, fors tiliga tarjima qilingan holda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi. Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Rudakiy. Asli ismi Abu Abdullox Zafar ibn Muhammad Rudakiydir.

Ayrim manbalarda 10 ming boshqa manbalarda 1 mln 300 ming misra sh'er yozgan adib sifatida ancha mashxur, afsuski bizgacha uning faqat 2000 misrasigina yetib kelgan. Rudakiy "Odamush shuarro" ("shoirlarning odam otasi") degan nomlar bilan shuxrat qozongan. Rudakiy IX asrning 50-60 yillarida Panjrud qishlog'ida tug'ilgan. X asrning 40 yillarida vafot etgan. U yoshligidanoq epchil, ashula aytish bilan mashg'ul bo'lgan. Ayni paytda badiiy ijod bilan shug'ullangan. U Samarqand madrasasida o'qiyotganida Somoniylar poytaxti Buxoroda ancha mashxur bo'lgan.

U saroy xizmatiga oliniladi. Ammo qarigan chog'ida saroydan quviladi. Rivoyatlarga qaraganda uning xurfikrliligi uchun ko'zidan mil tortilganligidan xabar beriladi. Somoniylar podshohi Nasr II (924-942 yillar) Hirotida ziyofatda yuraveradi. Shunda u g'azal oqiydi. Shox qaytadi.

Naxshariy.

Asli ismi Abu Bakr Naxshariydir. Ul zot 899 – 959 yillarda yashab ijod qilgan.

O'rta Osiyo tarixnavishligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo'lmish "Tarixi Buxoro" deb shuxrat qozongan nodir asarning muallifidir. U o'z asarini 943 – 944 – yillarda arab tilida yozgan va shu yil taxtga o'tirgan. Somoniylar shoxiga in'om etilgan "Tarixi Buxoro" o'zida ham va boshqa tarixiy manbalarda ham muallif hayoti haqida kengroq ma'lumot uchramaydi. Faqat XII asr muallifi somoniy "kitob ul – ansob" asarida to'liq ma'lumot berilgan.

Yusuf Hos Hojib.

Yana bir sharqning buyuk allomalaridan biri bo'lmish Yusuf Xos Hojib (Ul zotning tavallud topgan va vafot etgan yillari ma'lum emas, lekin ayrim ma'lumotlarga qaraganda ul zot o'rta asrlar) ul zotning «Qutadg'u bilig'» (Saodatga boshlovchi

asar) nomli asridur. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifasi har tamonlama tahsil qilinadi. «Qutadg'u hilig'» da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand va savdogorlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qo'yadi. «Qutadg'u bilig'»da axloq, odob va ilm- marifatga doir ko'p qimmatli pand- nasihatlar keltiriladi. Muallif rostg'o'ylik, halollik, odob, sadoqat va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifatga sadoqatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham o'z dostonini «Qutadg'u bilig'» deb ataydi. Unda ilm va ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm- fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat etadi.

Mahmud Qoshg`ariy.

XI- asrda yashab ijod qilgan buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otut turk" asarida qadimgi turkiy xalqlar hayoti, urf- odati, til xususiyatlarini tasvirlab bergan. Quyidagi shu asardagi fikrlarga tayangan holda qadimiy turkiy qavmlar haqida ayrim ma'lumotlar keltiraman "Turkiylar nafar qabilalardan iborat bo'lgan" deb yozadi. Mahmud Qoshg'ariy Har bir qabilaning son sanoqsiz urug'lari haqida Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha eng to'g'ri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan "forslar va arab" tilidur

Abulqosim Zamaxshariy.

Sharqning buyuk allomasi asli ismi Abulqosim Mahmud Az-Zamaxshariy - 1075 - 1144- yillarda yashab ijod qilgan. Bu davrda Xorazm diyorida tavallud topgan allomalardan biridir. Ul zot 1075- yili Xorazmning Zamaxshar(qishloqcha) qabilasida dunyoga kelgan. Dastlab ma'lumotni u otasidan oladi. So'ngra madrasada tahsil ko'radi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik ul zotni Buxoro, Marv, Bog'dod, Hijoz, Nishopur, Isfahon, Shorn va Makkada hayot kechirib, arab tili grammatikasi va lug'ati, maqollari, urf- odatlarini chuqur o'rganishga sabab bo'ldi. Mintaqa geografiyasiga doir ma'lumotlarni to'playdi. Az- Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid ellikdan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan "Al- Mufasal" xorazmshoh Otsiz (1127–1156) ga bag'ishlangan «Muqaddamat ul- adab», «Tog'Iar, joylar va suvlar haqida kitob», kabi asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. «Notiqlik asoslari» va «Aruzda o'lchov» (mezon) asarlari qimmatli manbalardan hisoblanadi. Zamaxshariyning Quroni Karim tafsiriga oid «Al- Kashshof» asari musulmon olamida ayniqsa mashhurdir. Qohirada dunyoga dong'i ketgan Al- Azxar diniy dorilfunining talabalari «Al- Kashshof» asosida Quroni Karimni o'rganadilar. Az- Zamaxshariyning keng bilimi, fanning turli sohalariga doir salmoqli va mazmundor asarlari u hayot paytlaridayoq musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan edi. «Arab va g'ayri arablar ustozlari» va «Xorazm fahri» kabi sharaflilar nomlari bilan ulug'langan. U 1144- yilda 69 yoshida Xorazmda vafot etadi.

Burhonuddin al-Marg'inoniy

1118-1197—yillarda yashab otganlar. Mashhur faqih (huquqshunos) 1118-yilda Farg'ona vodiysining Rishton shaharchasida tavallud topgan. U sulton Marg'ilon, Samarqand, Buxoro hamda Movaraunnahrning boshqa shaharlarida Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, islom huquqshunosligi bo'yicha chuqurbilimga ega boldi. Burhonuddin al-Marg'iloniy Abu Xafs Nasfiy. Xusomuddin Umar as-Saraxsiy, Abu Umar ibn Ali Poykandiy, Ahmad ibn Rashid aUBuxoriy va boshqa ko'pgina faqih ulamolaridan ilm o'rganadi va Hadis. islom huquqshunosligini puxta egallab, «Hoshlovchlar uchun du'slabki "Mazhahnmng yoyilishh", "dillarni ziyoda qiluvchi kitob», alnson niaibitrivatluri haqida kitoh» kabi asarlarni yaratdi. Burhonuddin al-Marg'iloniy eng va qimmatli asari arab tilida yozilgan to'rt jildlik «Hidoya» asridir. Bu islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan. Kilob bir qancha tillarga tarjima qilingan.

Ahmad Yugnakiy.

Tugilgan yili 1147-1150-yillarga to'g'ri keladi. Ahmad Yugnakiydan yagona adabiy meros yetib kelgan. Bu asarning nomi «Hibat ul-haqoyiq»dir. U turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorligi hisoblanadi. O'z asarida shoir Yusuf Xos Hojib singari ilm-faoli va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatparvarlikni targ'ib etadiganlarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Abulqosim Firdavsiy.

Abulqosim Firdavsiy nomi jahon adabiyotining Sofokl, Shekspir, Alisher Navoiy, A.S. Pushkin singari mumtoz vakillar bilan bir qatorda turadi. Shuning uchun ham uning qalamiga mansub «Shoxnoma» ning umumiy ta'lim maktablaridan 9-sinflarida mazkur siymolarning shox asarlari bilan o'tilishi tasodifiy emas. Firdavsiy fors-tojik adabiyotining qanchalik buyuk namoyondasi bo'lmasin, uning hayotiga oid ma'lumotlar nihoyatda oz. Buyuk shoirning tavallud yili aksar manbalarda va ilmiy tadqiqotlarda 920-941-yillar orasi, deb kelingan. Eron hukumati Firdavsiyning ming yilligi munosabati bilan 934-yilni uning tavallud sanasi sifatida qabul qilingan. Ammo taniqli fors adabiyotshunosi Sayid Nafisiy keyingi yillarda olib borgan izlanishlari natijasida Firdavsiy 940-941 yili tavallud topgan degan to'xtamga kelgan.

U ijod bilan shug'ullana boshlaganidan so'ng o'ziga Firdavsiy taxallusini olgan («firdavs» so'zi jannatbog'i ma'nosida kelgan)

U Mahmud G'aznaviyga 30-35 yillik ijodiy mehnatining samarasi bo'lmish asarini taqdim etadi. Orzu-umidlari ushalmagan asari qadrlamagan Firdavsiy shoxning bunday munosabatiga javoban «Sulton Mahmud haqida hajviya» asarini yozadi. Ayrim olimlar buni boshqa shoir yozgan deb faraz qilishgan. Bir rivoyatda aytilishicha, Firdavsiy Hirotga borib, u yerda olti oy mobaynida yashagan. So'ng o'lim havfini o'tgan, deb hisoblab Tusga qaytgan. Tusdan esa Tabariston hokimi Shaxriyor xuzuriga borib «Shohnoma»ni unga taqdim etmoqchi bo'lgan. Shaxriyor shoir bilan Sulton Mahmudni yarashtirish fikriga tushib, hajviyaning har bir baytini hatto ming dirhamga sotib olishga va'da bergan.

Milliy qadriyatlar



«Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona-yurtga muxabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda». Darhaqiqat, bu masalalarning ijobiy yechimi ma'naviy ishlarimizning o'zagini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz, “Xalq so'zi” gazetasi xabar beradi.

Ulug' yurtning bo'y-basti



Milliy qadriyatlar degan keng ma'nodagi tushunchalarning turli ko'rinishlarini xalqimiz hayotida ko'rib, kim quvonmaydi, deysiz. Qodir hoji mahalladagi yig'inda o'rtagabir taklifni tashladi - Azizlar, milliy qadriyatlarimizni tiklash va asrab-avaylash borasida Yurtboshimiz ko'p savobli ishlarga bosh-qosh bo'lmoqdalar. Ayniqsa, ulug' ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishda amalga oshirilgan ishlarga qarang. Agar rozi bo'lsalaringiz har uydan ota bilan o'g'il chiqsa, bir borib ajdodlarimiz xokini ziyorat etib qaytardik. Taklif hammaga yoqdi. Dastlab al-Buxoriy hazratlarini ziyorat qilib qaytishdi. So'ng esa al-Farg'oniy, Amir Temur, Moturidiy... Bu an'anaga aylandi. Yaqinda ular bir avtobus bo'lib, Mustaqillik maydonini kelib ko'rishdi. Hamma xursand, hammaning ko'nglida iftixor. Milliy qadriyatlarimiz haqida so'z

ketganda biz yoshlarimizga ajdodlarimiz hayotini kengroq tushuntirib berishimiz lozim. Yosh avlodning bu haqdagi tushunchalari qotib qolmasligi uchun matbuot, televideniye va radio milliy qadriyatlar haqida tez-tez chiqishlar qilishi kerak. - Uzbekiston - ulug' yurt. Shuni anglash uchun uning bo'y-bastini qalb ko'zi bilan ko'rish kerak, - deydi Qodir hoji yoshlarga qarata. Haq gap. Zero, ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan milliy qadriyatlarimiz doston qilsa arzigulik xukmat dunyosidir.

Urf-odating unutma




Davralarda qariyalarimizning yoshlarga qarata «ota-buvangning urf-odatlarini unutma, bolam», degan nasihatlarini tez-tez eshitamiz. Ikkinchi voqea shu xususda...

...Hovlida to'y boshlandi. Eshikdan kirib kelayotgan mehmonlarni joylashtirayotgan yigit «qariyalar o'tiradigan joy to'lib qoldi», deb, 5-6 nafar keksani yoshlar yoniga boshlab bordi. Bu holni kuzatib turgan mahalla oqsoqoli unga tanbeh berib, haligi keksalarni qariyalar o'tirgan joyga yubordi. O'zidan kattalarni ko'rgan bir necha kishi shartta o'rnidan turib «Sizlar bu tomonga o'ta qolinglar, biz hovliga chiqamiz» deb hurmat-izzat ko'rsatdi. Qanday chiroyli bo'ldi. Axir, urf-odatimiz bo'yicha uyning ham, to'yning ham to'ri keksaparniki ekanligini o'ylar ekanmiz, yoshlarimizning saboq olishi kerak bo'lgan bu masalaning nozik tomonlari borligini ham unutmasliklarini istardik. Qizlarimiz, ayollarimiz erkakning yo'lini kesib o'tmaganlaridek, yoshlarimizning keksalarga doimo yo'l berishlari, ularga salom berishi, izzat-ikromini joyiga qo'yishlari ajdodlarimizdan qolgan urf-odat. Ma'lumki, qaysi mahallada keksalar hurmati baland bo'lsa, ularning gapi ham baland bo'ladi. Har bitta mahallaning oqsoqoli bor, lekin shu mahallada boshqalar gapini ikki qilolmaydigan odamlar ham bor. Ular o'tkir fikrli, oqqorani yaxshi tanigan, hurmatli insonlar. Mahallaning issiq-sovug'ini yaxshi biladi. Kimning oilasi qanday, kimning bolasi nima bilan band, hammasini biladi. Biz tarbiyada ularning yordamlariga ham tayanamiz.

Bir joyda bo'lganimda dasturxonga non qo'yishdi. Uy egasi hadeganda nonni ushatmadi. Bir mahal u davramizda o'tirgan o'g'liga tanbeh berdi. «Dasturxonga non qo'yilgach, ushatish yoshlarning vazifasiga kiradi, o'g'lim, nimani kutayapsan?». Qarang, shu kichkinagina odatda ham yoshlarimiz o'rgansa

arziydigan hikmat bor. **Vatanga muhabbat oiladan boshlanadi** - Onani hurmat qiling, deb bolalarga har kuni aytamiz, nega Vatanni hurmat qiling, deyishdan tiyilamiz? — deydi Olimjon o'rtog'im. Navbatdagi voqea shu o'rtogimning hayotidan olingan. - O'zim tarixiy kitoblarni yaxshi ko'raman, — deydi u. — Ayniqsa, ulug'larimiz haqidagi kitoblar jonidilim. Pirimkul Qodirovning «Yulduzli tunlar», Muhammad Alining Amir Temur haqidagi kitoblarini 10 tagacha sotib olib, qiziqqanlarga ulashganman. Bir kuni kitob bozoriga borib avval O'zbekiston xaritasini oldim, so'ng kitob qidirib yurib Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Cho'lpon, Fitrat kabi ulug'larning suratlar to'plamiga ko'zim tushib qoldi. Shartta xarid qildim. Uyga kelib bolalarimning darsxonasiga hammasini chiroyli qilib osib qo'ydim. Ularga har bir rasm haqida maktab kutubxonasidan ma'lumot to'plashni tayinladim. Oradan bir oy o'tib bolalarim hatto men bilmagan narsalarni ham aytib, lol qoldirishdi. O'rtancha o'g'lim gap orasida: - Dada, Vatanimizda buyuk odamlar ko'p bo'lgan ekanda. Qarang, dunyoga nomi ketganlarning hammasi bizning yurtimizdan... Men ularga ajdodlaringiz kim ekanligini yaxshi tanib olsalaringizgina sizlardan yaxshi odam chiqadi, dedim. O'tmishda o'tgan ajdodlarimiz hayoti bolalarimiz uchun bir umr o'rgansa bo'ladigan hikmat, og'ayni... O'rtog'imning hamma gaplarini ma'qulladim va bunday oilalar soni tobora ko'payib borayotganligidan astoydil quvondim. Yurtga muhabbat oilada niholdek ekilsa, u kelajakda ulkan daraxtga aylanadi. Chunki niholning ildizi biz muqaddas deb hisoblagan oilada tomir ota boshlaydi.

Halol mehnat va fidoyilik



Istiqlolga sadoqatni nimalarda ko'rish mumkin? Ikki kishiga shu savolni berdim, har ikkovi ham ikki xil javob berdi. Ularning birinchisi fermer, ikkinchisi tadbirkor. Nima deyishdi deysizmi, marhamat eshiting...

Fermer:

- Men Ergash Izbosarovman. 5 yildan beri fermer xo'jaligini boshqaraman. Yoshim 60 dan oshdi. Shu yillar mobaynida tuman rahbari ham bo'ldim, o'nlab xo'jaliklarga raislik qildim, lekin bugungiday o'z mehnatimdan zavqlanmaganman. 200 gektardan ortiq yerda erkin dehqonchilik qilaman. Istiqlol menga, avvalo erkinlik berdi. Topgan-tutganim o'zimmiki. Xo'sh, nima uchun yalqovlik yoki dangasalik qilishim kerak, nima uchun shu Vatanga, shu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishim kerak emas. Vijdoni bor odam o'z umr mazmunini Istiqlol yo'lida ko'rishi tabiiy. Tadbirkorning gapi lo'ndagina bo'ldi:

- Istiqlol tufayli tadbirkor tug'ildi. Demak, halol mehnat va fidoyilik Sadoqatdir! Ha, ma'naviyat yurtda bo'layotgan buyuk o'zgarishlar bilan hamohang. Faqat uning mag'zini chaqib, odamlarga hishatdek ulashish kerak.

SUMALAK- KO'KLAM MO'JIZASI

Qadim zamonlarda bir kambag'al ayol yashagan ekan. Uning Hasan va Husan degan o'g'illari bo'lib, ular hali juda ham yosh ekanlar. Ayolning topgan-tutgani qishligiga zo'rg'a yetib, bir amallab ko'klamga chiqib olibdilar. Uylarida yegulik hech narsa qolmabdi. Ikki norasidaning qorni ochib, non so'rab, zor-zor yig'lashlarini ko'rib onaizor chidab turolmabdi. Ona bechora nima qilarini bilmay, O'choq boshiga boribdi-da:

- Bolalarim, bir pasgina o'ynab o'tiringlar, men hozir sizlarga ovqat pishirib beraman, - deb qozonga suv solib, tagiga o'tqalabdi. So'gra dalaga chiqib, o'tgan yilgi bug'doy poyadan bug'doy tomirlarini, endigina nish ura boshlagan har xil o't-o'lanlarni terib kelib, ularni yuvib qozonga solibdi. Suprasini qoqqanda bir-ikki kaft un-urvoq chiqibdi va uni ham qozonga solib qaynataveribdi. Kovlayotganda ovozi chiqib bilinib tursin deb, besh-oltita toshni yuvib qozonga solib, cho'mich bilan aylantiraveribdi. Har aylantirganda toshchalar charqlab ovoz chiqarar, buni eshitgan Hasan va Husan "onamiz bizga ovqat pishirayaptilar",- deb suyunishib, o'ynay boshlashibdi. Bolalar o'ynab-o'ynab charchab uxlab qolibdilar. Ona bo'lsa qozonni kovlashdan to'xtamay, ko'z yoshi shashqator bo'lib, Tangriga iltijo qilibdi:
- " Ey, Xudo. Shu pishirayotgan ovqatimga nazar tashla. Ikki norasida rizqini o'zing yetkaz, shirinligini ato qilgin. Biz g'ariblardan marhamatingni darig' tutma".

Tongga yaqin ona ham kovlashdan charchab, qozonning qopqog'ini yaxshilab yopib, dimlabdi-da, bolalarning yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab bolalarning shovqinidan uyg'onib qolib qarasa, Hasan-Husanlari qozonga qo'lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotgan edi. Mo'jiza ro'y bergandan ko'zlariga ishonmagan onaizorning o'zi ham jimjilog'i bilan qozondagi taomdan yalab ko'rsa, shirin narsa ekan, shunda bolalar:

- Ona bu ovqatingizni nomi nima? – deb so'rashibdi. Ona qozon to'la qizg'ish shirinlikni bolalari tez-tez yalayotgani ko'rib ;
- Bolalarim , bu maloyiklarning karomati bilan pishdi. Uning oti simalak, - debdi. Bu so'z keyinchalik " sumalak " bo'lib o'zgarib ketgan ekan. Hatto hozir ham keksa onaxonlarimiz piru badavlat otaxonlar sumalakni tatib ko'rishdan oldin "qani Hasan-Husanlarning taomidan yalaylik",- deb avval jimjiloqlari bilan yalashadi. Sumalak pishirish usuli shundan kelib chiqqan.

OGOHLIK- DAVR TALABI

Ma'lumki, " fundamentalizm", "ekstremizm", "terrorizm" kabi tushunchalar jamiyati qabul qilingan qonun –qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo'lgan g'oyalar hamda ular asosidagi xarakatlarni

ifodalaydi. Qandaydir bir yo'nalishni buzib talqin etgan holda siyosiy maqsadni ko'zlovchi harakat ekstremizmga olib keladi. Ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat. Xuddi shunday, "fundamentalizm", "terrorizm" kabi so'zlar ham tom ma'noda hokimiyat yoki biror bir g'arazli maqsadlar uchun kurashuvchi ijtimoiy –siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir .

Masalan, "fundamentalizm" atamasi aslida, xristian dini bilan bog'liq holda shakllangan. Uning birinchi bor rasmiy qo'llanishi 1908-yilda AQShning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan "Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi"ga (The Conference on Cristian Fundamentalism) tegishli bo'lib , quyidagi asosiy 5 aqidani ifodalaydi:

- Iususning bokira ayoldan dunyoga kelgani ;
- Uning insoniyat gunohlarini oqlash uchun qurbon bo'lgani ;
- Jisman qayta tirilishi ;
- Yer yuziga jismonan ikkinchi bor kelishi ;
- Kitobning muqaddasligi va uni dastlabki sof holiga qaytarish.

Diniy ekstremizm o'zining ikki "da'vosi" bilan ajralib turadi:

- go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va johiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar.

Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga "asos" bo'lib xizmat qiladi;

- go'yo "haqiqiy" musulmonlar, ya'ni diniy ekstremistik guruhlar hokimiyatga kelgach, bo'lajak "islomiy tartibni" o'rnatishi mumkin.

Aslida "fundamentalizm " va "ekstremizm" g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad – dinning qadriyatlarini qaytadan tiklash emas , balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni , diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish , oxir oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir . Bu urinishlarda tuzatib bo'lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan xalifalikni tiklash g'oyasiga ham zo'r berilmoqda . Ana shu yo'lda islom fundamentalizmi vakillari , hatto milliy o'ziga xoslikni "qurbon" qilish g'oyasidan ham toymayaptilar.

Aynan ana shu xatti- harakatlar bugungi kunda o'z obro'sidan butunlay mahrum bo'lgan marksizm –leninizm ta'limotini eslatib turadi. Masalan, Rossiyada markslarning eng jangari oqimi –bolsheviklar , millati va irqidan qat'iy nazar , dunyoda yashayotgan barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalarini ilgari surib , terror yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan edilar. Ularning asosiy fojialaridan biri ham milliy omili va tadrijiylikning

ahamiyatini tan olmaganlarida edi. Shuning uchun ham ular tarixda zo'ravon ekstremistik g'oyalar sohibi sifatida nom qoldirdilar .

Bugun diniy ekstremizm va fundamentalizm tarafdorlari tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terroristic harakatlar ham ana shunday maqsad, yo'l va uslublarga tayanmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mintaqamiz, xususan, mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tug'dirayotganligini Prezidentimiz teran anglab , dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkinligidan hammamizni ogoh qilgan edi. Toshkentda fevral fojialari sodir etilmasdan ikki yil oldin Prezident I.A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid , barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari" nomli fundamental asarida shunday yozgan edi: " Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan " islom uyg'onishi ", "qayta islomlanish" ,"islom fenomeni" va boshqa turli- tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda e'tiborni jahon ham jamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodisalar g'oyat xilma -xil , ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va hatto qarama -qarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman."

O'RTA ASRLARDA VA UYG'ONISH DAVRIDA XIRURGIYANING RIVOJLANISHI

Evropada og'ir zamonlar hisoblanuvchi O'rta asrlarda (VIII — XIV asr.) madaniyat, ilm-fan va san'at inqirozga uchradi. Din xirurgiyaning rivojlanish yuliga deyarli engib bolmaydigan tousiklar kuydi, chunki xirurglarning materialistik dunyokarashi din asoslarini emirardi. Cherkov uliklarni yorib kurishni va kon kuyish bilan bajariladigan operastiyalarni takikladi. Qadimgi xirurgiyaning yutuq, va muvaffaqiyatlari unutildi. Fakatgina Gippokrat (Bukrot xakim), Stels va Galen asarlarini urganish bilan cheklanildi. Bularning jami xirurgiyaning fan va amaliy tibbiy mutaxassislik sifatida rivojlanishini keskin sekinlashtirib qo'ydi.

Evropada Avistenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali Ibn Sino (980—1037) bu davrda Buxoroda tibbiyot sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. o'sha paytda muhim siyosiy va madaniyat markazi hisoblangan Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogida tugilgan Abu Ali ibn Sino o'zidan so'ng ilm -fan va falsafaning turli sohalari bo'yicha 100 ga yaqin asarlarni qoldirdi. Ular ichida eng mashhuri bo'lgan «Qonun fit-t-tib» asari lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan, nashr etilgan (Ibn Sino tavalludining ming yilligi munosabati bilan rus va o'zbek tillarida qayta nashr etilgan). «Al-Qonun»da xilma-xil jarrohlik kasalliklari va operastiyalari, jumladan, nerv tomirlarini tikish, yaralar turi va ularni davolash; buyrakdan toshlarni olib tashlash, nafas olish yo'llarini operastiya qilish (traxeotomiya), shishni kesib olib tashlash va qizdirilgan temir bilan kuydirish ta'riflab berilgan. Chiqqan-singan suyaklarni davolaganda Ibn Sino birinchi bolib gipsli va kraxmalli bog'lamlardan, maxsus asboblardan foydalangan. Ibn Sino jarrohlik yuli bilan bemorni davolaganda ogrik qoldirish uchun unga afyun, mingdevona (belena) yoki mexrigiyo ildizidan bergan. «Qonun fit-tib» asari to XVII asrgacha Sharq va G'arb mamlakatlarida vrachlar uchun

asosiy qo'llanma bo'lib keldi. Mana shuning uchun ham Abu Ali ibn Sino tibbiyot fanining buyuk arboblari Gippokrat (Bukrot xakim) va Galen bilan bir qatorda turadi.

O'rta asrlarda Evropada jarrohlik bilan asosan sartaroshlar va xammomchilar shugullanishgan: ular jarohatlarga davo qilish bilan shug'ullanuvchi jarroxlardan birgalikda alohida uyushmani tashkil qilishgan. Jarrohlik ko'nikmalarini ular bir-birlaridan o'rganar edilar. Farangistonda (Parij, Monpele) XI — XIII asrlarda tashkil etilgan dastlabki universitetlarda tibbiyot fakultetlari ochilgan edi, biroq ularda jarrohlik fani bo'yicha darslar o'tilmasdi. O'rta asrlardagi rasmiy universitet ilm-fani tibbiyotning ichki kasalliklar sohasi bo'yicha vrachlarini tan olardi, shu boisdan, universitet ma'lumotiga ega bo'lgan vrachining jarrohlik bilan shug'ullanishi nomaqbul hisoblangan. Jarrohlardan ko'pincha bozorlarda yurib, nimalarga qodir ekanliklarini xaloyik oldida namoyish qilishgan. Turgan gapki, ularniig orasida ko'pdan — ko'p bilimsiz nodonlar va fi-ribgarlar bo'lgan. Ko'pincha amaliy jarrohlik natijalarini umumlashtirish va shu yo'l bilan jarrohlikni fan darajasiga kotarishga intilgan hatto taniqli jarrohlardan xam tan olinmagan. T. Parastels va A. Pare usha zamonning yorqin namoyandalari hisoblanadilar.

Shveytariyalik Parastels (1493—1541 y.) tajribali harbiy jarroxi edi. U jarohatlarni davolash metodikasini ishlab chikkan, davo kilayotganda tirishtiruvchi (bitiruvchi) vositalarni qo'llagan, kimyo yutuqlaridan foydalangan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIRURGIYA FANINING RIVOJLANISHI

Qadimiy boy madaniyati va taraqqiy topgan tibbiyoti bo'lgan O'zbekistonda xirurgiya fani o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Buxorolik ulug' hakim, buyuk qomuschi olim, yirik faylasuf va iste'dodli shoir, «Tib qonunlari», «Kitob ash-shifo» singari olamshumul asarlar muallifi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi fikrimizning yorqin dalilidir. Biroq, Chingizxon bosqini davrida madaniyat va fanning inqirozga yuz tutishi, O'rta Osiyo xalqlarining o'z ozodligi yo'lida arab va boshqa bosqinchilarga qarshi ko'p asrlik kurashi, o'zaro kelishmovchiliklar, din va jaholatparastlikning hukmronligi tibbiyotning rivojini sekinlashtirdi.

Bayrut, shuningdek Sankt-Peterburg kutubxonalarida saqlanadi) haqiqatni bilishga doyr bilimlarimizni cheklab kuygan. Shunga qaramay, yuqorida eslatib o'tganimizdek, Sharq, tabobatining ilmiy asoschilaridan bo'lgan Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida og'riq va og'riqsizlantirish, shikastlanishlar, yiringli-yallig'lanish jarayonlari va jarohatlar sohasida o'zining chuqur bilimlarini namoyish eta olgan. Tibbiyotga oid asarlarida (ularning soni 40 dan oshadi), xususan «Tib qonunlari»da Ibn Sino butun O'rta asrlardagi Evropa va Sharq tabobatining o'zigacha bo'lgan asosiy yutuqlarini umumlashtirib va tizimga solibgina qolmay, balki o'zining sarmashaqqat shaxsiy tadqiqotlari natijalari bilan boyitib, ularni ko'p jihatdan rivojlantirishga ham muvaffaq bo'ldi. Tibbiyot tarixi bilimdoni, olim V. D. Petrovning e'tirofi bo'yicha, «Tib qonunlari» o'z davrida odamning sog'lig'iga va kasalliklariga taalluqli bilimlarni to'la — to'kis o'ziga qamrab olgan butun bir tibbiy qomusdir» .

Turkiston o'lkasini istilo qilganidan keyin chor Rossiyasi sog'liqni saqdashni rivojlantirishga juda kam e'tibor berdi, chor hukumati shu maqsadlar uchun nihoyatda kam mablag' ajratardi (1913 yilda jon boshiga atigi 14 tiyin sarflangan).

Turkistonda birinchi davolash muassasasi 1861 yilda Toshkentda ochilgan harbiy lazaret (1870 yilda u harbiy gospi talga aylantirilgan) edi. 1872 yilda Samarqandda 20 o'rinli shahar kasalxonasi ochilgan. Keyingi yillarda Kattaqo'rg'on, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qonda (1883), Petro-Aleksandrovska (Turtkul, 1886) shifoxonalar ochilgan.

1903 yilning 15 aprelida Toshkentdagi xirurgik kasalxonasi, 1906 yilda esa Toshkent shahar kasalxonasi qoshida xirurgik bo'lim tashkil etilgan edi.

1913 yildan boshlab Toshkent viloyatining Pskent tumanida ishlagan O'zbekistonning keksa vrachlaridan biri A. P. Spiridonov o'sha davrdagi xirurgik yordam ahvoli to'g'risida shunday yozadi: «Qizil Krestda P. F. Borovskiy ishlagan edi, u Toshkentda va hatto butun Sirdaryo viloyatida (hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlarining hududi) yagona xirurg bo'lgan. Hamma joydan uni so'rab kelishar edi, chunki boshqa viloyatlarda xirurglar yo'q edi...»

1917 yil 7 sentyabrda Turkiston (hozirgi Toshkent davlat) dorilfununi tarkibida tashkil qilingan tibbiyot fakulteti O'rta Osiyoda oliy tibbiy ta'limning vujudga kelishiga zamin hozirladi. 1930—40 yillarda Samarqand, Dushanbe, Bishkek, Ashg'abat, keyinchalik esa Andijon, Buxoro va Nukusda tibbiyot oliy o'quv yurtlari tashkil etildi.

O'z-o'zidan ma'lumki, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining xirurgik kafedralari asta-sekin xirurgik maktablar shakllanadigan markazlarga aylandi. Ular ixtisoslashgan jarrohlik yordamini rivojlantirishga imkon berdi.

Chunonchi, P. F. Borovskiy (1863—1932) yirik olim va Turkistonda ilmiy xirurgiyaning tashkilotchilaridan biri bo'lgan. U o'zining ko'p yillik umrini xavfli o'smalar («Turkistonda xavfli o'smalar» ; «Xavfli o'smalar etiologiyasiga zamonaviy qarashlar», o't yo'llari, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasining xirurgiyasini o'rganishga bag'ishlagan. Olim teri leyshmaniozi qo'zgatuvchisini birinchi bo'lib topgan. P. F. Borovskiy Toshkent tibbiyot instituti gospital xirurgiya kafedrasining tashkilotchisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining xirurgiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan professorlar: M. S. Astrov, I. I. Orlov, S. A. Ma'sumov va boshqalar uning shogirdlari qatoriga kiradi.

Ifodali o'qish mashqlari.

O'zbekiston

Yalpizlari
Ko'kka tutash,
Tunlari zar,
Tongi marjon.
Yulduzlari - qotgan quyosh,
Quyoshlari kuydirmajon.
Oltin tuproq,
Zumrad dalam,
Ipak karvon,
Olmos qal'am.
Kuzda ketgan qushlari ham,
Bahor qo'msab qaytgan ayvon-
O'zbekiston, O'zbekiston!

Dunyo ichra

Tengsiz dunyo,
Zarchopon qalb,
Yalangtushim.
Qo'li ochiq,
Mehri daryo,
Mushti qattiq,
Ko'ngli bo'shim.
O'g'liga ot bo'lib cho'kib,
Qizlariga alla aytgan,
Belbog'iga borin to'kib,
To'yga borib to'ymay qaytgan.
O, bolafe'l,
O, bolajon-
O'zbekiston, O'zbekiston!

O'zini o'ylamay- o'ylab,
Farzandini yurgan sizlab.
O'nga kirgan bolasiga
Sarpoyiqqan
Qalliq izlab.
Bizda shunday,
Boringni qo'y-
To'rtta o'zbek to'plansa- to'y.
Nomus uchun
Kerak bo'lsa,
Joningni yoq,
Ko'zingni o'y.
Soch topganing,
Yoz dasturxon-
O'zbekiston, O'zbekiston!

O'zbekiston.

Mangu bahor diyorim , husning jahonga shoyon,
Chexrangga zebi-ziynat hur Qoraqalpog'iston,
Bahra olur gazingdan , rost aytsam , yarim jahon ,
Quyningga zar Quyadur Amu, Siru Zarafshon ,
Sen paxtaga to'liq kon, zaxmatli O'zbekiston.

Gavxarli sandig'ingdir Surxonu Qashqadaryo ,
Fargonayu Samarqand , Toshkent bilan Buxoro ,
Yuksaldi Xorazm ham , ko'rgan aytar tasanno.
Sirdaryoda ajoyib durdonalar muxayyo ,
Bir xazinang Andijon , mehnatli O'zbekiston

Mo'l sabzavotu mevang , ta'mi misoli shakar ,
Yoqimli hidlaridan olam bo'lur muattar,

Jun, qorako'l va pillang monandi la'lu gavxar ,
Ko'paydi maxsuloting , o'smoqdasan muqarrar,
Qo'yingda el farovon , vafodor O'zbekiston.

Bog'ingda yalla aytur qumriyu to'ti , bulbul ,
O'ziga dilni maftun qilmoqda rang-barang gul ,
Xalqing uchun poyandoz rayxonu sabza , sumbul ,
Go'yo , chiroy , fazilat senda yig'ilgan butkul ,
San'atu fanga oshyon , xizmatkor O'zbekiston.

Har kun quyosh kelibon aylar seni tomosha ,
Oy gardishi to'libon aylar seni tomosha ,
Gul g'unchalar kelibon aylar seni tomosha ,
Qardoshlaring sevibon aylar seni tomosha ,
Himmatli sen qahramon , jonajon O'zbekiston.

Farzandlaring ahdiga aylar vafo , muborak ,
Boyliklaring xilma-xil , bo'lmas ado , muborak,
Ko'kragingda bog'laring berar jilo , muborak,
Do'stlar deydi ; «Tashakkur , ming marhabo » , muborak
Yurtsevar bearmon , jonajon O'zbekiston.

Xalqing saxiy , dilovar , zamona ichra ilg'or ,
Donoligi hamisha senga bo'lur madadkor ,
Durdonalarga boysan , nodir javoxiring bor,
Senda o'sib Sharifiy , madhingni qildi ash'or,
Sen bebaxo guliston , jonajon O'zbekiston.

Farzand.

Azizim, qadrini bil , senga qo'l bilan qanot farzand,
Madad aylab bag'ishlar doimo ko'zu sabot farzand.
Mashaqqatlarda qolsang , senga hamkoru najot farzand ,
Madoring , ko'zda nuring , roxating , seriltifot farzand,
Hayotingga ulaydur go'yoki Yangi hayot , farzand.

Bolang-faxring , g'ururing , quvvating , jonli haso senga,
Yomon bo'lishga qo'ysang , yog'dirar jabru jafo senga ,
Deyurlar do'stlaring ham , izlashib doru davo senga ,
Bo'lib paydo o'zingdan , yopishibdir bu balo senga ,
Otayu onasini g'amga kuyar beuyot , farzand.

Bolangni sog'lom o'stir , dardu nuqson tegmasin nogoh,

O'qitib ilmu mehnat baxrasidan aylagin ozod,
Vafolik , kamtarinu yaxshi donolarga qil hamrox,
Qayerga borsa bo'lsin , oliy himmat , ishbilar , dilxoh,
Yuraging zavqqa to'lar , gar chiqarsa yaxshi nom , farzand.

Elingni bolasin ham , yaxshi farzanding kabi bilgil ,
Senga muxtoj bo'lsa , bag'ringga bos , parvarish qilgil ,
Saxiylik , odamiylik , burching oqlash uchun yugur-yelgil,
Basharparvarligingga hamma aytsin ofarin , taqsir,
Sevib tarbiya qilsang , senga kuyar e'tiqod , farzand.

Bolalar baxtiga shu davrimiz Boqiy zamon bo'lsin ,
Istiqlol boshimizga hamisha posbon bo'lsin,
Qatori ko'p Sharifiy , baytu she'ring doston bo'lsin,
O'qisin ham ko'paysin , qizu o'g'lonlar omon bo'lsin ,
Ko'zin yumganda qolsin , barchadan zotu zirot, farzand.

Navro'zi olam keldi.

Shonli huristonimga navro'zi olam keldi,
Yashnagan bo'stonimga navro'zi olam keldi
 Erib oqib muzu qor , mavj urdi soyu anxor,
 Kutib oldi navbaxor , navro'zi olam keldi.
Tinchlik jonga huzur deb , sog'lik , quvonch , g'urur deb,
Do'stingni borib ko'r deb , navro'zi olam keldi,
 Boqdi quyosh termulib , gullar qaradi kulib,
 Qo'yni yutuqqa to'lib , navro'zi olam keldi,
Bog'lar bezandi gulgun, ko'rgan bo'ladi maftun,
Gul bazmini ko'rish –chun navro'zi olam keldi,
 Lola kular subxu shom , boshida qipqizil jom,
 O'yiniga bo'lib rom , navro'zi olam keldi,
Bulbul qilib tarannum , g'uncha ochib tabassum,
Gul fasli yaxshi mavsum , navro'zi olam keldi,
 Savsan bo'lib xromon , boqdi qiyolab shu on ,
 Sochdi hidini rayxon , navro'zi olam keldi,
Ranoni el tebratib , bizga hidin hidlatib ,
O'simlikni uyg'otib , navro'zi olam keldi,
 Davrada kezdi bahor , bo'ldi sayli paxtazor ,
 Kuylandi yalla , yor-yor , navro'zi olam keldi,
Saxiy quyosh atayin barvaqt chiqib kun sayin,
Dedi : muborak , taxsin , navro'zi olam keldi,
 Sepini yozdi ko'klam , yer bo'ldi maysa gilam,
 Tunlarda yoqdi shabnam , navro'zi olam keldi,
Har kim ekib o'n ko'chat , joyini qilsa jannat,
Unga deyishsa raxmat , navro'zi olam keldi,

Yor-yoronni jamuljam ko'rib Sharifiy xurram,
Har xonadonga bayram – navro'zi olam keldi.

Bahor bo'ldi.

Esib yoqimli shabboda , gul ochildi bahor bo'ldi.
Giyohlar ko'karib , Qiru adirlar purviqor bo'ldi.

Quyoshham kun sayin porlab chiqib keldi tomoshaga ,
Uning nuri o'simlikka chiroy birla mador bo'ldi.

Yechib oq po'stinini tog'lar , yashil gulgun libos kiydi ,
Damo-dam kuydi naysonlar , ko'katlar beg'ubor bo'ldi .

Suv o'ynoqi irmoqlar , kelib qo'shildi anhorga
Ki , daryo to'lqini o'ynab , ko'ngildek beg'ubor bo'ldi .

Gulistonlar aro yayrab ajoyib xilma-xil qushlar ,
Uchib o'ynab , qo'nib sayrab bari zavqi diyor bo'ldi.

Ulug' himmatli dehqonlar dalaga chiqdi bel bog'lab ,
Qizidi paxtazor sayli , ashula , yor-yor bo'ldi .

Sharifiy , yozu kuz yanglig' muborak keldi gul ayyom,
Bahorning ziynatidan har qadam naqshi nigor bo'ldi

Buxoro sayri.

Istasang oliy sayohat , kel Buxoro sayriga ,
Qalbi poklar –chun ochilgan yo'l Buxoro sayriga ,
Yaxshi mezbolar mudom mashg'ul Buxoro sayriga ,
Yayrashib kelmoqda o'ngu so'l Buxoro sayriga ,
Do'stlarim , tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Hovlilarga tarqaladi gul hidi gulrozidan ,
Bahra olib Gazlimizning gaz oqar anxoridan ,
Balki kuylaydir , Zarafshon oltinin ash'oridan,
Nurlanar husni jamolin jilvasi , nur zoridan ,
Do'stlarim , tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Zardo'zi do'ppisi borki , u chiroydan ham chiroy ,
Gar minorga ilsa deysiz , Buxorodan chiqdi oy,
Mamlakat ichra bu o'lka rang –barang konlarga boy,
Mazali obi –naboti shaxdu shakar birla moy ,

Do'stlarim , tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Hofizi shirinsuxanlar o'qishib shaxnozini ,
Avj etar sayyoralar ham etishib ovozini ,
Yetkazib oliy makonga yallasin pardozi ,
Qo'zg'atar raqqoslarning qush kabi parvozini,
Do'stlarim , tezrok kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Bunda inson xizmatida baxtu to'le yulduzi,
Jannatu bog'u eram ham shu Buxoroning o'zi ,
Chunki tushdi bu diyorga jumla olamning ko'zi,
Quyosh , oydan nur taraydir , do'stu o'rtoqlar yuzi,
Do'stlarim , tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Bu ulug' tubsiz xazina , boyligining soni yo'q,
Madhini eshitsa har kim , ko'rmasa imkoni yo'q ,
Bor ajib ohanrabosi , mexrining poyoni yo'q,
Shunda tug'ildi Sharifiy , ko'nglining armoni yo'q,
Do'stlarim , tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga ,

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim ,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim .
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo'l elim !..

Dunyoga boq qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana .
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang – xalq bo'l elim .

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron ,
Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon .
Bir mayizni qirqqa bo'lgan bir tanu jon
Kunlaringga qaytay desang – xalq bo'l elim .

Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug' ,
Bayramingda sevinch ko'z yoshingga qulluq ,
Yurtim degan jasur Yurtboshingga qulluq ,
Unga qanot bo'lay desang – xalq bo'l elim .

VATANIM

Men dunyoni nima qildim ,
O'zing yorug' jahonim ,

O'zim hoqon ,
O'zim sulton ,
Sen taxti Sulaymonim ,
Yo'lg'izim ,
Yagonam deymi,
-Topingam koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan , Vatanim ...

Shodon kunim gul otgan sen ,
Chechak otgan izimga ,
Nolon kunim yupatgan sen ,
Yuzing bosib yuzimga ,
Singlim deymi ,
Onam deymi ,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan , Vatanim.
Sen Mashrabsan ,
Xalqda tumor ,
Balxda dorga osilgan ,
Navoiysan , shoh yonida
Faqirni duo qilgan ,
Yassaviysan , meniki deb ,
Ko'ringan da'vo qilgan ,
Ming bir yog'i ochilmagan
Qo'rig'imsan , Vatanim .

ONAMGA

Oh , mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda ,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'gil bo'ldimmi !..

Garchi bisotingda "bayram" so'zi yo'q ,
Bilaman , kutasan sandal to'la cho'g' ,
Menda yurak deganlarin o'zi yo'q :
Men sovg'a bermagan qiz yo'q bu oqshom ,
Senga na gul berdim , na shirin kalom ,
Endi men ham o'g'ilmi onam ?..

Deysan : olislarda omon yursang bas ,
Yodingga tushsam goh yo`qlab tursang bas ,
Bolam , senga hamma qiladi havas ...
Axir , mening dardim she'r emas faqat ,
Men mashhur shoirmas – mashhur beshavqat ,
Endi men ham senga o'g'ilmanmi , ayt ?..

Sh'aningga she'r bitdim . U seni topsin ,
Poyingga tiz cho'kib , qo'lingni o'psin .
Undan ham ulug'im borligin ko'rsin ,
Men uchun ham aziz holingni so'rsin ,
Sensiz g'arib ko`nglim ko`ngilmi , onam ,
Endi men ham senga o`g`ilmi, onam !..

ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim ,
Sh'er yodimu bo'lak ishni qotirmadim .
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim ,
Bir eslasam eziladi bag'ri – dilim ,
Ona tilim , kechir meni , ona tilim .

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim ,
Erkim yo`q deb zirqirardi bir joylarim ,
Parovozni hansirangan bug'doylarim ,
Oltinlarim , ma'danlarim , ipaklarim,
Ona tilim , kechir meni , ona tilim .

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar ,
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar ,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar ,
Topganimiz handalakdek tilim – tilim ,
Ona tilim , kechir meni , ona tilim .

Kimdir mayda millat bo'ldi , kimdir katta ,
Katta millat – Afandisi yo`qdir hatto ,
Biz piyoda , biz boqqanlar yurdi otda ,
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm ,

Ona tilim , kechir meni , ona tilim .

Onajonim.

Jahon ichra meni yo'qdan paydo qilgan , onajonim
Mudom asrash uchun jonin fido qilgan , onajonim

Zeriktirganda belanchak ko'targan aylabon yo'rgak,
Ne xizmat men uchun kerak , bajo qilgan onajonim

So'lisam tegdi deb ofat , yelib, yig'lab , chekib zaxmat ,
Qilib yuz turli tabobat , shifo qilgan , onajonim,

Berib tarbiya – ta'limni , shikastdan saqlab tanimni ,
Dilim , yo'limu baxtimni ziyo qilgan , onajonim,

Yiroq ketsam g'amimni yeb , yo'limga termulib boqib ,
Omon borgin eson kel , deb duo qilgan , onajonim,

Sharifiydek qilib jur'at , Vatan-elga qilib xizmat ,
Suting oqlash menga maqsad , fano qilgan , onajonim.

Hazil she'r.

Sovun dag'al.

(Bir tannoz qizning onasiga aytganlari)

Onajonim , siz bilasiz fe'limni ,
Shu kir yuvish to'sar o'sish yo'limni ,
Bukiltirar nozik nixol belimni ,
Sovun dag'al, og'ritadir qo'limni.

Endi kirdim yigirma uch yoshimga ,
Kir yuvishni qo'yasizmi boshimga ,
Ko'pik sachrar o'sma kuygan qoshimga,
Sovun dag'al, og'ritadir qo'limni.

Sovinlik suv qo'llarimni yoradir ,
Husnimga ham bu ish raxna soladir,
Tirnog'imning rangi ketib qoladir
Sovun dag'al, og'ritadir qo'limni.

Bir o'zimda uch hunar bor- yaxshi ish
O'sma , surma qo'yish , hino ivitish ,
Menga darkor emas , ona , kir yuvish,
Sovun dag'al, og'ritadir qo'limni.

Kiyimlarim juda ko'pdir ta'rifi,
O'zingizdan oyi , xama sarifiy ,
Kir yuvish xam oson emas Sharifiy ,
Sovun dag'al, og'ritadir qo'limni.

Тестлар

OLMOSH.

1. Turlanganda qaysi olmoshlarning izoh qismi o'zgardi ?
A) Men, o'zi, ana bu, barcha .
B) Shu, o'sh, bu, sen.
C) U, qaysi, hech narsa, har kim.
D) Sen, qanaqa, har kim, hamma.
2. Qaysi sonda kishilik olmoshi shaxs-sonda ko'chib ishlatilgan?
A) Senga xat keldi bolam .
B) Men, elimni talab qilaman.
C) Akam, ularni qiladi.
D) Men o'zim keldim.
3. Qaysi javobda o'zlik olmoshi ikki xil ma'no va vazifada kelgan ?
A) O'z yarim, o'zimning ishim, o'z darim.
B) Men o'zim , o'zing bil , o'zida bor .
C) Siz o'zingiz , o'zim bildim, o'ziga keldi .
4. Qaysi javobda faqat jamlash, ko'plik ma'nosini bildiruvchi belgilash olmoshlari berilgan ?
A) Barcha, har qanaqa , allakimlar.
B) Hamma, barcha, har nima.
C) Butun, jami, butunlay, bazi.
D) Birov , har biri , o'z , qanday , uzoq , mana bu.
5. Olmoshlar qayd etilgan javobni toping ?
A) Kim, kecha, sen, u, mana, biroz.
B) Nima, biz, o'z, bu, hech, kim, allaqachon, bari.
C) Men, shu, bugun, necha hech qanday.
D) Birov, har biri o'z, qanday, uzoq, mana bu.
6. Qaysi javobda olmoshlar berilgan?
A) Har, kim bu, u, o'sha, mana, bu.
B) Har bir, hechkim , hechnarov , allanima.

- C)Barcha,men,sen,u,biz,kelingsiz.
D)Kim,nima,qanday,shoti qaysi
- 7."Hech" olmoshning qaysi biri bajariladi?
A)Bo'lishsizlik olmoshi.
B)Gumon olmoshi .
C)Belgilash olmoshi.
D)Ko'rsatish olmoshi.
- 8.Gumon olmoshlari turganda qanday fonetik hodisa kuzatiladi?
A)Tovush orttirilishi va tuzilishi
B)Fonetiklik o'zgarish kuzatilmaydi.
C)Tovush orttirilishi
D)Gumon olmoshlari
- 9.Qanday olmoshlar vazifa ma'nosi bilan birga,
ajratilish izohlash kabi turli qo'limcha ,uslubiy vazifalar bajaradi...?
A)So'roq olmoshlari C)Kishilik olmoshi
B)Bunday olmoshlari yo'q D)O'zlik olmoshlari
- 10.Ot turkumidagi so'zlar oladigan kelishik va egalik qo'shimchalarini qaysi
so'z turkumiga mos kelishi mumkin ?
A)Sifat C)Ravish
B)Olmosh D)Fe'l
- 11.Ot,sifat,son o'rnida qo'llanib narsa,belgi,miqdor anglatuvchi so'zlar
qanday ataladi?
A)F'el
B)Ravish
C)Ko'makchi
D)Olmosh
- 12.Olmoshlardan qaysi biri kelganda kelishik qo'shimchasining oldin egalar
qo'shimchasi bo'lishi shart ?
A)Belgilash olmoshlari
B)O'zlik olmoshlari
C)Kelishik olmoshlari
D)So'roq olmoshlari
- 13"Biz"so'zi olmoshning qaysi turiga mansub ?
A)Belgilash
B)O'zlik
C)Kishilik
D)Gumon
- 14.So'roq olmoshlarni aniqlash ?
A)O'z,sen,u.
B)Kim,nima,qanday.
C)Hech kim,hech,qanday,hech nima .
D)Biz,siz,ular.
- 15.Olmosh qatnashgan gapni toping.
A)Bobolar ruhi hamisha bizga madadkor.
B)Hamma bayram kayfiyatida edi.
C)Yurtimiz lashkarlari qaytib keldi.

- D) Vatan uchun kurashganlarni hech qachon unutmaymiz.
16. Olmoshga xos bo'lmagan xususiyat qaysi qatorda berilgan ?
- A) Otga o'xshab tuslanadi.
- B) Gap bo'lagi vazifasida keladi.
- C) Egalik qo'simchasini oladi .
- D) Fe'l kabi tuslanadi.
17. Olmoshlardan qaysi turi egalik qo'shimchalari bilan kelib, shaxsning tanholigini ta'minlaydi?
- A) O'zlik olmoshli
- B) I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi
- S) kishilik olmoshli
- D) III shaxs kishilik olmoshli
18. Kelishik olmoshlariga quyidagi qo'shimchalarning qaysi biri qo'shilishi mumkin?
- A) yasovchi qo'shimchalar
- B) sanalgan qo'shimchalar kelishik olmoshlariga qo'shilmaydi
- C) so'z yasovchi qo'shimcha
- D) egalik qo'shimcha
19. Qaysi olmosh har uchala shaxs birlik va ko'plikdagi kelishik olmoshlari o'rnida ma'noli qo'llanilishi mumkin
- A) o'zlik olmoshi
- B) Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanuvchi o'lmoshlar mavjud emas
- C) ko'rsatish olmoshlari
- D) gumon olmoshlari
20. Qanday olmoshlar o'z ma'nosi bilan birgaketadi
- A) so'roq olmoshlari
- B) bunday olmoshlar yo'q
- C) kishilik olmoshlari
- D) o'zlik olmoshlari

OT

1. Soz turkumlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
- A) sintaksis
- B) morfologiya
- C) fonetika
- D) orfoepiya
2. Mustaqil so'z turkumlari berilgan qatorni toping
- A) ot, olmosh, ravish, yuklama
- B) son, fe'l, bog'lovchi
- C) sifat, ravish, ot, olmosh
- D) fe'l ko'makchi, son, ot
3. Mustaqil so'z turkumlarining qaysilari so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olib o'rganadi?
- A) son, fe'l, ot
- B) ravish, sifat olmosh

- C) olmosh, ot, fe'l
 D) fe'l, ot, ravish
4. Qaysi javobdagi otlarning barcha qismlari bosh harf bilan yoziladi?
 A) Mirix sayyorasi
 B) 8-mart
 C) Markaziy Osiyo
 D) Mustaqillik kuni
5. Aniq otlar qaysi javobda to'g'ri berilgan
 A) kitob sevinch, anor
 B) nok, tosh, sog'lik
 C) odam, kuch, iymon
 D) yulduz, arpa, omoch
6. Qaysi javobda mavhum otlar berilgan?
 A) dard, o'tin, moziy
 B) tuyg'u, tamosho, irmoq
 C) quvonch, insof, tozalish
 D) savol, qush, vatan
7. Kichraytirish, erkalash otlar qaysi qo'shimchalar bilan yasaladi?
 A) -cha, - oy, -zor
 B) – xon, -iston, - hash
 C) – cha, - aloq,- boz
 D) – loq, -gina, -cha, -jon
8. – lar, qo'shimchasi qaysi javobdagi so'zlarda ko'plik ma'nosini ifodalaydi?
 A) 5 so'mlar, soatlar
 B) dadamlar, ruhlar
 S) tuyg'ular, buyumlar
 D) olmalar, 3 yoshlarda
9. Qaysi javobdagi otlar odatda birlikda qo'llaniladi?
 A) ko'z, qoshin, lola
 B) g'alla, lab, quloq
 S) yaxshilik, oyoq, chigit
 D) tuz, suv, dala
10. Shaxs bildiruvchi otlar qatnashgan qatorni toping
 A) aka, toshkantlik, daryo C) suvchi, bo'yoqchi
 B) yigit, jiyan, bobo D) kitob, olma, ko'cha
11. Kasb boriga ko'ra shaxs otlari qaysi qatorda berilgan
 A) Suzuvchi, kosib, dorboz
 B) zargar, bobo, olim
 C) Sobor, otahon
 D) Xotin, jiyan, oshchi
12. Mansub va nisbiga ko'ra shaxs otlar qaysi qatorda
 A) rais, xo'ja, amma
 B) xisobchi, bek, sobirbek
 C) director, amir, xon
 D) eshon, suvchi, zargar
13. Qaysi qatorda istiqomat qilishiga ko'ra shaxs oti berilgan

- A) tog'da, jiyan, qaynona
 B) Ammam Toshkentdan qaytib keldi
 C) Qo'qonliklar gapga usta bo'lishadi
 D) Farg'onada anor ko'p bo'ladi
14. Aniq otlar qaysi ,javobda to'liq berilgan?
 A)Kitob,sevinch,anor,mehnat.
 B)Nok,tok,jamiat,sog'lik.
 C)Odam,kuch ,uy,imon.
 D)Yulduz ,arpa,omon,poda
- 15.Qaysi javobda mavhum otlar berilgan?
 A)Tuyg'u ,tomosha,o'rmoq,shajara.
 B)Dard,o'tin,o'kich,moziy
 C)Quvonch,insof,g'ashtlik,tozalik
 D)Savol,chaqmoq,qush,vatan.
- 16.Kichraytirish erkalash otlari qaysi qo'shimchalar bilan yasaladi?
 A)-cha,-oy,-zor,-al.
 B)-hon,-bib,-iston -hash.
 C)-chak,aloq,boji,boz.
 D)-loq,-gina,-cha,-poshsho,-jon.
- 17.Qaysi javobdagi otlar odatda birlikda qo'llaniladi?
 A)Ko;z,qo'shin,lola,bezak.
 B)G'alla,lab,quloq,lola
 C)Yaxshilik,oyoq,chigit,to'da
 D)Arpa,meva,un,bildi.
- 18.Qaysi javobda faqat yasama so'zlar berilgan?
 A)Otashkurash,bezak,xonanda
 B)Olmalarni,sarg'ich ,hususiy.
 C)Gultojixo'roz,qiyma, taxta, chapqi.
 D)Guldon,parda,Narvon.
- 19.So'z yasash hodisasi qaysi turkumlarga xos?
 A)Ot,fel,bog'lovchi,ravish turkumiga xos
 B)Mustaqil so'z turkumlariga xos
 C)Faqat ot,sifat,fe'l turkumga xos
 D)Ot,sifat,son,olmosh turkumlarga.
- 20.Ot turkumdagi so'zlar oladigan kelishik va egalik qo'shimchalarni qaysi turkumga xosso'zlar ham olishi mumkin?
 A)Sifat
 B)Olmosh
 C)Ravish
 D)Fe'l

Sifat.

1. Qiyosiy sohadagi sifatlarni aniqlang?
 A) qo'ng'iroq, yaproq
 B) qayroq, tuproq
 C) shirinroq, qalinroq
 D) oq, qizil

2. Qaysi qatorda fe'ldan yasalgan sifat berilgan?
 A) kuchli, saylanma C) chopqir, baquvvat
 B) titroq, yozga
 D) quvnoq
3. Otlashgan sifatlar qaysi gapda qo'llangan?
 A) yaxshi otga bir qamchi C) yaxshining so'zi qaymoq, yomonning so'zi to'qmoq.
 B) to'g'ri gap hammaga ham yoqavermaydi D) qari kampir yashar ekan
4. Qaysi javobda orttirma javobdagi sifatlar berilgan?
 A) kap katta, tim qora C) dum-dumaloq, sarg'ish
 B) jiqqa ho'l, ko'kimtir
 D) eng baland, bahorgi
5. Qaysi gapda otlashgan sifat undalma bo'lib kelgan?
 A) yaxshi topib gapirar, yomon qopib C) Botirlar qani olg'a
 B) yoshni mehnat, qarini ovqat asraydi D) kattalardan maslahat ol
6. Qaysi qatordagi qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi?
 A) oq soch, havo rang C) yolg'izoyoq, qimmatbaho
 B) ko'l, bola, erta pishar
 D) xush fel, sofdil
7. Qaysi qatorda faqat kuchaytirma sifat bor?
 A) oppoq, ko'm-ko'k C) to'q zangori, yaltiroq
 B) qop qora, arg'imtir D) juda tiniq, ko'kimtir
8. Nisbiy sifatlni toping?
 A) ko'kish, qoramtir C) oriqqina, yam-yashil
 B) oqimtir, qizilroq D) olg'ir, zafaron
9. Qaysi javobda orttirma sifat berilgan?
 A) juda katta, kuchli pok kishi C) oqishrang eng go'zal
 B) eng kichik izg'irin shamol D) g'oyat nafis, eng suluv
10. Asliy sifatlar bilan shakllangan birikmalar qaysi javobda berilgan?
 A) odobli qiz, eski chupon
 B) moviy osmon, toza qalb
 C) tiniq suv, ochiq eshik
 D) qora qalam, ommaviy tadbir
11. Qaysi birikmalarda sifat ko'chma ma'noda qo'llangan?
 A) iliq salom, xunuk salom
 B) shirin turmush, iliq gap

- C) quruq va'da, bo'sh o'rin
D) xunuk voqea, achchiq o't

12. Shakl ko'rinish bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

- A) gavdali, yoqimli
B) novcha, zangori
C) uzunchoq, qisqa
D) yassi dumaloq

13. Faqat mustaqil so'z turkumlari berilgan javobni toping?

- A) ot, ravish, fe'l, sifat, son
B) sifat, ravish, taqlidiy so'z, son
C) fe'l, ot, ravish, ko'makchi
D) ko'makchi, yuklama, olmosh

Tibbiy atamalar lug'ati.

A	
Аборт	Abort, bola tushishi
Абсцесс	Xuppoz
Акушер	Doyachi
Аккомодация	Moslashish
Аллергия	Allergiya
Амавроз	so'qirlik
Амнезия	esdan chiqish
Анализ	Tahlil
Анатомия	Odam a'zolarini o'rganuvchi fan
Местная анестезия	Mahalliy karaxtlash
Антибиотики	Mikroblarga qarshi dorilar
Антропометрия	Odam a'zolarini o'lchash
Аорта	Shohtomir
Аппетит	Ishtaha
Аптека	Dorixona
Артрит	Bo'g'in yallig'lanishi
Атеросклероз	Qon tomir mo'rtlanishi
Атрофия	Hajmning kichrayishi
Б	
Бактерия	Kasallik chaqiruv
Бальзам	Dori-darmonlar aralashmasi
Бедро	Son
Бельё	Kiyim-kechak
Постельное бельё	Choyslab
Белок	Oqsil
Беременность	Homiladorlik
Бесплодие	Bolasizlik, bepustlik

Боль	Og'riq
Бок	Biqin
Бронхи	Nafas yo'llari
Бронхит	Nafas yo'li yallig'lanishi
Брынза	Pishloq
Брюшина	Qorinparda
Бугорок	Do'mboqcha
В	
Вакцина	Kasallikka qarshi emlovchi dori
Веснушки	Sepkil
Вилочковая железа	Ayrisimon bez
Висок	Chakka
Витамин	Darmondori, vitamin, quvvat dori
Вкус	Ta'm, maza
Вливание	Quyish, suyuqlik quyish
Внутренности	Ichki organlar
Волчья пасть	Yumshoq va qattiq tanglay derekti
Вывих	Suyak chiqishi
Вытяжение	Cho'zish, tortib qo'yish
Г	
Гармония	Mutanosiblik, uyg'unlik
Гастрит	Gastrit, me'da yallig'lanishi
Геморрой	Bavosil
Герпес	Uchuq
Гигиена	Poklik
Гимнастика	Badantarbiya
Гипотония	Bosim pasayishi
Гипофиз	gipofiz
Глаз	Ko'z
Глотка	Halqum
Гной	Yiring, madda
Голенъ	Boldir
Голова	Bosh, kalla
Головной мозг	Bosh miya
Горбатый	Bukur
Гортань	Hiqildoq, bo'g'iz
Д	
Давление	Bosim
Двойня	Ekizak
Двенадцатиперстная кишка	O'n ikki barmoqli ichak
Действие	Ta'sir
Дерма	Teri
Десна	Milk
Дефект	Nuqson, qusur
Диагноз	Tashxis, kasallik nomi
Диета	Parhez
Дифтерия	Bo'g'ma
Доза	O'lcham
Долголетие	Uzoq umr ko'rish
Дуга	Ravoq, yoy
Дыхание	Nafas
Дыхательное горло	Kekirdak

Е	
Естественное вскармливание	Tabiiy ovqatlantirish
Единица	Birlik
Емкость	Sig'im
Ж	
Жалоба	Shikoyat
Жар	Isitma
Жевание	Chaynash
Железы	Bezlar
Желудок	Me'da oshqozon
Желудочки	Qorinchalar
Желтуха	Sariq kasalligi
Желтое пятно	Sariq dog'
Желчь	O't, safro
Живот	Qorin
Жидкость	Suyuqlik
Жировая ткань	Yog' to'qimasi
З	
Заболеваемость	Kasallanish, xastalanish
Заворот (кишки)	Chalmashish, buralish (ichak buralishi)
Загиб	Bukib, egib, qiyshayish
Заживание	Bitish, tuzalish
Закаливание	Chiniqtirish
Запах	Hid, is
Запой	Surunkasiga mast bo'lish
Запор	Qabziyat
Заразность	Yuquvchanlik
Затылок	Ensa
Зевота	Esnash
Здравоохранение	Sog'liqni saqlash
И	
ИБС (ишемические болезни сердца)	YuShX (yurakning ishemik xastaliklari)
Игла (медицинская)	Nina (driband)
Иглотерапия	Nina bilan davolash
Изжога	Jig'ildon qaynashi, zarda bo'lish
Излечение	Sog'aytirish, tuzatish, sog'ayish
Изменчивость	O'zgaruvchanlik
Икота	Hiqichoq tutmoq
Инородные тела	Yot qismlar
Инвалид	Nogiron
Инфекция	Yuqumli
Исследование	Tekshirish, tadqiqot
К	
Кабинет	Xona
Кабинет функциональной диагностики	Funksional diagnostika xonasi, ishlash qobiliyatini tekshirish va kasallikni aniqlash xonasi
Кайма	Jiyak
Кал	Najas

Кашель	Yo'tal
Кисть	Qo'l panjasi
Клапан	Qopqoqcha
Клетка	Qafas, hujayra
Ключица	O'mrov suyagi
Колено	Tizza
Кожа	Teri
Коклюш	Ko'k yo'tal
Комплексное лечение	Kompleks davolash, ko'p qirrali davolash
Копчик	Dum suyagi
Кора головного мозга	Bosh miya po'stlog'i
Коронка	Qoplama
Корь	Qizamiq
Костыль	Qo'ltiqtayoc
Краснуха	Qizilcha
Кровоизлияние	Qon quyulishi
Кровопускание	Qon chiqazish, qon oqizish
Кровохарканье	Qon tupurish
Л	
Левша	Chapaqay
Лейкоциты	Oq qon tanachalari
Лекарство	Dori
Лекарь	Tabib, davolovchi
Лечебное дело	Davolash ishi
Лоб	Peshona, manglay
Лучевая болезнь	Nur kasalligi
Лучезапястный сустав	Bel-kaft usti bo'g'imi
М	
Мазь	Surtma, malham
Малокровие	Kamqonlik, anemiya
Массаж	Uqalash
Матка	Bachadon
Медикаменты	Dori-darmonlar
Медицина	Tibbiyot
Мощность	Quvvat
Милосердие	Rahm-shavqat
Мимика	Imo-ishora
Минералы	Ma'danlar
Миокард	Yurak muskil qavati
Мокрота	Qadoq
Морг	O'likxona
Моча	Siydik, peshob
Мышление	Fikrlash
Н	
Наблюдение	Kuzatuv
Нагноение	Yiringlash, suyak usti parda, gazak olish
Надкостница	Suyakparda
Надколенник	Tizza qopqog'i
Нарост	Ortiq, o'siq
Нарушение	Buzish, buzilish
Наследственность	Irsiyat, nasl

Насморк	Tumov
Натирание	Surtish
Начало болезни	Xastalik boshlanishi
Нёбо	Tanglay
Недержание мочи	Siydik tutolmaslik
Недоношенный	Chala tug'ilgan – bevaqt tug'ilgan
Немой	Soqov, gung
О	
Обезболивание	Og'riqsizlantirish
Облучение	Nurlash, nurlantirish
Обтирка – обтирать	Ishqalash – artish, artmoq, tozalamoq
Ожирение	Semirish, yog' bosish
Ожог	Kuyish, to'qimalar kuyishi
Омоложение	Yoshartirish
Опора	Tayanch
Опухоль	O'sma
Организм	Vujud, tana, organizm
Орошение	Yuvish
Острота зрения	Ko'rish o'tkirligi
Отбор	Saralash
Отделение	Bo'lim
Отек	Shish
Очаг	manba
Охлаждение	Sovush
П	
Палец	Barmoq
Пальпация	Paypaslab tekshirish
Паралич	Falaj, shol
Перевязка	Tang'ich, jarohatbog', jarohat bog'lash
Пересадка	Ko'chirib o'tqazish
Печень	Jigar
Пипетка	Tomizg'ich
Пинцет	Qisqich, mo'ychinak
Пищевод	Qizilo'ngach
Плевра	Parda
Плод	Xomila
Почки	Buyraklar
Р	
Расписка	Tilxat
Рвота	Qusish, qayt qilish
С	
Связка	Boylam
Секретция	Yashirin, bezlari suyuqligi
Селезенка	Taloq
Симптом	Kasallik alomatlari
Скула	Yonoq
Слюна	So'lak
Сосуд	Tomir
Спинной мозг	Orqa miya
Срез	Kesik
Ствол	Ustun

Страх	Qo'rquv, vahima
Стопа	Tovon
Сужение	Qisilish
Т	
Таз	Chanoq
Тело	Gavda, tana
Тип	Xil, nav
Тиф	Terlama
Тихий час	Tinim payti
Токсин	Zahar
Травма	Jarohat, lat yeyish
Тошнота	Ko'ngil aynish, o'qchish
Трахея	Kekirdak
Трубы	Naylar
Труп	Murda, mayit, o'lik
Туберкулёз	Sil
У	
Угри	Husnbuzar
Ухо	Quloq
Ушиб	Lat yeyish
Ф	
Фигура	Bast, bichim
Форма	Shakl, tur
Функция	Vazifa, faoliyat
Фурункул	Chipqon
Х	
Холера	Vabo
Хрип	Xirillash
Хромота	Oqsoqlik, cho'loqlik
Хронический	Surunkali
Хрусталик	Ko'z gavhari
Хрящ	Tog'ay
Ц	
Цветощущение	Rang ajratish, rang sezishlik
Цистит	Siydik qopchasi yallig'lanishi
Цикл	Halqa, davr
Цитологической метод	Citologik usul
Ч	
Частота	Sur'at, takrollanish tezligi
Частица	Zarracha
Череп	Kalla suyagi, boshchanoq
Член, часть тела	A'zo, mucha, uzv
Чиханье	Aksa berish
Чувство	Sezgi, tuyg'u, hissiyot
Чума	O'lat
Ш	
Швы	Choklar
Шея	Bo'yin, garden
Шина	Taxtakach, shina

Э	
Экстренный	Tezkor, shoshilinch
Экстренная помощь	Shoshilinch yordam
Экзатия	Kengayish
Энцефалон	Bosh miya tuzilishi
Эпикриз	Kasallik xulosasi
Я	
Яд	Zahar
Ядро	O'zak, (mag'iz) yadro
Язва	Yara
Язык	Til
Яичко	Moyak
Яичник	Tuxumdon
Яйцо	Tuxum
Ямка	Chuqurcha
Ячмень	G'ovmijja

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" - Toshkent .G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1983-yil
2. Allomalar ibрати. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Malik Murodov. Toshkent ,1982-yil
3. Amur Temur o'g'itlari – Toshkent Navro'z ,1992-yil
4. Abdulaziz Saidnuriddin o'g'li. "O'zbek xalq tabobatidan o'gitlar".- Toshkent:"Yangi asr avlodi" , 2005-yil
5. Adham Vaisov. Teri va tanosil kasalliklari . -Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2004-yil
6. Asqarova M.,Yunusov R, Yo'ldoshev M., Muhamedova D. O'zbek tili praktikumi . –Toshkent: "Iqtisod-moliya " , 2006-yil
7. Azlarov E. O'zbek tilini o'rganamiz (Изучаем узбекский язык) – Toshkent: "O'qituvchi", 1993-yil
8. Azizov O., Safayev A., Jamolxonov H. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi.-Toshkent : "O'qituvchi " ,1986-yil
9. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi – Toshkent : O'qituvchi ,1972-yil
- 10.Botirova M.A., Doniyorov R.D., Kissen E.A., Mirzayeva I.R. «Учимся говорить по-узбекски» -Toshkent : "O'qituvchi" 1991-yil
- 11.Duschanov B.A.,Solixo'jayev S.S., Iskandarova Sh.T. Umumiy gigiyena. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri .-Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti,2001-yil

- 12.Ergashev A,Ergashev T. Ekologiya , biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- Toshkent :” Yangi asr avlodi” nashriyoti ,2005-yil
- 13.Hojiyev A. O’zbek tili sinonimlarining qisqacha lug’ati. 1700 dan ortiq so’z- Toshkent:O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 1963-yil
- 14.Ibrohimov A.,Sultonov X.,Jo’rayev N. Vatan tuyg’usi . Toshkent: “O’zbekiston”,1996-yil
- 15.Karimov I A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni –millat qilishga xizmat etsin. – Toshkent : O’zbekiston ,1998-yil
- 16.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.- Toshkent : Sharq ,1998 –yil
- 17.Karimov I.A. Bakamol avlod orzusi. O’zbekiston: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi ,2000 –yil
- 18.Mahkamov Ulfat . Axloq-odob saboqlari. – Toshkent: Fan ,2004-yil
- 19.Muhammad payg’ambar qissasi . Hadislar.- Toshkent: Kamalak ,1991-yil
- 20.Nishonboyev K N .,Hamrayeva F.A.,Eshonqulov O.E. Tibbiyot genetikasi Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti , 2000-yil
- 21.Qilichev E. Hozirgi o’zbek adabiy tili .- Buxoro davlat universiteti .2005-yil
22. Rafiyev A . O’zbek tili . Ta’lim rus va boshqa tillada olib boriladigan maktablarining 9-sinfi uchun darslik.-Toshkent:” O’qituvchi”, 2006-yil
- 23.Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati .-Toshkent: Ma’naviyat, 1998-yil
24. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili.- Toshkent: O’zbekiston 1992-yil
25. Tolipova R.,Tursunova I., Ochilova M . O’zbek tili. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik .To’ldirilgan 2-nashri .-Toshkent: Sharq,2005-yil
- 26.Turdiyeva K.,Ahmedova D. O’zbek tili . –Toshkent: “Yangi asr avlodi”nashriyoti ,2006-yil
- 27.Turdiyeva K.,Ahmedova D. O’zbek tili . –Toshkent: “Musika”,2007-yil
28. Uzoqov H., Mirzakarimova O’., Saidova R. O’zbek tili amaliyoti (Практика узбекского языка) –Toshkent “O’qituvchi “,1993-yil
29. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-tom-Toshkent: O’zME Davlat nashriyoti, 2003-yil.
30. Ozbek xalq maqollari . tuzuvchilar : T Mirzayev, A Musoqulov, B Sarimsoqov . Mas’ul muharrir : Sh Turdiyev.-Toshkent : Sharq,2005-yil
31. Shoabdurahmonov Sh .Hozirgi o’zbek adabiyot tilli.-Toshkent,1980-yil
32. Choriyev T.,Safarova N.,Istamova Sh.O’zbek tili. I- II qismlar.-Buxoro: BuxDU “ Ziyo-Rizograf” Ishlab chiqarish korxonasi ,2007-yil

33. Xayrullayev M.M. Manaviyat yuldzlari. -Toshkent: Abdulla Qodiriy
nomidagi xalq merosi nashriyoti , 1999-yil